

436.2

49

B-36

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



O'ZBEK TILI

Universitetlarning rus guruhlari uchun

Yoz.2

49 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
15-36 O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

H.A.Qahhorova, S.X.Muhamedova

O'ZBEK TILI

Universitetlarning rus guruhlari uchun

Toshkent
“Universitet”
2004

Mazkur darslik o‘quv yurtlari uchun chiqarilgan dastur asosida yozilgan.

Har bir dars makro va mikromatnlardan, grammatik mavzuni mustahkamlash uchun yo‘naltirilgan mashqlar, o‘zbek nutqiy muloqat namunalaridan iborat. Darslikda talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish maqsadida rus tilida mikromatnlar va mashqlar ham berilgan. Darslikda bitta ham grammatik qoida berilmagan, ya’ni bunda shakldan mazmunga qarab emas, balki mazmun-vazifadan shaklga qarab borilgan.

Bu darslik universitetlarning bakalavr tizimidagi rusiyabon talabalar va o‘zbek tilini mustaqil o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, prof. H.Dadaboyev

Filologiya fanlari doktori, prof. N.Husanov

KIRISH

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talabiga muvofiq oliy maktabda barcha fanlar kabi, til fanini o'qitishda ham tub o'zgarishlar ro'y berayapti.

Ta'larning oliy bosqichida o'zbek tilini o'qitishning mazmuni yanada ta'korillaشتiriladi.

Hozirgi kunda o'zbek tilining ijtimoiy mavqeい tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosи va imlo qoidalarining joriy etilgantigi, ish yuritishda to'liq davlat tiliga o'tilayotganligi barcha mutaxassislarining, millatidan qat'i nazar, o'zbek tilini puxta egallashlarini taqazo etmoqda.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o'zgartirib, o'zbek tilini o'rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o'rta maktabda, akademik litsey va kollejlarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan birga mutaxassislik bilan bog'liq bo'lgan nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan o'z mutaxassisligi bo'yicha foydalaniш, fikrni to'g'ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o'rganish ko'zda tutiladi. Shularni nazarda tutib darslik amaldagi darsliklardan farqlanib, grammatik tamoyilga emas, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi.

Darslik rus guruhlari talabalariga mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, umdag'i barcha materiallar faqat davlat tilida bayon qilindi.

Darslik birinchi o'ringa asosiy mavzu sifatida nutqiy mavzularning qo'yilishi bilan ham farqlanadi. Grammatik bilimlar fikr ifodatash vositasini bo'lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbek tili ta'limi tur mush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzularini doirasini yanada kengaytirilgan hamda ixtisoslikka moslashtirilgan tarzda o'zbekcha nutqni tinglash, so'lash, o'qish va yozish amallarini uyg'unlashtirib o'rgatish bilan ajralib turadi. Bunda talaba oldiga ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'qib tushunish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi talablar qo'yildi.

Har bir darsda umumiy mavzu asosida ikkitadan matn(makromatn va mikromatn) berildi. Dars matndagi tayanch so'z va so'z birikmalarini aniqlab, ularning ma'nosini izohlashdan boshlanadi. Asosiy e'tibor matn ustida ishslashga, matn tuzishga qaratildi. Har bir darsda topshiriqlar, savol-javob, mashqlar berildi. Mavzuga oid grammatik bilimlarni o'qituvchi izoh tarzida anglatishi, xatolarni tuzatishi, mavzu matni tilida qo'llanish xususiyatini ochib berishi mumkin. Bu esa talabalarni o'zbek tilida mustaqil fikrlash, til materialini vositasini nutqda mustaqil qo'llashga o'rgatishga yordam beradi.

Shuningdek, davlat tilida ish yuritish, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyuştirish, matn tuzdirish talabalarning ixtisosligiga ko'ra belgilanadi.

Darslikka ilova qilib o'qish uchun qo'shimcha materiallar berildi.

Darslikning kirish qismi, 1-14-darslari H.A.Qahhorova tomonidan, 15-29-darslari S.X.Muhamedova tomonidan yozildi.

1-Dars

*Umumiy mayzu: O'zbekiston – mustaqil davlat
Nutqiy mayzu: Mustaqillik bayrami*

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: *O'zbekiston, katta bayram, mustaqillik maydoni, asriy orzu, mustaqil davlat, qo'shma korxonalar, chet davlatlar, ulkan qurilishlar, munosib inson.*

Mustaqillik bayrami

Bugun O'zbekistonda katta bayram. Mustaqillik maydonida ulkan shodiyonalar bilan o'zbekistonliklarning eng sevimli bayrami – Mustaqillik kuni nishonlanmoqda. 1991-yil 1-sentabr o'zbek xalqi tarixida unutilmas sana bo'lib qoldi. Shu kuni o'zbek xalqi o'zining asriy orzusi – mustaqillikka erishdi. Oz vaqt ichida O'zbekistoni mustaqil davlat sifatida dunyoning 120 dan ortiq mamlakati e'tirof etdi. 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston BMT a'zosi bo'ldi. Mustaqil O'zbekistonda ro'y bergan o'zgarishlar: fan-texnika, tibbiyot, madaniyat, umuman, hamma-hamma soha, yo'nalishdagi yutuqlarimizning dovrug'i butun olamga tarqaldi. Paxta, nest va oltindek boyliklarimiz o'z qo'shimizga tegdi.

O'zbekistonda turli davlatlardan kelgan investorlar, katta - katta ishbilarmonilar har xil bitim, shartnomalar tuzub ish boshladilar, turli qo'shma korxonalar barpo etildi. Ko'plab o'zbekistonlik ta labalar chet davlatlarda tahsil olishmoqda.

O'zbekistonda ulkan qurilishlar amalga oshirildi va amalga oshrilmoxda, O'zbekiston ko'rkiga ko'rk qo'shib turuvchi zamonaviy osmono'par binolar, turli xil savdo, dam olish, ovqatlarish, sport inshootlari ko'plab qurilmoqda.

Mustaqillik maydonidagi bayram tomoshalarini kuzatar ekanmiz, xayolimizdan beixtiyor mana shu so'zlar o'tadi: "Biz, yoshtlar qanday milatga mansubligimidan qat'iy nazar, o'z mustaqilligimizni, yurtimizni hech kimga bermay, asrab-avaylab qadriga yetamiz. Kelajakda o'z xalqimizga munosib inson bo'lib yetishamiz va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilamiz".

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Matnni o'qing.
2. Matn mazmuni asosida savollarga javob bering.
 - a) O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishdi?

- b) O'zR qaysi sanada BMTga a'zo bo'lган?
- d) O'zbekistonda hozirgi kunda qanday qo'shma korxonalar ish yuritmoqda?
- e) O'zbekistonda qanday inshootlar qurilmoqda?
- f) O'zbekiston yoshlari qanday maqsadlar yo'ida harakat qilmoqdalar?
3. Berilgan so'zlarni to`g'ri joylashtirib gap tuzing:
- a) mustaqillik, O'zbekistonning, xalqi, uchun, ahamiyatga ega, juda, muhim;
 - b) shahar va qishloqlari, O'zbekistonning, chitoy ochmoqda, kumdan-kunga;
 - c) O'zbekiston, a'zo bo'lganidan, so'ng, BMTga, tan oldi, uni, 120 dan ortiq, mamlakat;
 - d) yoshlari, O'zbekiston, o'z yurtini, xalqni, asrab-avaylaydilar;
 - e) mustaqillik maydonida, o'zbekistonliklar, va mehmonlar, bayram qiladilar, katta, bilan, shodiyonalar.
4. Matnni lug'at yordamida rus tiliga tarjima qiling.
5. Tayanch so'z va so'z birikmalariga asoslangan holda matn mazmunini so'zlab bering.
6. «O'zbekiston - mustaqil davlat» mavzusida kichik insho yozing.
7. Matnda qollanilgan so'zlardagi unli tovushlarni topib yozing, ularni izohlang.

Eslab qoling!

O'zbek alifbosi

*Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt,
Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng, ' (tutuq belgisi).*

O'zbek tilida 6 ta unli tovush bor:

a, o, i, u, e, o'.

2-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, ulardagи unlilar talaffuziga e'tibor bering.

a	o	u	o'	e	i
ana	xona	u	o'qi	evara	ibora
mana	chiroq	ular	o'quvchi	ega	iborat
taxta	savol	bu	oqitiuvchi	egar	ibrat
deraza	devor	bular	bo'z	egri	idrok
talaba	kitob	shu	xo'p	ekan	ijara
xola	ostob	ukki	xo'rda	ekin	ijobiy
Nigora	obdasta	uka	osmono'par	elak	ilon
Hilola	oqshom	upa	o'pkalamoq	elat	iz

3-mashq. Savollarga avval ijobiy, so'ng salbiy javob bering.

Bu Nargizami?	Bu o'qituvchimi?	Bu qo'shiqchimi?
Bu muzeymi?	Bu kinoteatrmi?	Bu kitobmi?
Bu tafabami?	Bu rassommi?	Bu Anvarmi?
Bu teatrmi?	Bu maktabmi?	Bu lug'atmi?

4-mashq. "O'zbek tili darsida" mavzuida subbat tuzing. Unli tovushlarga alohida e'tibor bering.

5-mashq. Quyidagi o'zbekcha va ruscha so'zlarni qiyoslab o'qing, «о» va «о» tovushlarining har ikki tildagi talaffuziga ahamiyat bering.

O'zbekcha	Ruscha
Supa	Супа
Tut	Тут
Gul	Гул
Sud	Суд
Pud	Пуд
Tom	Том
Ibo	Ибо

6-mashq. Nuqtalar o'miga kerakli unlilarni qo'yib yozing.

1. Bug...ngi ishni ...rtaga q...yma. (Maqol). 2. Bog'...mizda ...lna, o'r...k, shaft...li, olx...ri va boshqa t...rl...i m...valar o's...di. 3. B...z usinbu yang... o'q...v yil... uch...n kitob-daft...rlarn... tayyorlab qo'yd...k. 4. O'zbekistonda b...lbul, ch...mchuq, q...rg'a, m...sicha singari q...shlar j...da ko'p.

7-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling, «о» tovushining yozilishiga e'tibor bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Играть, проходить, четыре, десять, лес, растение, правый, спросить, товарищ, мачеха, удобрение, чужой, думать, изменчивый, смерть, яма, косить, целовать, та девочка.

8-mashq. Qarindoshlikni bildiruvchi quyidagi so'zlarni tog'ri talafuz qiling va eslab qoling.

buv'i (бабушка), amaki (дядя со стороны отца),
buv'a (дедушка), tog'a (дядя со стороны матери),
jiyan (племянник), ota (отец), aka (брать),
nabira (внук, внучка), ona (мать), uka (братьшка),
opa (сестра), qayinegachi (золовка),
singil (сестренка), qayinog'a (деверь).

Til va madaniyat

1. Salomlashish va xayrlashish odobi.

Talaba: Assalomy alaykum, ustozi!

O'qituvchi: Va alaykum assalom, qizim.

Talaba: Domla, tuzukmisiz, sog' liqlaringiz yaxshimi?

O'qituvchi: Rahmat, juda yaxshi.

Talaba: Sizni korganimdan xursandiman, ustozi.

O'qituvchi: Men ham, qizim, barakalla.

Talaba: Xo'p, xayr, ustozi.

O'qituvchi: Xayr, omon bo'l, qizim.

Talaba: Ko'rishguncha xayr.

2. O'zbek xalq maqollarini yod oling, ularning o'z ona tilingizdagagi muqobilini toping.

O'z yurting - o'lan to'shaging.

Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

Vatanni sevmoq immondandir.

O'zga yurtda sulton bo'lguncha, o'z yurtingda ulton bo'l.

9-mashq. a) matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

Vatan tuyg`usi

Vatan, sen muqaddas sajdahimisan,

Ko'zimga surtayin tuproq gardingni,

Baxtimsan, onamsan, qalb ardog`imsan

Yuking yengillatsam, olsam dardingni!

Ha, ayniqsa, mustaqillik bayramida biz ona Vatanimizga bo'lgan cheksiz muhabbatimizni, qaynoq mehrimizni kuchliroq his qilamiz. O'zbekiston dini-mazhabi, millatidan qat'iy nazar, shu tuproqda yashovchi har bir millatning asl Vatani ekan, biz bor ovozimiz bilan: «Men bu yurt farzandiman, men bu yurt kelajagiman», – deb so'zlashni istaymiz. Dildan otlib chiqqan tuyg`ularimizni she'r bilan ifodalagimiz keladi:

Dilda so'zim, kuchim bilakda,

Qalbda g'urur, qalgondir tanim

Men qilayin beminnat xizmat

Farzandim deb suysin Vatanim!

b) Vatan tuyg`usi deganda siz nimani tushunasiz?

di) gaplaringizni yozing.

2-Dars

Umumiy mavzy: O'zbekiston - mustaqil davlat Nutqiy mavzy: Shu aziz Vatan barchamizniki

I-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: *o'zbek millati, voyaga yetmoq, ona Vatanim, qadriga yetmoq, buyuk davlat, milliy bog'*, *mag'rurlammoq, yomon ko'zlardan asrash*.

Shu aziz Vatan barchamizniki

Men o'zbek millatiga mansub emasman, ammo taqdir taqozosi bilan O'zbekistonda dunyoga kelib, shu yerda voyaga yetganman. Shuning uchun O'zbekistonni ona Vatanim sifatida sevaman va ardoqlayman. Vatan deb atalmish bu ko'hna zamin mustaqillik tufayli yana ham chiroy ochdi. Butun dunyoga yuz tutdi. Vatan so'zi hech qachon bugungidek mag'rur jaranglamagan. O'zbekistonliklar o'z Vatanini doimo e'zozlab kelganlar, uning har bir qarich tuprog'ining qadriga yetganlar. Shunday ekan, Vatanni xuddi ota-onani sevgan kabi sevmoq kerak. Uning ozodligi, poklli uchun kurashmoq zarur. Kelajakda O'zbekiston jahonga mashhur va ma'lum, iqtisodiyoti qudratli, yuksak madaniyatli buyuk davlat bo'ladi. Bunga ishonchimiz komil.

Bugungi O'zbekiston bilan ham har qancha faxrlansak arziydi. Men har tong Toshkentning go'zalligi, fayzi bilan zavqlanaman. O'zimga o'xshash minglab talabalar qatorida o'quv yurtimga shoshilaman. Qalbim faxr-iflixorga to'ladi. «O'zbekiston» milliy bog'i idagi Alisher Navoiy, Amir Temur xiyobonidagi Amir Temur haykalini ziyyorat qilar ekanman, shunday bobolarim borligidan mag'rulanaman. Toshkentdag'i Mustaqillik maydoni, Turkiston, Xalqlar do'stligi saroyi kabi inshootlardan olam-olam zavq-shavq olaman. Shu aziz Vatan - O'zbekiston barcha-barchamizniki ekan, uning har bir sarhadini yomon ko'zlardan asrash bizning burchimiz bo'lmog'i kerak. Vatan tinchligi, osoyishtaligi, farovonligi yo'lida joni-mizni ham ayamasligimiz zarur. Zero, Vaqtanimiz bir, taqdirimiz bider.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qing.
2. Matndan quyidagi so'z va so'z birikmalarining o'zbekcha muqobilini toping.

Я не узбек (узбечка)
люлю и ценю

гордо звучит
ее свобода

<i>древняя земля</i>	<i>чистота</i>
<i>получило признание</i>	<i>великое государство</i>
<i>получают удовольствие</i>	<i>наша Родина Узбекистан</i>

3. Matnni lug'at yordamida rus tiliga tarjima qiling.
4. Quyidagi savollarga javob bering.
 - a) siz nima uchun O'zbekistonni sevasiz va ardoqlaysiz?
 - b) O'zbekistonliklar o'z Vatanini e'sozlab kelganlarmi?
 - d) kelajakda O'zbekiston qanday davlat bo'ladi?
 - e) O'zbekiston mustaqilligini mustatkumlash uchun nimalar qilishni zarur deb hisoblaysiz?
5. Tayanch so'z va so'z birikinlari hamda o'z shaxsiy fikringizga suyangan holda matn mazmunini gapirib bering.
6. «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» mavzusida suhbat tuzing.
7. Matndan 10ta so'zni ko'chirib oling, ulardagi undosh tovushlarni izohlang.

Eslab qoling!

O'zbek tilida 23ta undosh tovush bor:

b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng
 Ulardan: b, v, g, d, j, y, ng, g', z tovushlari jarangli
 p, s, t, f, sh, k, ch, x, q tovushlari jarangsiz hisoblanadi.
 m, n, l, r tovushlari esa sonantlardir.

2-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, ulardagi undosh tovushlarning talaffuziga ahamiyat bering.

B	V	G	D
baland	vabo	gavda	davlat
badiiy	vazir	gazanda	dazmol
badxat	vazifa	ganj	dala
bayonnomma	vazn	gap-so'z	dalda
bedavo	vakil	garov	danak
bozor	va'da	garchi	dastyor
bola	vijdon	gilam	dasturxon
bormoq	visol	guruch	daraxt
J	Y	NG	G'
jabr	yigirma	jang	g'alla
javob	yigit	singil	g'oz
jahon	yilqi	ko'ngil	g'iza
jo'ja	yiroq	yangi	g'o'ra
jadid	yig'i	dengiz	g'ov

jurnal	yig'in	bo'ldingiz	g'ulom
jirafa	yo'l	tong	g'uneha
jemper	yo`rg`ak	ming	g'ussa

Z	P	S	T
zabon	paydo	sabab	taajjub
zavq	payt	sabzavot	tabaqa
zaif	panja	sabr	tabiat
zakiy	parvoz	savat	tabriknoma
zalp	pardoz	salom	talaba
zambil	pechak	savdo	tejamkor
zebo	peshin	sanash	tezlik
ziyo	piyoz	savob	tепа

F	SH	R	K
favvora	shabada	ravish	kabi
fazilat	shamol	razolat	kabob
fayz	shakar	ranj	kabutar
faol	sham	rassom	kal
farzand	shapko'r	Ra'no	keng
fikr	sharoit	rivoj	kesak
firqa	shifokor	ravoch	ker
farz	she'r	rus	kel

CH	H	X	Q
chavandoz	havas	xabar	qadam
chayla	hayot	xavf	qabul
chak-chak	haj	xayr	qadr
charman	hosil	xasis	qayer
chet el	hayrat	xamir	qalam
chumchuq	hakim		qaysar

M	N	L
mablag'	nabira	lavha
mabodo	navbat	lanj
madad	navro'z	lafz
modda	Nafisa	lobar
maydon	namoz	lola
maktab	negiz	loyiq

3-mashq. Jarangli undosh bilan boshlangan so'zlarni birinchi ustunga, jarangsiz undosh bilan boshlangan so'zlarni ikkinchi ustunga yozing.

Namuna: Jaranglı Jarangsiz
voha havas

voha, havas, paxta, do`ppi, dastro`mol, tut, somsa, zirak, shafoli, ipak, sholi, chumoli, koptok, gulzor, tutzor, g'o`zalar, xirmon, g'uncha, ziyrak, chumchuq, kaptar, xursund, deraza, devor, kitob.

4-mashq. So'zlarni o'qing, «j» tovushining ikki xil turini ajratib aytilib bering.
jurnal, juda, jar, jim, jazo, joyoh, jiydu, jivan, maglis, joy, ajah, byudjet, peyzaj, passajir, hujjat, ehtiyoj, juma.

5-mashq. N+g va «ng» tovushlarini farqlab aytib bering. Misollarni datstaringizga ko'chirib oling va rus tiliga tarjima qiling.

alanga	gung	Oldinga	tanglay
menga	gurung	o'ngga	so'ngra
senga	eng	jangga	ko'ngil
unga	yengil	zangori	rang

6-mashq. O'zbek tiliga xos «q» va «g» tovushlarini to'g'ri o'qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

aloqa	baqa	ag`darmoq	dog`
aniq	boqmoq	beg`araz	zo`rg'a
achchiq	vaqt	bolg`a	izg`irin
aql	yostiq	bog`bon	kambag`al
baliq	iqtisod	bug`doy	og`riq

7-mashq. «Guruhimizdagi talabalar bilan tanishuv» mavzusida suhbat tuzing. Suhbat tuzishda undoshlar talaffuziga alohida e'tibor bering.

8-mashq. Tarkibida «q», «g», «h» tovushlari bo'lgan meva va sabzavotlar, tarkibida «g», «k», «b», «sh» tovushlari bo'lgan o'simlik va daraxt nomlarini toping, to'g'ri talaffuz qiling. Ularni qatnashdirib turli mazmundagi gaplar tuzing.

9- mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Моя Родина - независимый Узбекистан

Я не узбек, но я родился на этой благодатной земле, в гостеприимном, солнечном, добром Узбекистане. Я вырос, отведав соль и воду этого края, я наслаждаюсь лучами солнца, живу безза-

ботно и радостно. У узбеков есть пословица: «*Bir kun tuz uegan uyingga qirq kun salom ber*», что в переводе означает, сорок дней приветствуя то место, где один день тебя покормили. Именно поэтому, я наравне с узбеками очень люблю свой город, свой кишлак, свою Родину – Узбекистан. Все мои ровесники стараются беречь нашу Родину, ее природные богатства, ее неприкосновенность, а самое главное – трудиться во имя процветания и благосостояния народов Узбекистана. Ведь в Узбекистане проживают представители более 100 национальностей и все они считают Узбекистан своей Родиной.

Я очень горжусь, что живу именно в Узбекистане, я очень счастлив творить и создавать для Узбекистана. Я и других призываю горячо любить наш родной Узбекистан. Пусть наша Родина будет еще краше, крепче, могущественнее и счастливее.

Til va madaniyat

1. Biror narsani so'rash odobi.

- Iltimos, aytib bera olmaysizmi...
- Kechirasiz, ayting-chi...
- Bezoval qilganim uchun kechirasiz, ayting-chi...
- Kechirasiz, aytib bermaysizmi...
- Kechirasiz, sizdan bir narsani so'rasam maylimi...
- Savol bersam maylimi?
- Bir daqiqqa vaqtingizni olsam maylimi?
- Sizga qiyin bo'lmasa...

2. O'zbek xalq maqollarini yod oling, ularning o'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

So'raganning aybi yo'q.

Bilmaganini so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Tili shirin odamning do'stлari ko'p bo'ladi.

Kishining so'zi aqning tarozisidir.

10-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'zbek tiliga yozma, tarjima qiling. «Н» ва «Х» товушларини то'г'ри talaffuz qiling hamda yozilishini eslab qoling.

Родинка, народ, покупатель, конец, характер, известие, опасность, представляю, доброе утро, ты мне мешаешь, китоб, скупой, большой, письмо, сквер, сотрудник, женщина, итог, любитель, ха-

дисы, хадж, шутка, удивляться, выговор, судья, честный человек, кочегер, штурм, бания, военный, мое право, запах, индус, обман.

11-mashq. a) matnni o`qing.

Vatanni suymak

Abdulla Avloniy

Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining Vatanidir. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jordan ortiq sevadi. Hatto bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatanidan-uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. Har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatanining muhabbati turar.

Biz, turkistonliklar, o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq sevamiz. Biz singari arablar ham Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'barni, sovuq o'lkkalarda yashovchilar esa eng sovuq, qor, muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda ko'radilar. Agar sevmasalar edi, o'z Vatanlarini tashlab ketar edilar.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'b», - deydiilar.

b) Vatan deganda siz nimani tushunasiz?

d) matn oxiridagi maqoldan nima tushundingiz? Javoblaringizni yozing.

3-Dars

Umumiy mavzu: O'zbekiston – mustaqil davlat

Nutqiyl mavzu: O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari

1 – mashq. Matnni o'qing. Matnning tayanch so'z va so'z birikmlarini eslab qoling: *davlat bayrog'i, timsollar, moviy rang, aks etmoq, mustaqilligimiz ramzi, o'n ikki yulduz, O'zbekiston surjadi, davlat gerbi, chambor, yarimoy, Humo qushi, tinchlik, baxt-saodat, faravonlik*.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan.

1.Bayroqdag'i moviy rang tirkilik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi.

2.Bayroqdag'i oq rang poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir.

3.Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4.Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat imoqlaridir.

5.Navqiron yarimoy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6.Davlat bayrog'imizdag'i o'n ikki yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikkha, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2- iyul kuni tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiyl uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonda bug'doy boshoqlari, so'l tomonda ochilgan paxta chanoglari suvrati tushirilgan chambardan iboratdir. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan; sakkiz qirra ichida

joylashgan yarimoy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, olyjanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turadi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'sidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi Respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matni qayta o`qib chiqing.
2. Matni lug`at yordamida tarjima qiling.
3. Matn mazmunini o`z so`zlaringiz bilan so`zlab bering.
4. «O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzları sizda qanday tuyg'ular uygodotadi» mavzusida kichik insho yozing.
5. Matnlardagi baynalmilal so`zlarni topib, daftaringizga ko'chirib oling, yozilishini eslab qoling.

Eslab qoling!

O'zbek tilida bo'g'inning asosiy turlari.

1. Bir **unlidan iborat**: o-na, u-ka, a-na, u. a.
Ertaga kinoga borasanmi, a? U biznikiga keladi.
2. **Unli + undosh**: osh, ot, ish.
3. **Undosh + unli**: da-da, bo-la, lo-la.
4. **Undosh + unli + undosh**: kel, yo'q, ket, bol, tiz.
5. **Unli + undosh + undosh**: ost, ust, erk, ishq, aql, adl.
6. **Undosh + unli + undosh + undosh**: ko'rak, tark, tinch, yanch, sanch, tort, qirq.

3-mashq. Quyidagi so`zlarni bo'g'inlarga ajrating va bo'g'in turlarini aytib bering.

Aloqa, bino, baland, bahor, dara, daraxtlar, ish, ishchilar, davomat, o'qituvchi, o'quvchi, jiddiy, zafar, mehnatsevar, singil, e'lon, oila, tanga, ko'ngil, oyijon, adajon, buvi.

Namuna: a-lo-qa, bi-no.

4-mashq. Sulbatni rollarga bo'lib o'qing. Uni daftaringizga bo'g'inlarga bo'lib ko'chiring.

Do'stlar uchrashuvi

Nargiza: O, salom Feruza!

Feruza: Salom, yaxshimisan, Nargiza?

Nargiza: Bugun darsdan keyin qayerga bormoqchisan?

Feruza: Yosh texniklar markaziga bormoqchiman. Senchi?

Nargiza: Men «Yosh avtomobilchilar» to'garagiga qatnashaman.

Feruza: Qoyil, mashina haydar ekansan-da?

Nurgiza: Ha, men mashina haydashga, uning ichki qismalarining tuzilishiga qiziqaman.

Feruza: Men esa sportga, ayniqsa, sprintga qiziqaman. Xo'p, mayli, xayr, yana ko'risharmiz.

Nargiza: Xo'p, xayr, yaxshi bor.

Eslab qoling!

Qiyoslang:

So'z urg'usi:

qishloq
ishlamoq
ishchi
kelgan
shahrim
kitobi

Mantiq urg'usi:

Biz paxta terdik.
Biz paxta terdik.
Biz paxta terdik.

So'z urg'usi quyidagi hollarda ham mavjuddir:

1. Fe'lning buyruq maylida:

qapir, kelgin, boshla, boray, olsin.

2. So'zga urg'usiz affiks qo'shitganida:

ishchiman, yoshdir, o'quvchiman.

3. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda:

kassa, vokzal, Gamlet, London kabi.

5-mashq. Quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'inni urg'u bilan o'qing.

Boshla, borgin, kelgin, jo'na, keling, kelsin, ketsin, keldi, ketdi, ukki, ikki, oti, to'qqiz, sakkiz.

6-mashq. Ushbu so'zlarga urg'uni to'g'ri qo'yib daftaringizga ko'chiring.

Arra, bola, ona, ota, xona, ishladik, otamiz, otamizga, usta, ustalari-mizga, mehmonlar, mezbonlar, shahar, sevaman.

7-mashq. Mantiq urg'usini hosil qilish uchun gaplarni qaytadan tuzing.

1. Kecha biz shoirlar bilan uchrashdik.

2. Bugun madaniyat saroyida katta konserb bo'ladi.

3. Yozgî ta'til vaqtida onamga yordam berdim.
4. Biz ertaga ma'ruzadan keyin kinoga boramiz.

8-mashq. Matnni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Узбекистан- моя Родина

Узбекистан - многонациональная страна. Здесь проживает более 100 наций. В то время как в другие регионах неспокойно, в Узбекистане достигнуто национальное согласие. Все народности Узбекистана живут в мире, согласии и дружбе. На нашей земле уважают народные традиции и отношение к каждой нации особенное. А ведь всем хорошо известно, что когда возрождаются национальные ценности, возрастает роль культурного наследия народа. Уважать язык, культуру, традиции народа – это значит уважение к каждому представителю этой нации. В многонациональном Узбекистане следуют именно этим принципам.

Til va madaniyat

1. O'zbekcha mulozamat va nutq odobidan namunałar.

Xayrlashish odobi (nutqiy namunalar)

Xayr.

Xo'r, xayt, bo'lmasa.

Xo'r, men ketdim.

Xayr, salomat bo'ling.

Endi bizga javob (bering).

Endi bizga ruxsat (fotilha) bering.

2. O'zbek xalq maqollarini ko'chirib oling, o'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

Aqldan ortiq boylik yo'q.

Aytilgan so'z – otilgan o'q.

Botirning mushfi ham yarog'.

Bilsung gapir, bilmasang eshit.

9-mashq. a) matnni ifodalı o'qing.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi

Mutal Burxonov musiqasi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhratining portasin toki bor jahon!

Naqorat

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajodolar mardonha ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol masha'li, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqorat

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajodolar mardonha ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

- b) madhiyani yod oling;
d) mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

4-Dars

*Umumiy mavzu: Shaxs va jamiyat
Nutqiy mavzu: Oila – jamiyat tayanchi*

1-mashq. Quyidagi so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
istiqlol, totuvlik, tayanch, nikoh, ittifoq, turmush.

2-mashq. O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing:

sog'lom oila, jamiyat tayanchi, muqaddas dargoh, yaxshilik urug'i.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan aniqlang.

SOG'LOM OILA – SOG'LOM JAMIYAT TAYANCHI

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari, sog'lom avlod masalasi, nikoh va oila munosabatlari borasida jiddiy o'zgarishlar sezilmoqda. Jumladan, istiqlol shuuri oila masalasida ham yangi, ijobiq qirralarni kashf etmoqda. Axir, oila – yurt tayanchi, jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi muqaddas dargoh. Shuning uchun ham Qomusimizda «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, u jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», -deb ta'kidlangan.

Ma'lumki, oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir.

Har bir tirik vujudning o'zi alohida bir olam, er va xotin – ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam – bu oiladir. Ittifoq iborasida ahillik, totuvlik, degan ma'nolar ham bor, albatta. Agar oila haqiqatan tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam guliston. Aks holda turmush do'zaxga aylanadi, buning jabrini er va xotindan ko'ra bolalari, yaqin qarindoshlari tortadilar. Jamiyatga moddiy va ma'naviy ziyon yetadi.

Oila to'g'risidagi g'amxo'rlikni amalga oshirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan g'oyat muhim vazifa hisoblanadi. Buning dalili sifatida 1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va Respublika xotin-qizlar qo'mitasi huzurida «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligini qayd etish joizdir.

Oliy Majlisning 9-sessiyasida qabul qilingan va 1998-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Fuqarolik protsessual kodeksi» va Oliy Majlisning 10-sessiyasida «Oila kodeksi» qabul qilinishi muhim voqeal bo'lib, oila masalalariga yanada oydinlik kiritdi.

Odatda oilaning vujudga kelishiga nikoh asos bo'ladı.

Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish qiyin, chunki u turmushning juda muhim qusmidir. Ota-onalar va bolalar har tarallama jipslashgan oila birligini tashkil qiladi. Ular oilaning negizi hisoblanadi.

Oila - jamiyatning asosi ekan, e兹gulik yo'lini tanlagan ana shu jamiyatimizda oilalar faqat yaxshilik urug'idan vujudga kelsin. Zero, jamiyat mustahkam, ma`naviy va ahloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdordir.

Topshiriqlar:

1. Matndagi quydagi so'zlarni eslab qoling:

mustaqillik, erkinlik, muhofaza, bo'g'in, nasi, oila, ahillik, yaxshilik, olam, negiz, huquq, burch.

2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalanib matning mazmunini so'zlab bering.


4. Kuzatishlaringiz asosida namunali oilalar haqida so'zlab bering.

5. Oila mehr-muhabbat, sadoqatlik, insoniy munosabatlar ramzi xususida bahs-munozara o'tkazing.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Ko'p ma'nolilik

Eslab qoling!



4-mashq. Avval bir ma'noli, keyin esa ko'p ma'noli so'zlarni ko'chiring. Ko'p ma'noli so'zlarning har bir leksik ma'nosi asosida gap tuzing:

leksikologiya, tanqid, gap, non, kitob, yer, g'oya, marmar, koinot, maktab, qobiliyat, xulosa, fonema, oyoq, bosh, yo'l, cho'qqi.

5-mashq. O'qing. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni toping, bu so'zlarning o'z hamda ko'chma ma'nosini aytинг.

Tong qizi kulimsib yuzini ochdi,
Oltin dengizlari ko'k uzra toshdi.
Bog'larda chechaklar atirlar sochdi.
Ko'kdagi yulduzlar uyalib qochdi.

Tumanga o'ralib yo'qoldi uyqu.
Har yerda bir go'zal umidli tuyg'u,
Har dilda ochildi shodlik chechagi,
Borliqda qolmadi hasrat va qayg'u.

Tong yeli o'yнагач qanotin yozib,
Tebranib, chayqalib ochildi gullar.
Nur sochib chiqqanda yangi kun kulib,
Yangratdi bog'larni sayrab bulbullar.

(Uyg'un).

6-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. Крепкий va светлый sifatlarining tarjimadagi ma'nosini izohlang.

- Спецовки изготавляются из крепкой ткани.
- В Средней Азии пьют очень крепкий чай.
- Парень обладал крепким здоровьем.
- В кровати лежал крепкий малыш.
- Саодат была в светлом плаще.
- Мебель была из светлого дерева.
- Посуда была из светлого стекла.
- В стакан налита какая-то светлая жидкость.

7-mashq. Quyidagi so'zlarning har xil leksik ma'noda qo'llanishini ko'rsatuvchi gaplar tuzing va ularni yozing.

Etak, yer, maktab, yo'l, qosh, bosh, til.

8-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Город в степи

Существует легенда, что во времена нашествия Чингисхана на месте города Карши был курган. Поэтому Чингисхан так и назвал окрестность - Карши, что в переводе означает «курган».

Еще в 60-е годы Карши был небольшим городком. Но постепенно он становился более крупным. Степь осваивалась, появлялись многоэтажные здания, промышленные предприятия, кинотеатры, стадионы, клубы и парки.

Наверное, в каждом городе есть самые святые и памятные места. В Карши это монумент героям, погибшим на войне. Есть памятник скорбящей матери и мечети в старом городе. У тех, кто посетит этот город Узбекистана, останутся самые лучшие впечатления о нем.

9-mashq. Quyidagi matnni o'qing, takrorlang, eslab qoling.

Suhbat

- Meni kutubxonaga a`zolikka qabul qilsangiz?
- Hujjatingiz bormi?
- Ha, mana pasportim.
- Talabamisiz?
- Ha, talabaman.
- Qaysi fakultetda, nechanchi kursda o`qiysiz?
- Matematika fakultetida, II kursda o`qiymen.
- Sis ko`proq qaysi yozuvchi va shoirlarning asarlarini o`qishga qiziqasiz?
- Men ko`proq Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, G`afur G`ulom, Oybek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov asarlarini o`qishga qiziqaman. Hozir menga Abdulla Oripovning «Bedorlik» nomli she'riy to'plamini bersangiz.
- Mana, marhamat.
- Rahmat.
- Hozircha xayr.
- Xayr.

SHAKLDOSHLIK

O't I (maysa)

O't II (olov)

O't III (o'tmoq)

O't IV (jigarning o'ti).

10-mashq. O'qing. Shakldosh so`zlarni topib, ularning ma'nolarini izohlang.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li).

Ba'zilar bor go'yo ho'l o'tin,
Tutab yonar, ko'r maysan o'tin,
Yangilikka qayishmas sira
Xoh buyur - u, xoh ming o'tin.

11-mashq. O'qimg. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Shakldosh so'zlarni toping.

Suhbatimiz turnalar haqida borayotgan edi.

Men: «Turnalar intizomli, tartib bilan uchadi, ular burchak shaklida uchadi», - dedim. Qizim Orzigel: «Ha, ada, turnalar el bo'lib uchadi», - dedi. Men jilmaydim. Qizim so'radi: «Nega kulyapsiz?». Men javob berdim: «Mening uchburchakka o'xshatganimga qaraganda sening el bilan qiyoslaganining yaxshi bo'ldi, juda mos tushdi. El so'zining ittifoq, do'st degan ma'nosi ham bor. Bolalar kulib yuborishdi. Ravshan: «Turnalar bir-biriga qarab uchmasa, hammasi har tomoniga ketib qoladi, ular do'st bo'lib uchmasa, el harfi bosil bo'lmaydi», - deb qo'shib qo'ydi. Men takrorladim: «El bo'lib el harfini yaratishadi».

12-mashq. Quyidagi shakldosh so'zlarining ma'nolarini izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ot, yoz, tok, yot, soch, zang, qo'y, o'q, tom, to'p, muzlar, doira, tush, gullar, soz.

13-mashq. Oqing, o'zbekcha mazmunini tushuntiring.

Нес медведь, шагая к рынку,
На продажу меду крынку.
Вдруг на мишку - вот напасть! -
Осы вздумали напасть.

Мишка с армией осиной
Дралися вырванной осиной.
Мог ли в ярость он не впасть,
Если осы лезли в пасть,
Жалили куда попало?
Им за это и лопало.

(Я. Козловский)

Topshiriqlar:

- 1.O'zingiz rus tilida shakldosh so'zlarga misollar toping.
- 2.Ruscha shakldosh so'zlar o'zbek tilida ham shakldosh bo'la ola-dimi? Izohlang.

14-mashq. Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ishtirokida misollar toping, ularni quyidagicha yozing:

Namuna:

Ko'p ma'nolilik	Shakldoshtlik
Odamning boshi	Ot kishnaydi
Yo'Ining boshi	Nishonga to'g'rilab ot
Ishning boshi	Oting nima?

15-mashq. Matndagi gaplarni ko'chirib, shakldosh va ko'p ma'noli so'zlarni toping, ularning ma'nolarini tushuntiring.

Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.

Onangni kaftingga tutsang, singlingni kiftingda tut.

To'dadan ajralgan to'rga tushar.

To'rga katta gilam soolibdilar.

Gapga bir yosh yigitcha aralashdi.

Karima ko'ziga yosh oldi. Yoshim o'ttizga yetdi. Laylak keldi, yoz bo'ldi, qanoti qog'oz bo'ldi.

Kitobdag'i so'z boshi. U yosh botalarga bosh bo'lib, ularga turli o'yinlar o'rgatdi. Qor! Uning boshi, yelkaleti oppoq bo'ldi. Otam yelkasi-dagi choponini tortib, etagi bilan meni o'ragan bo'ladi...

Jo'xorizor etagidan bedananing juda baland sayragan ovozi eshitildi.

16-mashq. a) matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Bir ota og'illarini yig'ib debdi:

-O'g'illarim. Odam bu dunyoda uch narsaga intiladi. Bu uch narsa to'rt xil yo'l bilan qo'lga kiritiladi. Bu uch narsaning biri - yaxshi turmush ke-chirmoq, ikkinchisi - odamlar orasida yuksak mavqega ega bo'lmoq, uchinchisi - foydali ishlardan qilmoqdir. Bu uch narsada erishmoq uchun to'rt xil yo'l bor: birinchisi -- hafol mehnat qilish, ikkinchisi - qo'lga kiritilgan davlatni saqlay bilish, uchinchisi - isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, to'rtinchisi - o'zini ziyonli ishlardan tiymoq.

- b) otaning aytganlarini siz qanday tushundingiz? Matnni kengaytirib so'zlab bering;
d) gaplaringizni yozing.

Test savollari

- 1. Tilning lug'at boyligi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**
1) Tildagi so'zlarning yig'indisi, barchasi.
2) Yangidan hosil bo'lgan so'zlar.
3) Bir necha ma'noni bildiradigan so'zlar.
4) Birgina ma'noni bildiradigan so'zlar.
5) O'zgargan ma'nomi bildiradigan so'zlar.
- 2. Ko'p ma'noli so'zlar guruhini toping.**
1) Bel, shiypon, anor.
2) Ko'z, o'tkir, shamol.
3) Aniqlovchi, o'yin, past.
4) Oy, davo, bosh.
5) Yoqa, etak, ildiz.
- 3. Qaysi javobda shaktdosh so'zlar berilgan?**
1) Maktab, dala, bog'.
2) Tut, o't, burun, qo'y, bo'g'in.
3) Qulqoq, qalam, suv.
4) Ko'klam, yaxshi, tuz.
5) Soat, chaqmoq, piyoda.

5 - Dars

Umumiy mavzu: Shaxs va jamiyat

Nutqiy mavzu: Mardlik – oliv insoniy fazilat

1-mashq. Quyidagi so'zlarning ma'nosini bilasismi?

mardlik, meros, sadoqat, jasorat.

2-mashq. O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

ezgu tuyg'u, ma'naviy boylik, komil inson, insoniy fazilat.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

Mardlik

Mardlik - bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik - bu inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi. Mard bo'lgan kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof, nomardlarda yotgizlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin.

Mardlik - bu insonning oliv fazilati bo'lib, unda hotirlik, qahramonlik, sadoqat, vafotujassamlangandit.

Hayotda mard odam bilan birga nomardlik, qo'rkoqlik, sotqinlik kabi salbiy fazilatlarga ega bo'lganlar ham uchrab turadi. Ular mardlik xusniga dog' tushiradilar. Mardlik bu manmanlik emas, aksincha qiyin ahvolga tushib qolgan odamlarga yordam va madad berish, uni qo'llab-quvvatlashdir. Mard kishi so'zida turadi. Bergan va dasining ustidan chiqadi.

Mardlik fazilatiga ega bo'lgan insonlar har qanday vaziyatda ham odamlar uchun jonini berishdan toymaydilar. Ular vafoli va sadoqatli boladilar. Odamlarga hamkorlik qiladilar.

Mardlik - keng va sermazmun tushuncha. U ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, odamlar bilan munosabatda, xatti-harakatda amalga oshadi. Mard inson bo'lish komillikning belgisidir.

Mardlik kishi burchida, vijdonida, qadr-qimmatida, farzand tarbiyasida, insonparvarlikda, mehnatsevarlikda, sevgi-sadoqatda, yaxshi ishlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mard kishi boshlagan ishini oxiriga yetkazmay qo'yinmaydi. U har qanday to'sqlarni yengadi. Natijada maqsadiga erishadi.

Mard kishi bir sozli, jasoratli, o'ktam bo'ladi. O'z orzu-niyatlarini amalga oshirishda saqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga ishonadi.

Zinhor-bazinhor ota-onasining davlatiga uchmaydi. Boshidagi do'ppi nomini tabarruk qilib, o'z millatining kamoli uchun mehr-oqibatlari bo'ladi.

Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. Mard kishi yurtining qalqoni va xalqining suyanchig'i bo'ladi.

O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi. Ularga o'zi yetolmagan armonlarini tushuntiradi. Amalga oshmagani ishlarini ro'yobga chiqarishni orzu qiladi.

(«Axloq, odob saboqlari» kitobidan)

Topshiriqlar:

1. Matndagi quyidagi so'zlarni eslab qoling:
haqiqat, qanoat, sabr, vijdon, insof, sadoqat, vafso, makkorlik, hasad, xiyonat, burch, armon, obro'-e'tibor, jasorat, turmush, munosabat, insonparvarlik, qalqon, mehr, qalb.

2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalanib matning mazmunini so'zlab bering.

4. Insoniy fazilatlardan yana qaysilarini bilasiz?

5. Mardlik fazilati mujassamlashgan o'rtoqlaringiz bormi?

6. Matn va kuzatishlaringiz asosida bayon yozing.

Ma'nedoshlik

chiroyli, go'zal, barno
Ulkan, ulug', katta.

Eslab qoling!

chiroyli ko'ylik
gozañ manzara
barno qiz

O'qing.

1) tilshunoslik, lingvistika, dangasa, yalqov.

2) yuz, bet, chehra, aft, bashara.

3) kuldji, julmaydi, iljaydi, tirjaydi.

4-mashq. Quyidagi so'zlarning sinonimini toping va yozing.
inson, qanoat, do'st, osmon, hasad, o'rtoq, ulkan, ojiz, sabr, botir.

5-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini aytin.

Nega shuncha go'zal ko'rinar olam?

Nega qarab to'ymas ko'zlarim?

Nega jo'sh uradi, ko'piradi qon?

Nega misday qizir yuzlarim?

Nega hayajonda tuyg'ular, hislar?

Nega lablarimda kezar tabassum?

Hayot go'zal, hayot maroqli,

Shuning uchun erka ko'ngil shod.

(Uyg'un)

6-mashq. Quyidagi soz'larga sinonimlar toping.

Смешной, старый, известный, трудиться, недостаток.

7-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Только в Самарканде

Таких лепешек вы не найдете больше нигде. Они самые вкусные, а главное – подожгу не черствеют. Это зависит и от муки, и от воды, и от способа приготовления. Мука для самаркандской лепешки берется не пшеничная, а ячменная.

Секрет приготовления таких лепешек передается из поколения в поколение. Поэтому – то и можно почти на каждой улице и сегодня купить самую вкусную, самую красивую лепешку.

Делать узоры на тесте – это целое искусство. И сколько же надо иметь терпения и мастерства пекарю, чтобы вынуть из тандыра самую румяную, самую сдобную самаркандскую лепешку!

8-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qib, bir-birlariga sinonim bo'lganlarini alohida – alohida guruhi lab ko'chiring, ular ishtirokida gap tuzing.

Oson, do'st, katta, ko'k, chortmoq, o'rtoq, aqt, buyuk, sodiq, sotqin, vadodor, xoin, yugurmoq, ulug', ulkan, chehra, chama, og'a-ini, faraz, yaxshi, durust, yo'ldosh, tuzuk, hamroh, taxmin, tusmol, chiroyli, teng, go'zal, barobar, zebo, suluv, ko'rkam, quyosh, ko'klam, bahor, oftoh.

9-mashq. Quyidagi matnni o'qing, takrorlang, eslab qoling.

Auditoriyada

- Siz rus tilini ham, o'zbek tilini ham yaxshi bilasizmi?
- Rus tilini yaxshi bilaman, lekin o'zbek tilini yaxshi bilmayman.
- O'rtoqlaringiz bilan o'zbekcha gaplashasizmi?
- Ha, gaplashaman. Ular ham men bilan o'zbek tilida gaplashadi (lar).
- O'zbek tilini yaxshi bilish uchun nima qilish kerak?
- O'zbek tilida har kuni gaplashish kerak. O'zbekcha kitoblarni o'qish kerak. Xohlasangiz, men sizga yordam beraman.
- Albatta, xohlayman.
- Bo'lmasa, mashg'ulotni hozir boshlaysiz.
- Juda yaxshi! Rahmat!

10-mashq. a) matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Ona zaminda o'sgan mevali, manzarali dov-daraxtlar, o'simliklar inson hayoti, salomatligi uchun naqdalar zarur. Ularning shifobaxshligi-chi?

Giyohlar va dov-daraxtlar gulidan, bargidan, tanasidan qanchadan-qancha turli-tuman dori-darmonlar tayyorlanib, odamlarni, hayvonot olamini kasalliklardan saq'lashda foydalaniлади.

Ilgari odamlar tabiat in'omi bo'lgan meva-chevalarni, giyohlarni shundayligicha iste'mol qilganlar. Keyinchalik esa shifobaxsh o'simliklar chinakamiga o'rganildi, turlarga ajratildi, o'zgartirildi, qayta-qayta tiklandi. Natijada ne-ne ho'l mevalar yil davomida dasturxonni bezah turadi.

b) shifobaxsh mevalar haqida so'zlab bering;

d) kuzatishlarining asosida matn mazmunini boyitib bayon yozing.

6-Dars

*Umumiy mavzu: Men tanlagan kasb
Nutqiyl mavzu: Mening orzularim*

1-mashq. Quyidagi so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
arxeologiya, etnografiya, maqbara.

2-mashq. O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

qadimiy obidalar, madaniyat qoldiqlari, mutaxassis, maftunkor, qazilmalar.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

Mening orzularim

Men maktabda o'qib yurGANIMDAYOQ tarix faniga juda qiziqardim.

Qadimiy davlatlar, shaharlar, xalqlar haqida ishtiyoy bilan o'qir edim. Hozir O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetida o'qiyapman. Biz o'rganayotgan fanlar juda qiziqarli: arxeologiya, etnografiya, qadimgi dunyo tarixi va boshqalar. Ketajakda men yaxshi mutaxassis bo'lishni orzu qilaman. O'lkamiz tarixinning ochilmagan sahifalarini o'rganishni orzu qilaman. Jumladan, Toshkent, Buxoro, Samarcand shaharlaridagi qadimiy obidalarni o'rganishni, yer ostidagi madaniyat qoldiqlarini izlab topishni istayman.

Biz yaqinda qadimiy shaharlar – Samarcand, Buxoro, Xivada bo'ldik. Qadimiy obidalar, ularning tarixi bilan tanishdik. Samarcanddagi Go'ri Amir maqbarasi, Registondagi madrasalar, Imom Buxoriy majmuasi, Buxoro amiri saroyi, Xivadagi ajoyib tarixiy obidalar bizda katta taassurot qoldirdi.

Men tarixchi bo'lishimdan xursandman, mana shunday go'zal, maftunkor obidalar bilan tanishib, yangi-yangi obidalar qazilmalarida ishtirok etishni orzu qilaman.

Topshiriqlar:

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalaniib matnnning mazmunini so'zlab bering.
3. Siz qanday kasb tanlagansiz? So'zlab bering.
4. Matn va tushunchalaringiz asosida bayon yozing.

4-mashq. Matnni o`qing va rus tiliga tarjima qiling. Antonimi bor so`zlarni aniqlang.

Inson do`stsiz bo`lmaydi

Kim bilan dost bo`lsang ham, do`stlik qoidalariga rioya qil. Agar sen dostoningni esga olmasang, dostoning ham seni esga olmaydi. Kimning do`sti ko`p bo`lsa, u baxtli sanaladi. Yangi do`st topsang, eski do`stlaridan yuz o`girma. Yaxshi dost kishining eng katta boyligidir.

5-mashq. Berilgan so`zlardan antonimik juftlar bosil qiling va ularni yozing.

Kun, rost, xursand, yolg`on, keng, tun, yorug`, tuzmoq, ingichka, sovuq, yo`q, o`ng, past, sekin, buzmoq, xafa, tor, yo`g`on, issiq, quyi, kirish, chap, baland, tez, yuqori, bor, chiqish, qorong`i.

6-mashq. Gaplarni ko`chirib, antonim so`zlarning tagiga chizing.

EI aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas. Avval o`yla, keyin so`zla.

Do`sitar shod, dushmanlar g`amgin...

Sultonali mirzo Anvarning tashqi abvoli bilan yaxshi tanish bo`lsa ham, uning ichki siridan voqif emas edi. Ra`no ozining bunday harakatlariga qarshi onasidan yaxshi-yomon mukofot olmasa ham, kopincha otasidan tanbeh eshitadi. Birovning og`irini yengil qilgan, mushkulini oson qilgan odam xalqdan rahmat oladi.

Topshiriqlar:

1. Dost-dushman, oz-ko`p, tor-keng, yaxshi-yomon so`zlari antonim sifatida qollangan maqollardan toping.
2. Topgan maqollaringizni rus tiliga tarjima qiling yoki rus tilidagi muqobilini toping.

Zid ma'nolilik

Dono – nodon
achechiq – shirin

saxiy - baxil
katta - kichik

Eslab qoling!

Yirik – mayda
yirik korxona – mayda tosh

7-mashq. Quyidagi so'zlarning har bir ma'nosiga antonim toping.

1. To'g'ri	to'g'ri yo'l to'g'ri odam to'g'ri gap to'g'ri yozmoq to'g'ri javob
2. Ko'p	ko'p odamlar ko'p kitob
3. O'tkir	o'tkir asbob o'tkir zehn o'tkir burchak qalamni o'tkir

8-mashq. Maqollarni o'qing, yod oling. Zid ma'noli so'zlarni topib, ularni sharhlang.

Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.
Oy tunda kerak, aql kunda kerak.
Ko'z qo'r quoq, qo'l botir.
Bir kattaning gapiga kir, bir – kichikning.
Torga tor dunyo, kengga keng dunyo.
Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar.

9-mashq. a) matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Bir donishmanddan so'radilar:

– Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima?

Donishmand javob berdi:

– Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go'zal axloqli, tarbiyalii, g'ayratli bo'lib, shu go'zal xisflatlar bilan nom chiqarish. O'llimdan ham battar yomon narsa esa axloqsizlik, tarbiyasizlik va yalqovlik bilan nom chiqarishdir.

– Eng aqlli odam kim?

Donishmand aytdi:

– Ko'p narsani bilib, kam so'zlagan, o'z bilimiga mag'rur bo'lib, bilimdonlik qilmagan odam, eng aqlli hisoblanadi.

(«Oz-oz o'rganib dono bo'lur»)

b) aytin-chi, siz insonlardagi qaysi xislatlarni yoqtirasiz?

- d) komil inson deganda qanday insonlarni tushunasiz?
- e) gaplaringizni yozing.

Test savollari

1. Qaysi javobda sinonimlar ta'rifli berilgan:
 - 1) Aytlishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar.
 - 2) Shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar.
 - 3) Qarama-qarshi ma'noli so'zlar.
 - 4) Ilm-fan, texnika, san'at, hunarga xos bir ma'noli so'zlar.
 - 5) Ma'lum hududda ishlatalib, faqat shu yerda yashovchi kishitarga tushunarli bo'lgan so'zlar.
2. Javoblarning qaysi birida sinonim so'zlar berilgan:
 - 1) Qalamdon, parta, siyoh.
 - 2) Ketdi, chopdi, yurdi.
 - 3) Go'zal, chiroqli, barno.
 - 4) Suv, havza, ko'lmak.
 - 5) Ko'ylik, doppi, chopon.
3. Tilda antonimi bor so'zlar guruhini toping
 - 1) Shahar, sevgi, aniq.
 - 2) Qarz, hajm, yurak.
 - 3) Chiqim, quvvat, soch.
 - 4) Bezovta, keksa, rost.
 - 5) farsand, notiq, botir.

7 – Dars

*Umumiy mayzu: Men tanlagan kusb
Nutqiy mayzu: Birinchi o'qituvchim*

1-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang.
zahmatkash, hikmat, qadam qo'ymoq, murg'ak qalb, murabhiy.

2-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan toping.

Birinchi o'qituvchim

- Bizlarni kim o'qitgan?
- Mehribon va zahmatkash o'qituvchilar.
- Mardlik va mehnatsevarlikni kim o'rtaqgan?
- O'qituvchi, albatta.
- Navoiyga ta'lim bergan kim?
- Muallim.

Ha, o'qituvchi so'zida ham bir olam hikmat bor. Men 1989-yil 1 sentabr kuni 1-sinf o'quvchisi bo'ldim. Shu kuni bizning birinchi o'qituvchimiz Umida opa qo'shimidan yetaklab sinfga olib kirdi.

Maktabga qadam qo'yganimizdan boshlab bizning murg'ak qalbimizda Vatanimizga nisbatan muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi tuyg'ularni uyg'otdi.

Bizlar bilan to'garak mashg'ulotlari o'tkazgan ham o'qituvchidir. Bizni ajoyib joylarga, sayohat va muzeylarga olib boruvchi ham o'qituvchidir.

Kimdir darsni o'zlashtirishda qiyalsa, yana o'qituvchi yordamga keladi.

Bizning o'qituvchimiz bir soat yaxshi dars berish uchun qanchadan - qancha kitob mutoala qiladi. Bizning a'lochi bo'lib o'qiyotganimizni, yaxshi xulqli bo'lib o'sishimizni ko'rganda, o'qituvchining boshi ko'kka yetadi. Bunda, tabiiyki, ularning ham mehnat samarasi bor.

Hozirgi kunda hamma havas bilan boquvchi universitet – O'zbekiston Milliy universitetining 2-kurs talabasiman.

Birinchi o'qituvchi, ilk ustozim, mehribon murabbiyim – Umida opani ikkinchi onam deb hisoblayman. Men birinchi muallimimni doimo hurmat va hayajon bilan esga olaman. Men ulardan bir umrga minnatdorman. Ana shu buyuk zotning munosib shogirdlari bo'lib qolishga astoydil harakat qilaman.

Topshiriqlar:

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalanib matnning mazmunini so'zlab bering.
3. Birinchi o'qituvchining haqida so'zlab bering.
4. Matndan foydalanib, o'z sikrlaringiz asosida kichik insho yozing.

Umumiyl va chegaralangan leksika Shevaga xos leksika

Adabiy tilda	Shevada
bushi	momo
tuxum	mayak
narvon	Shoti

3-mashq. Quyidagi so'zlarni adabiy va dialektal so'zlarga ajratib, ikki ustunga ko'chiring.

mushuk, pishak; buzoq, bo'zak; ona, ena, buvi; yostiq, bolish; do'ppi, qalpoq; narvon, shoti; aka, oka; baxmal, duxoba; qalampir, garmdori; sigir, inak; uka, ini.

4-mashq. O'qing. Dialektal so'zlarni aniqlab, ma'nosini tushuntirning, ularning adabiy tildagi shaklini ayting.

Eshikdagilar tinchmi? (S.A.) Shahar bolasligingiz shatta bilinib qoldi-a? Raisimiz Sotvoldiyev fe'lli keng, xiyla do'lob odam. (H.N.) Ikki yoshli novvoschamiz bolalarga kuch bermaydigan bo'lgan. Shoxlaguch. Men o'zim ming azob bilan siylab o't beraman. (S. Nurov).

To'satdan oranglardan ola pishak o'tdimi?

Gulnora: «Manga zardo'zi, qubbalik, popuklik kallapo'sh olib keling», – debdi. (Ertakdan).

5-mashq. O'z shevangizdagagi so'zlar ro'yxatini tuzing.

6-mashq. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan keltirilgan parchani o'qib, dialektal so'zlarni toping va ularni izohlang.

- Tur, Shariyf, tur, peshin bo'libtu!

Ikkinchi yigit ko'zini ochdi:

- E, qo'ysang-chi, Rahim.

- Tur-da, axe, ana Qobilboy ham kebto'xtabi! Sharifboy yostiqdan burilib, uchinchi yigitga qaradi: - Pala'nat, qachon kelgan ekan?

- Kim bilsin... Inisini bo uchratdimikin? Qani, uyg'ot-chi, pal 'natini!

Sharifboy yotgan joyidan qo'lini uzatib, Qobilboyning murtidan tortdi, Qobilboy – qinshib uyg'ondi:

– Tek, yot, Sharif!

– Iningga yo'liqdingmi?

– Yo'liqdim, ikavingga salom aytdi, – dedi Qobilboy va yuzini ular-dan chetga o'girib oldi.

– Bir oz tinch qo'y, uxtayman.

– Iybi, iybi, – dedi Rahim, – burodaring ahvolini gapir-da, axe. Bar-padari uyquki peshinga chikin bo'lса, ko'chaga bo'lib yotgan to'palangni go'shingga ilasarmi?

– Kech keldim, ko'p jovrama-chi, Rahim!

– Qorunni to'yg'uzib, so'g'un uxla, akun! Qorinlar ham piyoz bo'lib to'xtabtu, nonushtani qayerga qilamiz, Shariyf?

– Choyxonaga qilamiz.

Topshiriqlar:

1.Yozuvchi dialektal so'zlardan nima maqsadda soydatangan?

2.Abdulla Qodiriyning yana qanday asarlarini bilasiz?

3.Yozuvchi asarlarini asosida qanday kinofilmilar yaratilgan?

Kasb-hunarga xos leksika

7-mashq. So'zlarni diqqat bilan o'qing, ularni qaysi kasb-hunarga oidligini aytинг va ular ishtirokida gaplat tuzing.

Tugma, andaza, arra, shirach, qaychi, ip, nina, narx, peshtaxta, xaridor, oldi-sotdi, qimmatbaho, arzon, qaytim, taxta, osh, zira, metr, bolta, mix, randa, tuz, kiyim-bosh, tijorat, bichiqlichi, qiyqindi, tikuv mashinasi, qozon.

8-mashq. O'qing. Kasb-hunarga oid so'zlarni aniqlang.

Qora chiroq arang-arang dastgohni yoritar, yelkasi tashqariga tutrib, ko'kragi ishga botgan Safar bo'zchi, go'yo dastgohga quyilib qolgandek korinar edi.

Tepki bosishdan qich-qich qilgan nag'ma eshitilar va bu nag'ma ohangiga o'ynovchi mokki u yoq-bu yoqqa o'tib turar, lahza sayin arqoq o'rish birlashib, to'rt ellik bo'z hosil qilar edi.

Safar bo'zchi novori yog'oshini o'rab, oxorlik tandaga o'rishga mo'raladi... mokkiga yangi naycha joylab, yana ishga urindi. Ichkarida charx toblab naycha solish bilan mashg'ul To'xtabibi ko'yak yengini iplik o'rishchalar bilan to'ldirib chiqdi. Gap-so'zsis, o'rishehalarni eski to'ppiga ag'darib, bo'shalgan nauchalarni yig'ib oldi.

(A. Qodiriy)

9-mashq. «Oshxonada», «Ustaxonada» mavzularida suhbat matnini tuzing va yozing. Shu sohada ishlataladigan so'z va so'z birikmalarini aniqlang, ularning tagiga chizing.

10-mashq. Dialekt, leksika, neologizm, arxaik, jargonizm kabi so'zlarning ma'nolarini izohlang.

Atamalar

11-mashq. O'qing. Atamatarni aniqlab, ularning qaysi sohaga oidligini aytинг. Ko'p ma'noti so'zlardan farqini tushintiring.

Kelishik, kesim, inqilob, konstitutsiya, istiqlol, ozodlik, president, hujayra, oqsil, boks, final, ring, sinonim, dirijor, nota, duet, affiks, daraxt, kurtak, barg.

12-mashq. Lug'atdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug'atini tuzing. Ularning ma'nosi va qo'llanishi haqidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirib oling.

13-mashq. Xabarni o'qing. Unda qo'llangan iqtisodga oid atamalarni ko'chirib yozing.

Shu kunlarda ko'pgina oliy o'quv yurtlarida iqtidorli talabalar ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar bo'lib o'tmoqda. Kecha Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida talabalarning ilmiy-amaliy yig'ini bo'lib o'tdi. Anjumanda xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tijorat, iqtisodiy informatika va menejment, xalqaro biznes, hisob-iqtisodiyot fakultetlari talabalarining ma'ruzalari tinglandi va qizg'in muhokama qilindi.

Topshiriqlar:

«Talabalarning ilmiy-amaliy anjumanlari» mavzusida suhbatlashing. Suhbat uchun savollar:

- 1.Universitetingizda talabalarning ilmiy anjumanlari har yili o'tkaziladimi?
- 2.Siz o'qiyotgan fakultetda-chi?
- 3.Bu yil o'tkaziladigan anjumanda sizning guruhingizdan kimlar ma'ruza qilmoqchi?
- 4.Sis qanday mavzuda ma'ruza tayyorlayapsiz?
- 5.Ma'ruza yozishda sis qanday manbalardan foydalanasiz?

14-mashq. Matnni o'qing va uni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Мир местонимений широк и многообразен. Без местонимений нет языков. В своей речи мы постоянно ими пользуемся, поэтому не слу-

чайно, что по частоте употребления местоимения занимают 3-е место (после существительных и глаголов). Местоимения часто повторяются, так как постоянно возникает необходимость указывать на предметы, события, явления, качества, о которых уже упоминалось раньше.

Как длинна, как нудна была бы наша речь, если бы в ней не было местоимений. Мы вынуждены были бы повторять одни и те же существительные и прилагательные, а они, как правило, длиннее местоимений. Местоимения создают нам речевое удобство, так как экономят время и пространство.

По мысли известного лингвиста А.А. Реформатского, местоимения «как запасные игроки на футбольном поле», когда нужно освобождают знаменательные слова.

15-mashq. Matnni o'qing.

- Siz Olmaliq shahri to'g'risida eshitgammisiz?
- Ha, Olmaliq - O'zbekiston shaharlaridan biri.
U hozir qanday shaharga aylandi?
- U hozir jumhuriyatimizning katta sanoat shahriga aylandi. U rangli ma'danlarni qayta ishllovchi korxonalar shahri.
- Olmaliq shahri yaqinidagi tog'lardan qanday ma'danlar qazib olinadi?
- Olmaliq yaqinidagi tog'lardan mis, rux, qo'rg'oshin va boshqa ma'danlar qazib olinadi.
- Shaharda bir qancha sanoat korxonalari bor. Katta elektr stansiyasi, ohak, cement zavodlari, avtomobilarni remont qiladigan zavod, duradgorlik fabrikasi va boshqalar.
- Olmaliqdak qanday madaniy muassasalar bor?
Olmaliq shahrida muktablar, litsey, kollejlar, musiqa maktabi, kutubxona, kinoteatrлar bor.

a) Ozingiz yashayotgan shahar, qishloq haqida matn tuzing;

b). Matn asosida "Mening shahrim", "Bizning qishloq" mavzularida bayon yozing.

16-mashq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Kuntardan birida Navoiy bilan Husayn Boyqaro ovga chiqishibdi. Bir qishloqdan o'tishayotganlarida, yo'l chetida turgan bolakay ularga salom beribdi. Shoh alik olib o'tib ketaveribdi. Alisher Navoiy darhol otidan tushibdi-yu, bola bilan go'sh qo'llab so'rashib, qaytib otiga minibdi. Husayn Boyqaro hayron bo`libdi:

- Siz jahonga mashhur shoir, buning ustiga sultanatning vaziri bo'la turib, nahotki shu yosh go'dak bilan otdan tushib salomlashishingiz shart bo'lsa.

- Shu bolaning otasi bir vaqtlar mening savodimni chiqargan. Men uning oldida hamisha qarzdorman, - debdi shoir.

17-mashq. Hikmatni o'qing.

Haq yo'linda kim senga harf o'qitdi ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

Topshiriqlar:

1.Hikmatning muallifi kim?

2.Hikmatni siz qanday tushundingiz, o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

3.Ustoz haqida qanday hikmatlarni bitasiz.. Misollar keltiring va ularni yozing.

Test savollari

1. Qaysi javobda o'zbek shevalariga xos so'zlar berilgan?

- 1) Aqli, past, baland, shovqin.
- 2) Ona, xalq, vatan.
- 3) Buzoq, yong'oq, yoshlik.
- 4) Echki, chumchuq, tuxum.
- 5) Shoti, mayak, momo, takiya.

2. Qaysi javobda kasb-hunarga xos so'zlar berilgan?

- 1) Odam, kuz, dala, maysa.
- 2) Ota, ona, quyosh, ko'klam.
- 3) Shon, charm, qolip, shirach.
- 4) Bordi, kealdi, yugirdi.
- 5) Yoimg'ir, suv, qor, havo.

3.Qaysi javobda ona tiliga doir atamalar berilgan?

- 1) sinonim, undosh, aniqlovchi, ega.
- 2) loyiha, chizma, uskuna.
- 3) istiqlol, tinchlik, inson.
- 4) yaproq, po'stloq, ildiz, daraxt.

8 - Dars

Umumiy mavzu: Men tanlagan kasb Nutqiyl mavzu: Mirishkorlik

1-mashq. Quyidagi frazeologizmlarning ma'nosini bilasizmi?
kapalagi uchdi, ko'zining oq-u qorasi, bo'zchining mokisiday, ko'zi tegdi.

2-mashq. O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*og'zi tegdi, chillaki chillakini ko'rib chumak uradi, og'zi ochilib qoldi,
yaxshi ko'rib qolmoq, yo'llini bilmox.*

3-mashq. Matnni oqing. Notanish so'z va frazeologizmlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

Mirishkorlik

Bizning tomorqadagi chillaki hammanikidan oldin chumak uradi. Boshqalarniki endi sho'ra chiqarganida bizniki rang oladi. Boshqalarnikiga endi rang kirganida bizniki g'arq pishadi. Bu yil ham shunaqa bo'ldi. Oyim Kimsan akam ikkalamizga buyurdi: "Uzimning pishgan-pishganidan teringlar. Tog'angga olib boraman. Kelinimning og'zi tegsin". Oyim «kelinim-kelinim» degancha bor. Challar kuni Shomurod tog'amnikiga borganda Ra'no kelinoyimni ko'rib og'zim ochilib qoldi. Oppoq g'ijim ro'mol o'rab, uch marta salom qildi-yu, shundoq ro'molini ochsa... Tavba! Bu-naqa chiroyli qizni umrim bino bo'lib ko'rmaganman! Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko'zlar, sutday oppoq yuz, ingichka iyagidagi mitti xoli, angishvonadek og'zi - hammasi ataylab chizib qo'yilgan suratga o'xshaydi. Rostini aytSAM, qiz bola bo'la turib o'zimning ham havasim kealdi. Ra'no yangamni bir ko'rishda yaxshi ko'rib qoldim. Shuning uchun oyim «kelinimning og'zi tegsin» deganida Kimsan akam ikkalamiz shosha-pisha tomorqaga yugurdik. Endi uzum uzmoqchi bo'lib turgan edik, bobom bilan Oqsoqol buva kelib qolishdi. Oqsoqol uzumlarni ko'rib boshini sarak-sarak qildi.

- Nima balo, Duma! Uzumingni tagiga kechasi bilan olov yoqib chiqasanmi?

- Tu's de, ko'zing tegadi! - bobom pakana gavdasini g'oz tutib, ko'ksiga mushtladi. - Kim deb o'ylayapsan bizni! Yo'llini bilish kerak, yo'llini.

– ...Ammo uzuming zo'r bo'pti. Barakasini bersin! Menga ham o'rgat yo'llini!

– ...Yeding-ku, qalay, mazasi shirin ekanmi? – bobom xixilab kildi.

– Kesakni quvvati ja zo'r bo'ladi, Oqsoqol! Senga o'rgataverib o'zimga qolmadidi.

– Qo'ysang-chi! – Oqsoqol qo'l siltadi. – Bunaqa ishlarni o'zimam bilaman. Lekin hayronman, bu yil mening uzumimga kul tushdi.

– Hovlining devorini baland, tomorganikini past ol degan hikmat bor. Eshitgamisan?

Eshitmagansan! Ishkomingdan shamol o'tib tursin, kallavaram. Bo'limasa kul tushaveradi.

(O'. Hoshimov «Ikki eshik orasi»).

Topshiriqlar:

1. Matndagi quyidagi so'z va birikmalarni eslab qoling:

chillaki, rang oladi, g'arq pishdi, umri bino bo'lib, tomorqa, ko'zi tegdi, qo'l siltadi, baraka, og'zi ochilib qoldi.

2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Frazeologizmlarning tarjima qilinishiga e'tibor bering, ularning rus tilidagi muqobillarini toping.

3. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalanib matning mazmunini so'zlab bering.

4. Badiiy asarda yozuvchi frazeologizmlardan nima maqsadda foydalanadi?

5. O'zingiz frazeologizmlarga misollar toping va ularning ma'nosini izohlab bering.

Frazeologizmlar – nutqimiz ko'rkı

tanilmoq	– ko'zga ko'rinxmoq
to'satdan	– tomdan tarasha tushganday
top-toza	– yog' tushsa yalaguday
tinchidi	– ko'ngli joyiga tushdi
chaqqon	– oyoq-qo'li yengil
astoydil	– yeng shimarib

4-mashq. Quyidagi frazeologizmlar ishtirokida gaplar tuzing:

Qattiq qo'l bo'lmоq, xamirdan qil sug' urgандай, do` ppisini osmonga otmoq, aravani quruq olib qochмоq, panja orasidan qaramоq, pashshadan fil yasarnоq.

5-mashq. O'qing. Frazeologizmlarni fe'llar bilan almashting:

Boshi osmonga yetdi
Tuyog`ini shiqillatdi
So`zining ustidan chiqdi
Tishini tishiga qo'ydi
Tinkasi quridi
Tera sochi tikka bo`ldi
Og ziga so'k solib oldi.

6-mashq. Quyidagi frazeologizmlarning o'zbekcha muqobillarini toping va ularni konteksta qo'llang.

Быть на седьмом небе; как белка в колесе; не кусок пирога, а часть дорога; он и мухи не обидет.

7-mashq. Ko'chiring. Frazeologizmlarni topib, ularning ma'nolarini izohlang.

Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas. Saodatning ko'ngli yorishib ketganligi chehrasidan ko'rinish turar edi. Men ham sizday haqqoniy bo'lishga so'z beraman. Onam ishning ko'zini biladigan odamlardan. Bu o'ylardan Botirning boshi g'ovlab ketdi. Bu achchiq haqiqat uning damini ichiga tushirib yubordi. Lolaxon o'g'lini yer-ko'kka ishonmaydi. Maqtangannig misi chiqadi, deyishadi odamlar.

8-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga уозма tarjima qiling.

Любовь

Любовь – это лучшее из чувств, что рождены человеком.

Вряд ли кто-нибудь из вас скажет, что не хочет любви, причем такой любви, чтобы она пережила вас и осталась ярким примером для потомков на века. Ведь именно такой была любовь Тахира и Зухры, Лейли и Меджнун, Эхнатона и Нефертити, Данте и Беатриче, Петарки и Лауры...

Любить хотят все. Это также естественно, как растут траве весной. Но не все умеют любить. Не каждый способен отдавать. Бывает, когда человек способен только брать, брать и брать, в то время как любовь – это умение отдавать. И главное в любви – это прежде всего

способность к самопожертвованию. Настоящая любовь — это такое чудо, когда жизнь другого человека становится для вас важнее собственной. Настоящая любовь — это удвоение жизни, когда за одну переживаешь две жизни — свою собственную и жизнь любимого.

9-mashq. Matnni o'qing, takrorlang, eslab qoling.

Suhbat

- Siz qaysi institutda o'qiysiz?
- Men pedagogika institutida o'qiymen. Institutni tamomlab, o'qituvchi bo'lmoqchiman.
- Qaysi fandan dars berasiz?
- Rus tilidan dars beraman.
- O'qishlar rus tilida olib boriladigan mактабда ishlaysizmi yoki o'qishlar o'zbek tilida olib boriladigan mактабда ishlaysizmi?
- Men har ikkala mактабда ham ishlashim mumkin.
- Siz o'qituvchilik kasbini sevasizmi?
- Albatta, juda sevaman. Chunki o'z ishim bilan yosh avlodga ta'llim tarbiya berib, ularning jamiyatimizning ilg'or kishilar bo'lib yetishishlariga hissa qo'shaman.

10-mashq. a) she'rni oqing.

Go'dak edim, ko'p narsaga yetmasdi aqlim,
Bilganlarim bekinmachoq va to'ptosh o'yin.
Qulog'imga chalinardi keksalar naqli:
«Falonchimi, puch yong'oqqa to'ldirar qo'ynin!
Suv quyadi birovlarining tegirmoniga,
G'irromlikda tulkiga chap berar falonchi!»
Anglab yetmay bu gapdag'i teran ma'noga,
Ko'zlarimga ko'rinardi ular yo'g'onchi.
Boshdan o'tgan tabib derlar. Ulg'aydim bu kun,
Hikmatlarning mag'zin chaqib bo'lmasman hayron.
Keksalarning aytganlari ekan chippa-chin:
Boshda yong'oq chaqar ekan ba'zida inson.

(O. Hojiyeva)

- a) frazeologizmlarni topib ko'chirib, uslubiy va grammatik xususiyatlarini tushuntiring;
- b) siz yana qaysi o'zbek shoirlarini bilasiz? Ular haqida so'zlab bering;
- 4) she'rni yod oling.

9-Dars

Umumiy mavzu: Tabiat va inson

Nutqiy mavzu: O'zbekistonning hayvonot dunyosi

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'zlarni eslab qoling:

Hayvonot dunyosi, yovvoyi tabiat.dengiz, suv omborlari, ko'llar, baliq, sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar, qushlar, qo'riqxona, umumixałq himoyasi.

2-mashq. Matnni o'qish jarayonida ot turkumiga oid so'zlarga e'tibor bering.

O'zbekistonning hayvonot dunyosi

O'zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli-tumandir. Biz qayerda bo'lmaylik – tabiat qo'ynidami, zamonaviy shahardani, bizni ana shu ajoyib hayvonot dunyosi vakillari o'rab olganligini ko'ramiz. Orol dengizida, Sirdaryo va Amudaryo, juda ko'p suv omborlari, ko'llarda baliqlarning 60dan ortiq turi, hayvonlarning esa 150 dan ortiq xili yashaydi. Bepoyon cho'llarda ulkan tog' tizmalari va vohalarda sudralib yuruvchilarning 57 turi, sut emizuvchilarning 91 turi va qushlarning 410 dan ortiq turi tarqalgan.

O'zbekiston hayvonot dunyosi O'rta Osiyo hayvonot dunyosi kabi juda qadimligi bilan farq qiladi. Shuning uchun O'zbekiston ko'plab qadimiy hayvonlarning vatani hisoblanadi.

O'zbekistonning tabiatи juda xilma-xildir. Cho'l yoki vohalarda, tog' yoki to'qayzor o'rmonlarda – hamma joyda ham hayvonot dunyosi uchun o'ziga xos sharoit mavjud. O'ziga xos bu hayot sharoitiga ma'lum darajada moslashgan hayvonlar yashaydi.

Tabiatdan foydalanish bilan bir vaqtida, yovvoyi hayvonlarni tinmasdan ov qilinishdan va bir qator hollarda, ularning butunlay yo'qolib ketishidan saqlash kerak. Hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo'riqxonalar muhim o'rin tutadi. Hozir O'zbekistonda 8 ta qo'riqxona mavjud. Ularda tabiatning mazkur burchagidagi tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlanib qolishi kerak. Davlatimiz tomonidan ko'rilibotgan chora-tadbirlarning o'zi tirik tabiatning barcha boyliklarini kerakli darajada saqlashga qodir einas. Bu bizdan hayvonlarni elitiyot qilishni, ularga e'tibor berib, umumixałq himoyasiga olishni talab qiladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qib chiqing.
2. Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz?
- a) O'zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli tumandir;

- b) u O'rta Osiyo hayvonot dunyosi kabi o'zining qadimligi bilan farq qiladi;
- d) o'ziga xos bu hayot sharoitiga ma'lum darajada moshlashgan hayvonlar yashaydi;
- e) hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo'sirixonalar muhim o'rinni tutadi;
3. Matnni lug'at yordamida tarjima qiling.
4. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matn mazmuni so'zlab bering. Tabiatni asrash haqidagi o'z fikringizni aytинг.
5. Matnda qollanilgan rus va ozbek tillarida I xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni daftaringizga yozing va eslabil qoling. Masalan, fauna.
6. "Tabiat" mavzusiga oid so'zlarni ko'chirib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Takrorlang! Eslab qoling!

Shaxs, predmet (narsa), buyum va hodisalarini nomlash

Bu talaba	Onamlar
Bu auditoriya	Otamlar
Bu kitob	Bu o'qituvchi
Yomg'ir yog'adi	Havo bulut bo'ladi

1-mashq. Berilgan so'zlardan otlarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

Tinchlik, talaba, universitet, oliy, yetti, paxta, lola, ketdi, keldi, do'st, hosil, meva, Sanobar, Shaxlo, Murod, ota-onas, daftarlari.

2-mashq. Quyidagi savollarga avval ijobjiy, so'ngra sa'biy javob bering.

- kutubxonaga ketayotgan talabami?
- kecha sen uyingga kech qaytdingmi?
- bu kitob monografiyami yoki darslik?
- sening isming Nigorami?

3-mashq. Auditoriyangiz haqida gapirib bering. Hamsuhbatlaringizdan oldidagi kishi kim(narsa – nima), aniqlang.

Shaxsni mashg'ulot va kasbiga ko'ra atash

Buvam – paxtakor. Opam – dorishunos. Ukam – soatsoz

4-mashq. -chi, -kor, -shunos, -soz kabi qoshimchalar yordamida yasalgan otlarni toping.

- Xizmatchi hozir kelib to'xtagan tramvayga qarab yugurdi.
- Bizning jamoada Oynisa, Shokir kabi ilg'or paxtakorlar bor.
- Mening otam – tilshunos.
- Hasan kelajakda huquqsunos bo'lmoqchi.

5-mashq. Suhbatni o'qing. Shaxsni mashg'uloti va kasbiga ko'ra atash uchun xizmat qiluvchi so'zlarni toping.

Tabiat muzeyiga taklif

Salim: Salom, Akram.

Akram: Salom, qalaysan, Salim.

Salim: Qayerga ketyapsan?

Akram: Tabiat muzeyiga. Yur men bilan.

Salim: Tabiat muzeyida qanday qiziq narsalar bor?

Akram: U yerda juda ko'p qiziq narsalar bor. Hayvonlarning turli xil makettlari, rasmllari bor.

Salim: Muzey xodimlarining hammasi tabiatshunosmi?

Akram: Ha, deyarli ko'pchiligini tabiatshunoslari, ekolog. biolog. zoologlar tashkil qiladi.

Salim: Sen ham kelajakda tabiatshunos bo'lmoqchimisan?

Akram: Ha. Men kelajakda tabiatshunos bo'lmoqchiman. Sen-chi?

Salim: Men esa san'atshunos bo'lmoqchiman.

Akram: Xo'p, xayr, Salim. Yana ko'risharmiz.

Salim: Xo'p, yaxshi bor.

Qarashlilik ma'nosini ifodalash

Kimning?	Kimniki?
- kimning do'sti?	kitob kimniki?
- mening do'stim	kitob meniki

Eslab qoling!

Kimning	kimi?	nimas?
Meninng	Otam	kitobim
Sening	Otang	kitobing
Sizning	Otangiz	kitobingiz
Uning	Otasi	kitobi
Sizlarning	Otangiz	kitoblarngiz
Ularning	Otalari	kitobi
Nima?	Kimniki?	
Darslik	Meniki	
	Seniki	
	Sizniki	
	Uniki	

6-mashq. Qarashlilikni tog'ri ifodalang.

Uka	kitob
Bola	rasm
Do'st	daftar
Dugona	lug'at
Talaba	darstlik
Ku-tubxona	gazeta

Namuna: ukamning kitobi.... kitob ukamniki.

7-mashq. Savollarga javob bering. Javobda mening va meniki so'zlarini qo'llang.

- a) bu kimning xonasi?
- b) bu kimning darsligi?
- c) bu kimning lug'ati?
- d) bu kimning uyi?
- e) bu kimning kompyuteri?
- f) bu kimning ruyasi?

Namuna: – Bu mening xonam .

– Bu xona meniki.

8-mashq. Quyidagi so'zlarning o'zbekcha muqobilini toping.

Мой университет, мой сосед – бизнесмен, мой факультет, моя сумка, моя ручка, моё пальто, мой дедушка – литературовед, мой ребёнок, мой папа – электрик, мои деньги, моя мама – бухгалтер, мои заботы.

Til va madaniyat

1. O'zbekcha mulozamat va nutq odobi namunalari

Telefonda gaplashish odobi.

- Allo, assalomu alaykum.
- Assalomu alaykum.
- Kechirasiz, Murodjonni mumkinmi?
- Ha, hozir chaqirib beraman.
- Rahmat.
- Allo, Murodjon, assalomu allaykum.
- Assalomu alaykum, labbay, eshitaman.
- Bu, men Saidjon.....

2. O'zbek xalq maqollarini o'qing, daftaringizga ko'chirib oling va ularga amal qiling.

Ko`p o`yla, kam so`yla
Yetti o`lchab bir kes.
Gap ko`p, ko`mir oz.
Katta gapirgandan ko`ra, katta tishla.

Ushbu maqollarning o'z ona tilingizdag'i muqobilini toping.

9-mashq. a) matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

Liliput ohu

Janub pudi dunyodagi eng kichik ohu bo`lib, yag`rinining kengligi 40 santimetrdan ortiq emas. og`irligi esa 12 kilogramcha keladi. Uning shimal puididan boshqa deyarli yaqin qarindoshlari yo`q desa ham bo`ladi. Qachonlardir bu ohu And tog`i yonbag`irlarida, shuningdek, Chili va Argentinaning tropik o'rmonlarida yashar edi. Keyingi yuz yil ichida odamlar bu o'rmonlarning 90 foizini yer yuzidan yo'qotib yubordi. Natijada bu o'rmonlarda yashayotgan kichkinagina ohular o'zi o'rgangan sharoitdan yashab turgan yeridan mahrum bo`ldi. Ovchilar, yovvoyi itlar ularni ovlab yo`q qildilar. Hozir And tog`i yonbag`irlarida pudilarni uchratish amri maholdir.

- b) siz yo`qolib borayotgan yana qanday hayvonlarni bifasiz?
d) gaplaringizni yozing.

10 - Dars

*Umumiy mavzu: Tabiat va inson
Nutqiy mavzu: Yil fasllari. Oh-havo*

I-mashq. Matnni o'qing. Matndagi tayanch so'z va so'z birikinalarini eslab qoling:

Iqlim, shimol, qish, dengiz, yoz, iliq, sovuq, issiq, yomg'ir va qor yog'adi, sovuq shamil esadi, kuz.

MDH MAMLAKATLARIDAGI IQLIM

MDH mamlakatlari hududida iqlimning turli ko'rinishlari uchraydi: arktik, mo'tadil (dengizdan yiroq yerlarning yozi quruq, issiq, qishi esa sovuq) iqlim, subtropik iqlim.

Uzoq shimolda arktik iqlim hukm suradi. Bu yerlarda qish juda qat-tiq bo'lib, - 40 °S ga yaqin sovuq bo'ladi. Yoz oylarida ham harorat 0 °S dan oshmaydi.

Janubga qarab havo ilib, iqlim mo'tadillashib boradi. G'arbda iqlim dengizga bog'liq. Bu yerda qish yumshoq, yoz esa iliq bo'ladi. Sibirda iqlim juda o'ziga xos: bu yerda qish juda uzoq vaqt davom etadi va sovuq bo'ladi.

Qrim va Kavkazda subtropik iqlimdir. Bu yerlarda qish qisqa hamda iliq o'tadi, yoz esa unchalik issiq bo'lmaydi.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda qish (dekabr, yanvar)da havo sovuq bo'ladi, yomg'ir va qor yog'adi, sovuq shamil esadi. Harorat minus 10, minus 12 darajagacha tushadi.

Fevralda ham hali salqin: harorat 8-10 daraja sovuq bo'ladi.

Bahor (mart, aprel)da kunlar isiydi. Harorat 15-20 daraja issiq bo'ladi.

Yoz (iyun-avgust)da juda issiq bo'ladi. Harorat 39...+45 daraja issiqqa ko'tariladi. Kuz (sentabr-oktabr)da kunduzi hali iliq bo'ladi. Noyabrda esa tez-tez yomg'ir yog'adi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qing.
2. Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz?
 - a) uzoq shimolda arktik iqlim hukm suradi;
 - b) janubga qarab iqlim ilib, mo'tadillashib boradi;
 - c) bu yerda qish yumshoq, yoz esa iliq bo'ladi;
 - d) fevralda ham hali salqin: harorat 8-10 daraja sovuq bo'ladi.
3. Matnni lug'at yordamida tarjima qiling.

- 4.Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matn mazmunini so'zlab bering.
- 5.Ol-havo va iqlim insonlarning turmush tarziga ta'sir qiladimi? Shu haqda o'z fikringizni aiting.
- 6.Matnda qo'llanilgan rus va o'zbek tillarida I xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni dastaringizga yozing va eslab qoling. Masalan, arkтика.
- 7.Matndan yil fasllari, ol-havo, iqlimga oid so'zlarni topib ko'chirib oling, gaplar tuzing, ushbu so'zlarning o'z ona tilingizdagi muqobilini aiting.

Ko'plikni ifodalash

Bular kimlar?	Bular nima?
Bular talabalar.	Bular kitoblar.
Bular o'qituvchilar.	Bular daftalar.

2-mashq. Namunaga qarab davom ettiring.

Namuna: **Bu mening opam – bular mening opalarim.**

Bu bizning do'stimiz Bu sening ukang

Bu uning ukasi Bu sizning kitobingiz

Bu sening dugonang Bu bizning o'qituvchimiz

3-mashq. Auditoriyada kimlar va nimalar bor, ay'tib, sanab bering.

Hurmat ma'nosini ifodalash

Mening onamlar.	Sening onanglar.
Mening buvimlar.	Uning otalari.
Onamlar keladilar.	Adamlar uyda yo'qlar.

Eslab qoling!

Qiyoslang:

Ko'plikda

Sharipovalr oilasi
Kitoblar do'konni
Aka-ukalar
Mening onalarim

Hurmat ma'nosida

Mening onamlar
Sening onanglar
Kecha akamlar Moskvadan keldilar
Mening onamlar

4-mashq. Saidaga qanday savol berilgan edi?

- Saida,?
- Ha, mening do'stalarim talabalar.

- Saida,?
- Ha, bular ularning o'qituvchilari.
- Saida,?
- Ha, bu mening kitoblarim.
- Saida,?
- Yo'q, onam bugun uyda yo'qlar.
- Saida,?
- Ha, hozir tezda kelib qoladilar.
- Saida,?
- Yo'q, jurnallar meniki emas, ular kutubxonaniki.

O'rinn-joyni ifodalash

Feruza qayerda?	- U uyda.
Kitob qayerda?	- Stolda.
Metro qayerda?	- O'ngda.
Siz qayerda yashaysiz?	- Toshkentda.
Qayerda tug'ilgansiz?	- Buxoroda.
Siz qayerda o'qiysiz?	- Universitetda.
Siz qayerda ishlaysiz?	- Maktabda.
Bu so'zlar qayerda yozilgan?	- Kitobda.

5-mashq. Suhbatni o'qing -da qo'shimchasining nima uchun xizmat qilayotganini aiting.

Kurim: Salom, Misha, ishlaring yaxshimi?

Misha: Salom, Karim qayerga ketyapsan?

Kurim: Universitetga. O'zing-chi?

Misha: Kutubxonaga, lekin Navoiy kutubxonasi qayerdaligini bilmayman.

Karim: Men bilaman. U markazda joylashgan.

Misha: Markazda?

Karim: Ha, metroning yonida, mustaqillik maydonida.

Misha: Yaxshi, rahmat. Sen kechqurun uyda bo'lasanmi?

Karim: Yo'q, tennis klubida bo'laman.

Misha: Men ham sport zalida bo'laman, xo'p xayr.

Kurim: Mayli, xayr.

6-mashq. Namunaga qarab davom ettirin.

<i>Namuna:</i>	<i>Kim, nima</i>	<i>Qayerda</i>
Salima		universitetda
kutubxona	
bozor	
vokzal	
maydon	
lug'at	
Nikolay	
uy	
oshxonan	

7-mashq. Quyidagi savollarga javob bering:

- a) hozir qayerdusiz?
- b) do'stingiz uydamli?
- c) dugonangiz institutdami?
- d) oila a'zolarингiz hozir qayerda?
- e) akangiz uydamli yoki ishdami?
- f) ertaga qayerda bo'lasiz?
- g) ertaga qayerda bo'lasiz?

Harakat va holat vaqtি, fasli, o'rnnini ifodalash

- Siz qachon o'qishni boshlaysiz?	- Kuzda.
- Siz qachon yangi yilni kutib olasiz?	- Qishda.
- Qachon daraxtlar gullaydi?	- Bahorda.
- Qachon ta'tilga chiqasiz?	- Yozda.

Eslab qoling!

qish + da qishda Harakat va holat vaqtini ifodalovchi so'zlar:
 bahor + da bahorda tong + da tongda
 yoz + da yozda ertalab
 kuz + da kuzda tush + da tushda

Ob-havo qanday bo'ladi?

Qachon (qaysi vaqtida)

Qishda	sovuj bo'ladi
	qor yog'adi
Bahorda	iliq bo'ladi
	shamol esadi
Yozda	issiq bo'ladi
Kuzda	yomg'ir yog'adi.

8-mashq. Televidenie va radiodan eshitgan axborotingizga asoslanib bugungi ob-havo haqida gapirib bering.

9-mashq. Suhbatni ro'llarga bo'lib o'qing.

O'zbekistonlik mezon: Salom, hurmatli mehmonlar, Vatanimizga xush kelibsiz.

Mehmonlar: O', O'zbekistonda har doim ham shunaqa issiq bo'ladimi?

Mezon: Yo'q. Faqat iyun, iyul, avgustda juda issiq bo'ladidi.

Mehmonlar: Qaysi oylarda yomg'ir ko'p yog'adi?

Mezon: Martda va aprelda.

Mehmonlar: O'zbekistonda qor ham yog'adimi?

Mezon: Ha, albatta. Dekabr, yanvar oylarida qor yog'adi.

10-mashq. Sizning shahringiz yoki qishlog'ingizda qachon issiq, sovuq bo'ladi: qor, yomg'ir yog'adi? Shu haqda gapirib bering, javoblar ringizni daftaringizga yozing.

11-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Подарок

Каждый раз, когда приближалась осень, начинались разговоры о том, что многое в природе устроено не так, как нам хотелось бы. Зима у нас длинная, лето гораздо короче зимы, а осень проходит мгновенно и оставляет впечатление промелькнувшей за окном золотой птицы.

Однажды внук лесника Ваня Малявин принёс маленькую, выкопанную с корнем берёзу.

- Это вам, сказал он и покраснел. - Подарок. Посадите её в деревянную кадку и поставьте в тёплой комнате, - она всю зиму будет зелёная.

- Зачем ты её выкопал, чудак? - спросил я.

- Вы же говорили, что вам жалко лета, - ответил Ваня. - Дед меня и научил. Вот и будет вам на холодную зиму память о лете.

Мы принесли из сарая ящик, насыпали маленькую берёзу. Ящик поставили в самой светлой и тёплой комнате у окна, и через день опустившиеся ветки берёзы поднялись, вся она повеселела, и даже листва у неё шумели, когда ветер врывался в комнату.

(К.Паустовский).

Til va madaniyat

4.O'zbekcha mulozamat va nutq odobidan namensalar

Transportda gaplashish odobi:

- Kechirasiz, sizni biroz turtib yubordim.
- Hechqisi yo'q.
- Kechirasiz, siz hozir tushasizmi?
- Ha, hozir tushaman (yo'q, hozir tushmayman).
- Kechirasiz, metroga qaysi bekatda tushiladi?
- Hozir, keyingi bekatda tushasiz.
- Rahmat.

2. Ushbu maqollarni o'qing, daftaringizga ko'chirib oling va ularga amal qiling.

Yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyutga.

Yaxshidan bog` qoladi, yomondan dog`.

Yaxshining qo`lidan yaxshilik, yomonning qo`lidan yomonlik keladi.

Yaxshilik qilgan odam minnat qilmasligi zarur.

12-mashq. a) matnni o'qing.

Oltin kuz

Kuz... Ona diyorimizda oltin kuz sepini yoygan. Kechalari salqin. Ertalab shudring tusha boshlaydi. Tog'lardagi qoyalarda qirov. Paxta dafatarining manzarasi o'zgacha. Lo'ppi-lo'ppi ochilgan paxtalar quyosh nusida tovlanadi. Bu manzara kuz-kelganidan darak beradi.

Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum, anjir va anorlar g'arq pishadi. Sabzavotlar, qovun-tarvuz serob bo'ladi. Yig'im-terim ishlari boshlanadi.

Tuyoqli jonivorlarning hayotida ham o'zgarish bo'ladi. Ular ko'k o'tlar bilan birga don ozuqasi, yovvoyi urug'lar, mevalarni iste'mol qiladilar. Bu ularning qishga ko'p kuch to'plab olishiga yordam beradi.

b) matnda kuzning birinchi oyi haqida nima deyilgan?

d) oltin kuz to'g'risidagi taassurotlaringiz haqida yozing.

11-Dars

Umumiy mavzu: Tabiat va inson Nutqiy mavzu: Inson va ekologiya

1 - mashq. Matning tayanch so'z va so'z birikinlarini eslab qoling; O'zbekiston, bog'lari-yu chaman gulzorlari, zilol suvlari-yu musaffo havosi, jannatmakon o'lka, tabiat to'g'risidagi bilimlar, obodonchilik, tozalik, ko'kalamzorlashtirish.

2-mashq. Matni o'qing. Predmetning rangini ifodalovchi so'zlarga diqqat qiling.

«Ekologik xavfsizlik – bargaror taraqqiyot kafotati» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya qatnashchilarining Respublika xalqiga murojaati

Aziz hamyurtlar!

Ona diyorimiz O'zbekiston o'zining maftunkor tabiatini, cheksiz tabiiy imkoniyatlari, mehnatkash va buniyodkor xalqi bilan asrlar osha olamga nom taratib kelgan. Haqiqatan ham, yurtimiz osmono'par tog'lari-yu yam-yashil qir-adirlari, so'lim bog'lari-yu chaman gulzorlari bilan, zilol suvlari-yu musaffo havosi, oltin unguvchi tuprog'i-yu bo'l kabi ne'matlari bilan jannatmakon o'lkadir! Shunday ekan hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlari ko'zlab, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, yurtimizning suv zahiralarini saqlash, yer usti va yer osti tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish har birimizning muqaddas insoniylig burchinizdir.

Aziz talaba va o'quvchilar!

Ilm olamni ochguvchidir. Yaratuvchi ona tabiat to'g'risidagi bilimlarni puxta egallaylik.

Yurtimizda bo'layotgan obodonchilik, tozalik va ko'kalamzorlashtirish ishlariiga yaxshi ko'makchi bo'laylik.

Vatan ostonadan boshlanadi. Uy-joylarimiz atrofini, hovlitarimizni bog'u rog'larga aylantiraylik. Ona tabiatga oqilona munosabatda bo'laylik. Tabiat boyliklarini asrab, ko'paytiraylik. Tabiatning eng buyuk in'omi bo'lgan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanaylik.

Inson salomatligi uning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Sog'lom turmush tarzini hayotimiz mazmuniga aylantiraylik. Turar joylarimizni, unga yondosh hududlarni axlat bosishidan saqlaylik. Kanal va ariqlarga ax-

lat tashlanishiga aslo yo'l qo'ymaylik. Ko'chalarimiz serdaraxt, soyasalqin bo'lishiga erishaylik.

Aziz hamyurtlar!

Ona yerimizning bag'ri keng, tuprog'i oltin. Keling ko'plab mevali va manzarali daraxtlar ekib, jannatmakon yurtimizni bog'u roq'larga, turli anvoysi gullar ekib uni chaman gulzorlarga burkaylik.

Yurtimizni qadamjoylarga aylantiraylik. Ona-zaminni astraylik, e'zozlaylik! Avlodlarga bizdan ozod va obod Vatan qolsin!

Topshiriqlar:

1. Matnni o'qing.

2. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikinalarining sinonimlarini, antonimlarini toping:

aziz, hamyurtlar, ona diyorimiz, mehnatkash, xalq, guzor, zito suvlar, avlodlar, tabiiy boyliklari, obodonchilik, tozalik, vatanparvar.

3. Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz?

a) ona diyorimiz O'zbekiston o'zining maftunkor tabiat, cheksiz tabiiy imkoniyatlari ... bilan asrlar osha olunga nom taratib kelgan;

b) ... yer usiti va yer osti tabiiy boyliklaridan ogiloma foydalanish har birimizning muqaddas insoniylitk burchimizdir;

d) ona tabiat to'g'risidagi bilimlarni puxta egallaylik;

e) inson salomatligi uming turmush tarzi bilan usviy bog'liq.

4. Quyidagi so'z va iboralarning o'zbek tilidagi muqobilini matndan toping:

бесконечные природные возможности, трудолюбивый, святой человеческий долг, созидательный, озеленение, цветущие сады, природные богатства.

5. Matani lug'at yordamida tarjima qiling.

6. Tayanch so'z va so'z birikinalaridan foydalaniib matning qisqacha mazmunini gapirib bering.

7. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering; so'ngra javoblarni daftarga ko'chiring.

a) ona diyorimiz O'zbekiston qanday xususiyatlari ko'ra nom taratib kelgan?

b) muqaddas insoniylitk burchimiz haqida nimalarini bilasiz?

d) sizning fikringizcha, bizdan ozod va obod Vatan qolishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

8. Matnda qo'llanilgan rus va o'zbek tillarida bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni daftaringizga yozing va eslab qoling. Masalan, **ekologiya**, **Respublika** kabi.

Predmetning rangini ifodalash

<i>Vashil</i> barg.	<i>Havo rang</i> lenta.	<i>Jigar rang</i> jemper.
<i>Qizil</i> ro'mol.	<i>Oq qog'oz</i> .	<i>Kulrang</i> sichqoncha.
<i>Sariq</i> kitob.	<i>Ko'k</i> qalam.	<i>Pushti rang</i> gullar.
<i>Qora</i> siyoh.	<i>Siyoh rang</i> palto.	<i>Subzi rang</i> ko'yak.

3-mashq. Jadvalda berilgan sisatlarning yozilishiga diqqat qiling. Ularning qaysi biri «rang» so'zi bilan birqalikda ishlatalayapti? Javoblarni daftaringizga yozing.

4-mashq. «Yil fasllari va ranglar» mavzusida kichik matnni og'zaki hikoya qilib bering.

Namuna: Qishda oq rangni ko'p uchratamiz, chunki qor yoqqanda hamma yoq oppoq rangga burkanadi. Bahorda esa...

5-mashq. Auditoriyadagi barcha predmetlar va do'stlaringiz liboslari rangini aytib bering.

6-mashq. Namunaga qarab davom ettiring. Natmuna: Mening paltom qora rangli.

1. Mening ko'ylagim 2. Sening daftaring ranglimi? 3. Ertaga sen rangli kiyim kiyapsa'mi? 4. Uning rangli ro'moli bormi? 5. Menga rangli kitobni berib yuboring. 6. Saidaning akasi mashina sotib olibdi. 7. Sultonga esa mashina yoqmas ekan. 8. Men televizor sotib olishni orzu qilaman.

Predmetning maza-ta'mini ifodalash

<i>Shirin</i> uzum.	<i>Nordon</i> olma.
<i>Achchiq</i> garmdori.	<i>Sho'r</i> ovqat.
<i>Mazali</i> somsa. (bemaza taom).	<i>Tuzsiz</i> sho'rva. <i>Taxir</i> danak.

7-mashq. «Universitet oshxonasida» mavzuida suhbat tuzing. Shu suhbat orqali talabalar oshxonasi to'g'risidagi o'z fiktingizni aiting.

8-mashq. Quyidagi so'zlarga mos sisatlarni toping, ular ishtirokida gaplar tuzing:

Nok, tarvuz, palov, non, taom, ichimlik, sabzavot.

9-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarning o'zbek tilidagi muqobilini toping:

горький перец; вкусная пица; невкусный обед; солёный суп;
сладкое яблоко; полусладкое шампанское; кислое яблоко.

Predmetning shakli va hajmini ifodalash

Ko'p qavatli uy.	Tor yo'lka.	Aylana yo'l.
Buland bino.	Katta xona.	Keng ko'cha.
Dumaloq piyola.	Kichkina choynak.	Qalin kitob.

Eslab qoling! Sifatlarning yasalishi

Chiroyli	O'yehan	Osma	Suv siz
Aqli	Ilmiy	Tinchliksevar	Bolasiz
Yozgi	Ommaviy	Mehnatsevar	
Bugungi	Moddiy	Odamsimon	
Ishehan	Yo'zma	Gazsimon	
Bepoyon	Norasida		

Sifatlarning ko'chma ma'noda ishlatalishi Qiyoslang!

Qora ro'mol – qora ko'ngil kishi.

Oq lenta – oq ko'ngil qiz.

Shirin taom – shirin so'z ustoz.

Achchiq qalampir – achchiq so'zli odam.

Bemaza ovqat – bemaza gapli odam.

Keng ko'cha – keng fe'lli kishi.

10-mashq. Savollarga og'zaki javob bering, so'ngra javoblaringizni daftaringizga yozing.

Namuna : 1. Siz yashaydigan ny qanday?

2. Yotoqxonangiz haqida nima deya otasiz?

3. Siz quysi ko'chadan kelasiz?

4. Bu daftar qanday shaklda?

5. Sizga qanday shakldagi buyum kerak?

Predmetning belgi – xususiyatini ifodalash

<i>Yaxshi</i> odam.	<i>Yaxshi</i> bino, kitob.
<i>Chiroqli</i> qiz.	<i>Chroyli</i> kitob, do'kon.
<i>Xunuk</i> odam.	<i>Xunuk</i> daftар, ko'ylak.
<i>Suvsiż</i> ariq.	<i>Tiniq</i> suv.
<i>To'g'ri</i> odam.	<i>To'g'ri</i> javob. <i>Noto'g'ri</i> ish.
<i>Ko'ngli beg' ubor</i> odam.	<i>Beg' ubor</i> osmon.
<i>Katta</i> odam.	<i>Kattagina</i> hovli.
<i>Kichik</i> qizcha.	<i>Kichikkina</i> uy.
<i>Yumshoqqina</i> odam.	<i>Yumshoqqina</i> yostiq.

11-mashq. Suhbatni tollarga bo'lib o'qing.

Kutubxonachi(Zamira opa): Salom, Nozima, salom Azizjon, kelinglar.

Nozima: Assalomu alaykum, Zamira opa, horinang.

Azizjon: Assalomu alaykum , Zamira opa, charchamayapsizmi?

Zamira opa: Xo'sh, sizga qanday kitoblar kerak?

Nozima: Menga yaxshi va chiroqli odaplar haqida yozilgan kattagina hajmdagi kitob kerak edi.

Azizjon: Menga esa kichkina bo'lsa ham, katta ishlar, kashfiyotlar haqida yozilgan qissalar zarur.

Zamira opa: Yaxshi. Mana Nozimaga o'ziga o'xshagan kichkina qizlar haqidagi kitob. Mana bu esa Azizjonga.

Nozima: Katta rahmat, Zamira opa. Bilasizki, yotoqxonada turaman, xonamiz tor bo'lgani bilan ko'nglimiz keng, marhamat, biznikiga boring, xo'pmi, xayr.

Zamira opa: Xop, xayr, yaxshi boringlar, bo'lalar, kelib turinglar.

Dialogdagi sifatlarni toping, ularni qanday maqsadga xizmat qilganimi aniqlang.

Til va madaniyat

O'zbekcha mulozamat va nutqiyl odobi namunalarini

I. Mehmonga taklif qilish odobi.

- Hurmatli (akajon, opajon, xola, singlim...) Sizni uyimizga mehmonga taklif qilmoqchi edim. Iltimos, ertaga kechqurun biznikiga keling.
- Rahmat, nasib qilgan bo'lsa, albatta, boramiz.
- Tashakkur. Demak, ertaga kutamiz, kelinglar.

— Rahmat, ko'rishguncha xayr.

2. Ushbu maqollarni daftaringizga ko'chirib oling.

Ularning rus tilidagi muqobilini toping, maqollarga hayotingiz davomida amal qiling.

Shirin so'z – jon ozig'i.

Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi, yomon gapga pichoq qinidan.

12 – mashq. a) matnni o'qing.

Hayvonot va o'simliklar olamini qo'riqlash atrof-muhitni, shu jumladan, o'simliklar olamini muhofaza qilish muammosi insoniyat uchun hech qachon hozirgi kundagidek hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan emas. Kishilar tabiatdan haddan tashqari ko'p foydalaniib, uning tabiiy manzarasini o'zgartirib, asrlar davomida tashkil topgan biogeosenozga salbiy ta'sit ko'rsatmoqda.

Sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligining tez sur'atlar bilan rivojlaniib borishi va tabiiy maydonlarning keng miqyosda o'zlastirilishi eko-logik muvozanatni o'zgartirishga olib kelmoqda, natijada o'simlik va hayvon turlarining kamayib ketish xavfi tug'ilmoqda. O'simlik va hayvon turlarining yo'qolib ketishi o'simlik va hayvonot olamidagi geno-fondning kamayishiga sabab bo'ladi.

b) atrof-muhitni asrashga qanday hissa qo'shmaqchisiz?

d) ushbu matn asosida bayon yozing.

12-Dars.

*Umumiy mavzu: Tabiat va inson
Nutqiy mavzu: Darmon dorilar*

1-mashq. Matnni o`qing. Sifatlarni toping.

2-mashq. Matnning tayanch so`z va so`z birikmalarini eslab qoling:
biologik faol moddalar, o'simliklar, yetilgan, vitamin C, miqdori ko'paymoq, kamayib ketadi, tez parchalamoq, xususiyatlari, ancha chidamli, xastaliklar yuzaga keladi, avitaminoz, doimiy va zarur zarralar, ovqatlanish jarayoni.

Vitaminlар (darmon dorilar)

Vitaminlar murakkab tuzilishga ega bo`lgan organik birikmalardan tashkil topgan biologik faol moddalardan biridir. Vitaminlarni asosan o'simliklarda vitaminlar miqdorining oz yoki ko`p bo`lishi, ularning o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga, urug` hamda mevalarining qay tarzda yetilganligi yoki yefilmaganligiga ko`p jihatdan bog`liqdır. Shuningdek, ularning o`zgarib turishiga ob-havo bilan yorug`lik katta ta`sir ko`rsatadi. Masalan, kunduzgi havo ochiq, yorug`lik yetarli bo`lsa vitamin C (askorbin kislotasi) miqdori ko`payib, tunda yoki yog`ingarchilik paytida bu ko`rsatkich kamayib ketadi.

Ko`pchilik vitaminlar juda chidamsiz moddalardan iborat. Ular ishlatalish jarayonida yoki narsalar ta`sirida tez buziladi, parchalanadi, hamda o`z qiymatini yo`qotadi.

Vitaminlardan C, P, B1, B2, D6, PP1, H va pantoten kislotalari qaynagan suvda tez parchalanib, o`z xususiyatlarini yo`qotib qo`yadi. A, K, D, E, vitaminlari suvda parchalanmaydi, ammo yog`larda parchalanadi. C, A, B vitaminlari kislorod ta`sirida buziladi, B2 vitamini esa ta`sirga ancha chidamli.

Vitaminlar tirk organizmlar ehtiyoji uchun hayotiy moddalardir. Vitaminlar yetishmasa turli xastaliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, modda almashinuv jarayonining buzilishi, asab sistemalari funksiyasining ishdan chiqishi kuzatiladi. Vitaminlar organizmda yetishmasligi sababli avitaminoz kasalliklari sodir bo`ladi.

Vitaminlar inson to`qimalari uchun doimiy va zarur zarralar hisoblanib, modda almashinuv jarayonida faol qatnashadi. Ovqat hazrn qilish paytida muhim ahamiyat kash etadi. Inson organizmini turli kasalliklardan himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Qon tomirchalarining devorlarda to`planadigan xolestiringa yo`l qo`ymaydi.

Shu narsani ta'kidlash lozimki, inson organizmi vitaminlar ishlab chiqarmaydi, balki ularni faqat ovqatlanish jarayonida qabul qiladi.

Topshiriqlar:

1. Matnni o'qing.

2. Matndagi ushbu so'z va so'z birikmalarining sinonimlarini, antonimlarini toping:

murakkab, o'sinliklar, oz, ko'p, meva, katta, havo ochiq, ko'paymoq, yetarli, chidamli, sodir bo'ladi.

3. Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz:

a) Vitaminlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan organik birikmalardan tashkil topgan biologik moddalardir;

b) ...ularning o'zgarib turishiga ob-havo bitan yorug'lik katta ta'sir ko'rsatadi;

d) ko'pchilik vitaminlar juda chidamsiz moddalardan iborat;

e) vitaminlar tez buziladi, parchalanadi va o'z qiyamatini yo'qotadi.

4. Quyidagi so'z va iboralarning o'zbek tilidagi muqobilini matndan toping:

активные вещества, качество, количество витаминов, растворяется, оказывает большое влияние, жизненный, в процессе использования, ткани.

5. Matnni tarjima qiling.

6. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matnni qisqacha mazmunini gapirib bering.

7. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering; so'ngra javoblarni daf-targa ko'chiring.

a) vitaminlar qanday moddalar?

b) ob-havo vitaminlarning ko'payishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

d) vitaminlar yetishmasa turli xastaliklar ketib chiqishi mumkinmi?

e) vitaminlar inson organizmi uchun zaruriyligini o'z turmush tar-zingiz misolida isbotlab bering.

8. Matnda qollanilgan rus va o'zbek tillarida bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni daftaringizga yozing va eslab qoling. Masalan, *askorbin kislotosi, kislorod* kabi.

Predmetni materialiga ko'ra ifodalash.

<i>Yog'och</i> qoshiq.	<i>Ipak</i> ro'mol.	<i>Yelim</i> tugma.
<i>Billur</i> qandil.	<i>Mo'ynali</i> qalpoq.	<i>Metall</i> pichoq.
<i>Sopol</i> piyola.	<i>Chit</i> ko'yak.	<i>Jun</i> palto.
<i>Chinni</i> kosa.	<i>Atlas</i> xalat.	<i>Lama</i> palto.

3-mashq. Predmetni materialiga ko'ra ifodalash degan tushunchaning izohini bering. Jadvaldan foydalaniib do'stlaringiz libosi va boshqa buyumlarni ta'riflab bering.

4-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'ying va daftaringizga ko'chiring.

1. Marg'uba bugun kiyib ketibdi. 2. Piyola edi, shuning uchun u sinnadi. 3. kosa kosaga nisbatan ancha qimmat turadi. 4. Men ertaga do'konga borib va sotib olmoqchiman. 5. Bolalarga ovqatni qoshiqda yedirish kerakmi yoki qoshiqda? 6. xat taxta bizga zarur edi. 7. Bizning qandilimiz bo'lgani uchun biror narsaga tegib ketsa jaranglab ketadi. 8. ro'mol to'qiyman, maktab borib o'qiyman (qo'shiqdan).

So'zlar: *tama, palto, sopol, chinni, atlas ko'ylak, ipak ro'mol, yog'och, temir, metall, billur*.

5-mashq. «Do'konda» (supermarketda) mavzusida do'stingiz bilan suhbat tuzing.

Predmet belgisini nisbat berish orqali ifodalash

<i>Asliy sifatlar</i>	<i>Nisbiy sifatlar</i>
<i>Qizil</i> kitob.	<i>Kurzgi</i> hosil.
<i>Suriq</i> ro'mol.	<i>Ertalabki</i> nonushta.
<i>Oq qog'oz.</i>	<i>Kuchli</i> yigit.
<i>Semiz</i> kishi.	<i>Yillik</i> hosil.
<i>Ozg'in</i> qiz.	<i>Shaharlik</i> do'stim.
<i>Mug'ombir</i> odam.	<i>Go'shtli</i> somsa.

6-mashq. Jadval asosida qanday sifatlar nisbiy, qanday sifatlar asliy ekanligini aytib bering.

Eslab qoling!

Suvli (sersuv) -- suvsiz. Baquvvat -- quvvatsiz. Unumli (unumdar, se'unum) -- unumsiz. Mazali -- bemaza.

7-mashq. Nisbiy, ya'ni qo'shimchalar yordamida yasaladigan sifatlar ishtirokida 10 ta gap tuzing, ularni daftaringizga yozing.

Shaxs, predmet belgisini qiyoslash, ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalash

<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Ozaytirma daraja</i>	<i>Orttirma daraja</i>	
Torroq xona	O'qish ro'mol	Ko'm-ko'k ostmon	juda shirin ovqat
Kengroq ko'cha	Sariqqina bola	Qip-qizil olma	jiqqa ho'kiyim
Lola rayxondan baiandroq	Qoragina taxta	Oppoq taxta	oppoq bola
Menden kuchiroyq	Sarg'ish barg	Sap-sariq ro'mol	eng chiroqli qiz
Anvardan semiz-roq	Biroz kichik	Qop-qora palto bino	g'oyat baland
	Salgina sho'r	Jip-jigarn rang ko'yak bola	nihoyatda aqlli
	Picha shirin		
	Ke'kimdir ko'yak		

Eslab qoling!

Ozaytirma daraja

Sariqqina bola

Qoragina ko'yak

Orttirma daraja

Sap-sariq bola

Qop-qora taxta

8-mashq. Qizil, sariq, yaxshi, yomon, qari, yosh, yangi, eski, qora, oq kabi sifatlarni qiyosiy, ozaytirma va orttirma darajalarga qo'yib chiqing.

9-mashq. Savollarga javob bering.

1. Kim kattaroq? Zilolami yoki Nargizami?
2. Qaysi shahar kattaroq? Toshkentmi yoki Qarshi?
3. Shokolad yaxshiroqmi yoki muz qaymoq?
4. Nima qiziqroq? Kitob o'qishmi yoki televizor ko'rish?
5. Kursingizda kim o'zbekchani yaxshiroq biladi?

10-mashq. Gaplarni kerakli so'zlar bilan to'ldiring va daftaringizga yozing.

1. Sen kecha do'kondan sotib olgan ro'moling ekanmi yoki menga shunday tuyuldimi? 2. Menga biror olmalarni berib yuboring.
3. Kelin ovqat sho'r bo'libdimi? 4. Sen bolaga qarab tur, men uxlab olaman. 5. Kuz kealdi, barglar yerga bitta-bitta uzilib tushimoqda. 6. rangli galstuk taqishni istayman.

11-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob bering, bu javoblarni eslab qoling!

1. Toshkentdagি qaysи maydon, ko'cha, xiyobon, stadion, teatr eng katta va eng chiroylи?
2. O'zbekistonda qaysи daryolar eng katta?
3. O'zbekistondagi eng qadimiy shahar qaysи?
4. O'zbekistondagi qaysи dam olish uylari eng katta va chiroylи?
5. Ayting-chi, sizning fikringizcha, qaysи narsalar eng chiroylи, eng katta, eng mazali, eng shirin, eng yaxshi?
6. Ayting-chi, do'stlarizingizdan qaysи biri juda yaxshi raqs tushadi. qo'shiq aytadi, ish qiladi, o'qiydi, o'zbekcha gapiradi?

12-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Ташкент – самый красивый город на земле! 2. У неё было красивое лицо. 3. Брат привёз мне тёмно-коричневое платье. 4. Я очень люблю свою маму. 5. Национальный Университет Узбекистана – самый престижный ВУЗ Узбекистана. 6. Моя сестра очень красивая, поэтому у неё слишком много друзей.

Til va madaniyat.

1.O'zbekcha mulozamat va nutq odobi namunaları

Tabriklash odobi.

- Assalomu alaykum, ustoz! Sizni tabriklagani kelgan edik.
- Vaalaykum assalom, marhamat, kiringlar.
- Aziz ustoz, sizni (yangi yil, xalqaro xotin-qizlar kuni, Navro'z, mustaqillik kuni, ustoz va murabbiylar kuni, Konstituysiya kuni, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti) bayrami bilan chin dildan tabriklaymiz. Sizga dunyodagi barcha e兹gu va samimiy tilaklarni bildiramiz. Doimo shu gullardek ochilib yuring.
- Katta rahmat, azizlarim. Sizlarni ham ayyommlaringiz bilan tabriklayman, muborak bo'lsin!

O'zbek xalq maqollarini yod oling. Ularni o'z ona tilingizga tarjima qiling yoki muqobillarini toping.

Odamga yaxshi so'z ham darmon bo'ladi.

Sihat tilasang, ko'p yema, izzat tilasang, ko'p dema.

Tiling bilan ko'nglingni bir tut.

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

12 – mashq. a) ushbu matnni o`qing.

Dorivor o`simliklar

O`zbekistonda juda ko`p dorivor o`simliklar o`sadi. Ularning 500dan ortiq turi qadimdan turli kasalliklarni davolashda, oldini olishda qo`llanib kelinadi. Ayni vaqtida ilmiy tibbiyotda ularning faqat 100dan ortig`idangina foydalaniilmoxda.

O`simliklardan so`f holda ajratib olingan kimyoviy birikmalar ba`zan tirik organizmga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli biologik faol moddalar bo`lishi mumkin. Masalan, kuchala, parli isiriq, sariqgul, omon-qora, afsonak, eshakmiya, qizilcha (efedra) va boshqalar zaharli o`simliklar hisoblanadi. Lekin shu bilan birga bir qancha aslida ovqatga ishlataladigan o`simliklardan shifobahsh vosita sifatida foydalansa bo`ladi. Quyidagi larni bunga misol qilib keltirish mumkin: anor, anjir, behi, kashnich, shovul, garmdori, zig`ir, mureh, turli xil moylar va boshqalar. Keyingi 4-5 yil ichida 10ga yaqin yig`ma holdagi fitopreparatlar tibbiyot amaliyotida turli xil kasalliklarni davolash uchun ishlatalmoqda.

- b) shifobahsh o`simliklar haqida o`z bilganlaringizni so`zlab bering;**
- d) gaplaringizni yozing.**

13-Dars

*Umumiy mavzu: Tabiat va inson
Nutqiy mavzu: Insonning tashqi ko'rinishi*

I-mashq. Matnlarni o'qing.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida:

Otabek tasviri:

«*Otabek og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkan va oq yuzlik, kelishgan qora ko'zlik, mutanosit qora qoshlig va endigina murti sabza urgan bir yigit*» (7-bet).

Kumushbibi tasviri:

«*Uning qora zulfi par yostig'ining turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingalak kiprik ostidagi timqora ko'zlar bir nuqtaga tikilgan edi, ... qop-qora kamon, o'sib ketgan nafis qiyig' qoshlari chimirilgan ... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqqa aylanganda, kimdandir uyalgan kabi*» (29-bet).

O'zbek oyim tasviri:

«*O'zbek oyim elli besh yoshlari chamlıq, chala-dumbul tabiatliq bir xotin bo'lsa ham, amma eriga o'tkirligi bilan mashhur edi, uya olturanida ham ustidagi atlas ko'yнак bilan adres mursakni, oq shohi dakan bilan qalirabo tasbehni qo'yinaydi*» (130-bet).

Zaynab tasviri:

«*O'n etti yoshlari chamlıq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o'rtacha hushliq Zaynab qayin onasining tilak va sha'niga loyiq tavozi – odoblar bilan bittayu-bitta bosib dasturxon yoniga keldi*» (250-bet).

Rahmat tasviri:

«... gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol murtlik, yigirma besh yoshlari chamlıq bir yigit...» (8-bet).

Homid tasviri:

«... uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlari bo'lgan ko'rimisz bir kishi edi» (8-bet).

Matnlar yuzasidan topshiriqlar:

1.Matnni o'qib chiqing.

2.Matndagi notanish so'zlarni ko'chirib oling, o'qituvchi yordamida shu so'zlarga izohli lug'at tuzing.

3.Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz?

a) *Otabek og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkan va oq yuzlik bir yigit;*
b) ...*quyuq jinggala kiprik ostidagi timqora ko'zları bir nuqtaga tikilgan edi;*

d) O'zbek oyim ... chala diumbul tabiatlik bir xotin bo'lsa ham ...;
e) o'ituz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimisiz bir kishi edi.

4.Siz «O'tgan kunlar» romanini o'qiganmisiz? Keltirilgan parchalar yordamida ijobiy yoki salbiy qahramon qaysi ekanligini aytib bera olasizmi?

5.Matnlarni yozma tarjima qiling.

6.O'rgangan so'z va so'z birikmalaringizdan foydalanib «Men sevgan qahramon» mavzusida suhabat tuzing.

Insonning tashqi ko`rinishini ifodalash

<i>Baland bo'yli (novcha) yigit</i>	<i>Semiz kishi</i>
<i>Qora sochli qiz</i>	<i>Ozg'in kishi</i>
<i>Cho'zinchoq yuzli</i>	<i>Ko'zlari katta (kichik)</i>
<i>Dumaloq yuzli</i>	<i>Sochi uzun(kalta)</i>
<i>Gavdali kishi</i>	<i>Boy i past(pakana)</i>
<i>Nozik qiz</i>	<i>Chiroyli qiz</i>
	<i>Xunuk bola</i>

2-mashq. Suhabatni o'qing. Undagi shaxsning tashqi qiyofasini ifodalovchi sifatlarni toping, ularning rus tilidagi muqobilini aytинг.

Hilola: Salom, Nargiza, qayerdan kelayapsan?

Nargiza: Salom, Hilola. Men o'qituvchimnikidan kelayapman. O'zing-chi?

Hilola: Men dugonamnikidan kelayapman.

Nargiza: Qaysi dugonangnikidan?

Hilola: Salima ismli dugonamnikidan. Uni taniysanmi?

Nargiza: Yo'q. Qaysi qiz edi?

Hilola: Salima baland boyli, cho'zinchoq yuzli, chiroyli qiz, sochlari uzun, qora, ko'zlari katta-katta, o'zi ozg'in, nozik gavdali.

Nargiza: Ha, bo'ldi, esladim. Lekin mening bir dugonam bor, Salima ning aksi u past bo'yli, semiz gavdali, qorachagina.

Hilola: Bo'ldi, bo'ldi, uni taniyman. Mayli, xayr.

Nargiza: Xo'p, xayr.

3-mashq. Namunaga qarab davom ettiring:

Namuna: Mening opam past boyli

Mening otam ...

Uning akasi ...

Sening dugonang ...

Uning qizi ...

Mening o'g'lim ...

Singlimning qizi ...
Boshlig'imiz ...
O'qituvchimiz ...
Qo'shimiz ...

4-mashq. "Do'stимning qiyofasi" mavzusida 5 ta gap yozing.
Shaxsnинг fe'l-atvori, xarakter-xususiyatiga ko'ra ta'riflash

O'qituvchi kamtar kishi	Bilimli bola
Singlim chaqqon qiz	Mehmondo'st kishi
Boy juda xasis edi	Badjahl odam
Onam menga mehribonlar	Qo'pol yigit
Ukam yalqov bola	Otam bizga g'amxo'r
Karim - tirishqoq	Ustozim samimiy in- son

**Shohida qiziquvchan ta-
laba**

5-mashq. Jadvaldagи sifatlarni ijobjiy, salbiy xususiyatiga ko'ra ajratib yozib chiqing.

6-mashq. Auditoriyadagi do'stlaringizni fe'l-atvori, xarakter-xususiyatiga ko'ra ta'riflab bering.

7-mashq. Quyidagi krossvordni xat taxtaga chizib, birgalikda to'l-diring.

1. Скупой, жадный. 2. Скромный, безобидный. 4. Злой, коварный. 5. Заботливый, сердечный. 3. Лодырь, бездельник. 7. Некорректный, неуклюжий. 6. Скрытный, неискренний. 8. Вялый, безтемпераментный.



8-mashq. Quyidagi gaplarni kerakli so'zlar bilan to'ldiring.

1. Mening akam juda , shuning uchun biz u bilan o'ylab muomala qilamiz. 2. Uning ismi Go'zal, lekin u juda 3. Salim talaba bo'lgani uchun hamma fanlardan «5» baho oldi. 4. Kelinimiz , shuning uchun onam uni juda maqtaydilar. 5. Akmal , shuning uchun u hech kimga yoqmaydi. 6. Boylar , kambag'allar esa bo'ladi.

Eslab qoling!

*Shaxs va predmet belgisini qiyoslash orqali ifodalashda:
Balandroq (unga qaraganda baland) yigit, bino. Kuchliroq (bu bola
menga qaraganda kuchli ekan).*

Senga qaraganda

Menga nisbatan

-dan, -roq kabi qo'shimchalar va juda, eng, g'oyat, nihoyatda kabi so'zlardan foydalaniadi.

Shaxs va predmetni o'xshatish orgali ta'riflashda:

-dek, -day kabi qo'shimchalardan va (gul kabi chiroyli, xuddi to'lin oyga o'xshaydi) so'zlaridan foydalaniadi.

Til va madaniyat

1.O'zbekcha mulozamat va nutq odobidan namunalar.

Salomlashish va so'rashish odobi

- Assalomu alaykum. Keling, yaxshimisiz?
- Vaalaykum assalom, o'zingiz qalaysiz?
- Rahmat, yaxshi!
- Ahvollaringiz, ishlaringiz yaxshimi?
- Rahmat, shukur. O'zingizniki-chi? Sog'liqlaringiz joyidami? Uydagilar yaxshi yurishibdimi?
- Rahmat, yaxshi yurishibdi. Sizni ko'rganimdan juda xursandiman.
- Men ham. Mayli, bo'lalarни olib uyimizga boring.
- Xop, mayli yaxshiliklarda ko'rishaylik.

Ushbu maqollarni o'qing, daftaringizga ko'chiring va ularni yod oling.

Kamtarga kamol, manmanga zavol.

Baxilning bog'i ko'kurmash.

Chiroy to'yda kerak, aql kunda kerak.

Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

8-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Больше всего ценю в каждом, – будь то мужчина или женщина, – ясность цели, преданность своему делу, целостность во всём. Но ещё ценю в мужчинах то, что можно было бы назвать истинным мужским достоинством, которое проявляется во всём: в отношении к женщине – к матери, любимой.

По-моему, женщина должна быть скромной, трудолюбивой, аккуратной. Современные девушки, на мой взгляд, - это те, которые стремятся к самостоятельности, активности, оставаясь при этом женственными и нежными.

9-mashq. a) maqollarni o'qing.

Dostlik, ahillik haqida.

Yaxshi ko'rgan do'stingdan
Joningni ham ayama.

Maslahatli ish buzulmas.

Maslahatsiz ish
Keltirar tashvish.

Kitob haqida.

Kitob - bilim manbai.
Kitobdan yaxshi do'st yo'q.
Kitob aql qayrog'i.

Ilm-fan va hunar haqida.

Bilim baxt keltirar.
Ilm olish-ninada quduq qazish bilan teng.
Ko'p o'qigan ko'p bilar.
Bilagi zo'r birni yiqar
Bilimi zo'r mingni.
Bir yigitga qirq hunar ham oz.
Hunar o'rganish uchun ham hunar kerak.

Mehnat haqida.

Yozgi mehnat qishgi rohat.
Mehnat baxt keltirar.
Inson qo'li gul.
Ishlab topganning oshi lazzatli.

Ota-onal va farzand haqida.

Oltin kumushning eskisi bo'lmas.
Ota-onaning bahosi bo'lmas.
Ona bilan bola – gul bilan lola.
Bola aziz, odobi undan aziz.
Farzand belning quvvati.
Ota-onang – davlating.

b) maqollar kimlar tomonidan yaratiladi?

d) ular qanday mazmunda bo'ladi? Javoblaringizni yozing.

14-Dars

*Umumiy mavzu: Tabiat va inson
Nutqiy mavzu: Insonning yoshi va sog'lig'i*

I-mashq. Matnni o'qing. Inson yoshini anglatuvchi so'zlarni toping.
Bizning oilamiz.

Mening ismim Sarvar, familiyam Rahmatxo'jayev. Men 1976-yilda Toshkent shahrida tug'ilganman. Bizning oila katta, ya'ni 10 kishidan iborat. Mening otam - Rahmatxo'jayev Ahmadxo'ja 1942-yilda tug'ilganlar, meditsina firmasida ishlaydilar. Ular har kuni 5-10 tadan firmalarni borib tekshiradilar. Mening onam - Rahmatxo'jayeva Karima 1948-yilda tug'ilganlar, 42-o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydilar. Mening buvum ham borlar, ular 82 yoshdalar, buvum nevara-yu, avaralarni boqish bilan bandlar. Mening akam - Rahmatxo'jayev Abrorxo'ja 30 yoshda, u Respublika prokuraturasida katta tergovchi bo'lib ishlaydi. Uning xotini, ya ni kelinoyim Rahmatxo'jayeva Zilola, u 24 yoshda, 25-litseyda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Mening Anvarxo'ja va Setora ismli jiyanlarim bor. Ular 4 va 2 yoshda. Utarning ikkovi ham bolalar bog'chasiga borishadi. Mening opam Rahmatxo'jaeva Nargiza, u 1972-yilda tug'ilgan. 10-shahar tug'ruqxonasida aku-sher-ginekolog bo'lib ishlaydi. Va nihoyat singlim - Rahmatxo'jayeva Sayyora, u 1981-yilda tug'ilgan. 1-shahar klinik shifoxonasida hamshira bo'lib ishlaydi.

Men o'zim «Xo'ja» guruhining bastakori va cholg'uchisi bo'lib xizmat qilaman. Bizning hayotimiz juda qiziqarli, konsert va uchrashuvlarga boy. Biz deyarli har kuni mashq qilamiz, tez-tez konsertlar berib turamiz, muxlislar bilan uchrashuvlar o'tkazamiz. Men o'z xalqimga, ayniqsa, yoshlarga, talabalarga chin dildan xizmat qilayotganimdan juda-juda baxtli man. Men «o'zbek san'atkori» degan nomni oqlash uchun qo'slimdan kelganicha harakat qilaman.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qing.
2. Matnning mazmunini so'zlab bering(bunda familiyalar o'rniga o'z familiyangizni qo'yib hikoya qilishingiz mumkin).
3. Matndagi barcha sonlarni harflar bilan yozib chiqing.
4. Gaplarni mazmunan mos kelgan so'zlar bilan to'ldiring.
 - a) men yilda tug'ilganman;
 - b) otam yoshdalar;
 - c) onam yoshga to'ldilar;

- e) akam yoshdan oshdi;
 f) singlim bu yil yoshga kiradi;
 g) jiyanlarim yoshda, ular bog 'chaga borishadi.

Matnda rus va o'zbek tilida bir xil ishlataladigan so'zlar bormi?
 Ularni topib daftaringizga ko'chirib oling.

Shaxs yoki predmetning sanog`ini ifodalash

<i>Yetti qiz.</i>	<i>Bir dona</i> qovun.
<i>Beshta bola.</i>	<i>To`rtta</i> tarvuz.
<i>O`nta odam.</i>	<i>Oltitadan</i> qoshiq.
<i>Sakkiz kishi.</i>	<i>O`n beshtadan</i> daftur.

2-mashq. Ushbu sonlarni rus tiliga tarjima qiling.

87 ta qiz, 22 dona quti, 56 ta kitob, 89 ta daftur, 15 tadan kosa, 2 tadan vazifa, 3 ta kutubxona.

Eslab qoling!

Shaxs yoki predmetning taxminiy miqdorini ifodalash:

<i>Aniq miqdori:</i>	<i>Taxminiy miqdori:</i>
<i>O`ntu</i> odam keldi.	<i>O`ntacha</i> odam keldi.
<i>O`n so`m</i> pul.	<i>O`n so`mcha</i> pul.
<i>Olti metr</i> mato.	<i>Olti metrغا yaqin</i> mato.
<i>Yetti metr</i> keladi.	<i>Yetti metrlarcha</i> keladi.
<i>O`n bir kilo</i> yog`.	<i>O`n bir kilo chamasi</i> yog`.
<i>100ta</i> odam bor.	<i>Taxminan</i> 100ta odam bor.
<i>O`n besh metr</i> bor edi.	<i>O`n-o`n besh</i> metr bor edi.

Shuningdek, predmetning taxminiy o'lchovi va qiymatini ifodalashda: yaqin (*o`n metrغا yaqin*), atrofida (*besh metr atrofida*), qariyib (*qariyib o`n kun yo`q bo`lib ketdi*) so'zları ham ishlataladi.

3-mashq. Savollarga yozma javob bering

1. *Siz nechta kitob sotib oldingiz?*
2. *Bugun kontsertga nechta qiz boradi?*
3. *Har biringizga nechtadan olma tegdi?*
4. *Ertaga Moskvaga necha kishi ketmoqchi?*
5. *Bozordan necha dona tarvuz olmoqchisan?*
6. *Kechuga taxminan nechta mehmon kelmoqchi?*
7. *Uyingizga yana necha metrlar bor?*
8. *Shu ketgancha necha kun ketasiz?*

4-mashq. Qayidagi shaxtdosh so'zlarning ma'nolari -

4-mashq. Namunaga qarab dayovit ettiring.

Namuna: Men bugun 8ta qalam sotib oldim.

Sen	kecha	10ta qalam	sotib olding
U	bugun	20ta	
Ular		25ta	
Men	ertaga	26ta	
Bizlar		32ta	

Shaxsning yoshini ifodalash

- | | |
|------------------------------|--------------------------|
| - Siz necha yoshdasiz? | - Men 20 yoshdamman. |
| - Yoshingiz nechada? | Yoshim yigirmada: |
| - Ukang necha yoshga kirdi? | Ukam 18 yoshga kirdi. |
| - Sen necha yoshga to'lding? | Men 30 yoshga to'ldim. |

Eslab qoling!

Yosh bildiruvchi sifatlar va sonlar:

Yosh bola.

O'spirin yigit.

Orta yashar ayol. Keksa kishi.

13-yoshli bola.

U 12-13 yoshlarda.

30-40 yoshlardagi odam.

1 yoshli go'dak.

60 yoshli qariya(qari).

Men 20 yoshdamman. Biz 40 yoshdamiz.

Sen 20 yoshdasan. Siz 40 yoshdasiz.

U 20 yoshda. Ular 40 yoshdalar.

5-mashq. Do'stлaringiz va ularning oila a'золари yoshini so'rab biling, o'zbekcha aytинг va daftaringizga yozib qo'ying.

Namuna: Men bugun 8ta qalam sotib oldim.

6-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой друг родился в 1975 году, значит ему сейчас 25 лет.
2. Брат родился в 1985 году, ему скоро исполнится 15 лет.
3. Моя мама родилась в 1950 году, ей ровно 50 лет.
4. Мой отец родился в 1944 году, ему исполнилось 56 лет.
5. Им всем по 35 лет.

Shaxsning yoshini ifodalash

- | | |
|------------------------------|--------------------------|
| - Siz necha yoshdasiz? | - Men 20 yoshdamman. |
| - Yoshingiz nechada? | Yoshim yigirmada: |
| - Ukang necha yoshga kirdi? | Ukam 18 yoshga kirdi. |
| - Sen necha yoshga to'lding? | Men 30 yoshga to'ldim. |

Shaxs yoki predmetning tartibini ifodalash

Birinchisi sinfi.	Birinchisiga ayt, kirsin.
O'n to'rtinchisi xona.	O'ninchisi joyida tursin.
Bir yuz yigirma uchinchisi maktab.	
Uch yuz birinchisi auditoriya.	

7-mashq. Quyidagi sonlarni o'zbekcha aytинг.

206-школа, 402-аудитория, 128-детский сад, 1-улица, 19-квартира, 320-дом, 4-подъезд, 1983 год, 12-месяц, 8-день.

8-mashq. O'z oilangiz, turar joyingiz haqida gapirib bering (nutqiningda iloji boricha sonlarni ko'proq qo'llang).

Eslab qoling!

Shaxs va predmetni jamlab ifodalash uchun:
xalq, millat, aholi, el, to'da, qo'shin kabi otlardan;
uchovlon, ikkovlon, to'rtovi, beshatasi, oltovlon, yettovlon kabi sonlardan;

hamma, barcha, har kabi olmoshlardan foydalaniлади.

9-mashq. Namunaga qarab davom ettiring.

Namuna: Bugun beshovlon kinoga boramiz.

Kecha	kutubxonaga
Bugun	konserga
Ertaga	kafega
O'tgan yili	daim olishga
Kelasi yilda ...	toqqa chiqamiz.

10-mashq. 100 sonigacha o'zbek tilida sanang. O'zingiz istagan sonlarni dona son, miqdor son, tartib son shaklida yozib chiqing.

11-mashq. Dialogni rollarga bo'lib o'qing:

Shifokor qabulida

- Kirish mumkinmi, assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom, kiring, marhamat. Nima bo'ldi? Qanday shikoyatingiz bor?
- Boshim bilan tomog'im qattiq og'riyapti.
- Yoshingiz nechada? Qon bosimingga ham oshib turadimi?
- Yaqinda 30 yoshga to'ldim.

- Xo`p, yaxshi. Haroratingiz ham bormi?
- Ha, uyda o`chaganimda 38,5°C edi.
- Ha, isitmangiz baland ekan, bu ahvolda ishga borib bo`lmaydi. Sizga kasallik varaqasini beramiz.
- Men endi nima qilishim kerak, doktor?
- Mana shu dorilarni bir kunda uch marta ichishingiz zarur. Iliq sut, sharbatlar iching. Yetkangizga gochchichnik qo`ydiring.
- Endi yana qaysi kuni kelishim kerak?
- Shanba kuni keling, holatingizga qarab yana o`ylashib ko`ramiz.
- Xo`p, rahmat, doktor!
- Xayr, sog` bo`ling.

Doktor qabulida bo`lganda ishlataladigan so`z va so`z birikmlarini eslab qoling.

Til va madaniyat.

1. O`zbekcha mulozamat va nutq odobi namunalarini.

Bemorni borib ko`rish odobi

- Assalomu alaykum, yaxshimisiz?
- Vaalaykum assalom, keling.
- Tuzuk bo`lib qoldingizmi?
- Rahmat, ancha tuzukiman.
- Boshingiz tuzalib qoldimi?
- Yomon emas, ancha yaxshi bo`lib qoldi.
- Ko`rinishingiz juda yaxshi.
- Shukur, har holda ancha yaxshi.
- Mayli, tuzalib keting.
- E`tiboringiz uchun rahmat.
- Xo`p, xayr, sog` bo`ling.

2. O`zbek xalq maqollarini o`qing, o`z ona tilingizdagi muqobilini topib daftaringizga yozib qo`ying:

Sog` tanda sog`lom aql.

Salomatlik – tuman boylik.

Sog`liqning qadri kasal bo`lganda bilinadi.

Tozalik sog`liq garovidir.

12-mashq. a) o'gitlarni o'qing.

**Ibn Sino bobo ulashar davo
(O'gitlar)**

Po'lat Mo'min

Xem suvni ichma,
Sog'liqdan kechma.

Badantarbiya –
Kuch etar hadya.

Yeb bo'lib ovqat,
Yugurma faqat.

Yurmoqlik iflos
Kasalga asos.

Oshni taklifsiz
Boshlar tartibsiz.

Og'rimay desang.
Chay, meva yesang.

Ozoda hovli –
Kasaldan xoli.

Dardning og'iri
U – tish og'rig'i.

Ko'p dardga asos –
Shamollash, xolos.

Kim harakatda
Sog'lom, albatta.

b) yuqoridagi o'gitlarning qay biri sizga tanish?

d) siz berilgan o'gitlarning qay biriga rioya qilasiz? Javoblaringizni yozing

15-Dars

Umumiy mavzu: Tabiat va inson Mavzu: Insonlar o'rtaqidagi munosabatlari

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling:

munosabatlar, aloqada, zaruriyat yuzasidan, muomala, ehtiyojkorona munosabatda, iqtisodiy munosabatga, bir-birimizga nisbatan e'tiborli, yaxshilikni ayamaslik kerak.

Munosabatlar

Munosabatlar turli maqsad va yo'nalishlarga qaratilgan aloqalar yig'indisidir. Insonlar doim ish yuzasidan yoki zaruriyat yuzasidan birlari bilan *aloqada*, ya'ni munosabatda bo'ladilar. Mana, siz talaba bo'ldingiz. Universitetda o'z o'rtoqlaringiz, o'zingizdan katta talabalar bilan ham munosabatda bo'layapsiz. Professor-o'qituvchilar sizga saboq beriganlarida, biror ish, *zaruriyat yuzasidan* siz bilan gaplashadilar, ish buyuradilar. Demak, siz munosabatda, *muomaladasiz*. Bu munosabat ta'lif maqsadiga qaratilgandir.

Munosabatni, boshqacha, muomala deb ham ataydilar. Siz o'qishdan uyga ketayotganingizda og'ir yuk ko'tarib ketayotgan otaxon yordamlashdingiz. Yo'l-yo'lakay otaxon bilan suhbattashib, tanishib ham oldingiz. Bu ham munosabat. Ayniqsa, talabalar ayollarga, qizlarga nisbatan juda *ehtiyojkorona munosabatda* bo'lishlari kerak, ularni doimo hurmat qilishlari, ularga qo'llaridan kelganicha yordam berishlari lozim bo'лади.

Siz oila ehtiyojini qondirish uchun do'konga yoki bozorga xaridor bo'lib borib, sotuvchi bilan gaplashish chog'ida *iqtisodiy munosabatga* kirishdingiz. Iqtisodiy munosabatlar iqtisodga aloqador maqsad va yo'nalishlarda olib boriladi. Masalan, talabalar yangi yilga yoki biron bir boshqa bayramga atab kecha o'tkazishmoqchi. Buning uchun ular kafe ma'muriyati bilan shartnoma tuzishi, ya'ni zarur miqdordagi oziq-ovqatlar, kechani o'tkazib beradigan artistlar va boshqa tashkiliy ishlar yuzasidan kelishib olishi zarur bo'лади. Bu ham iqtisodiy munosabatlarning bir turidir. Xuddi shunday iqtisodiy munosabatlar yakka shaxslar, korxonalar, firmalar, jama'a xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va davlatlar orasida ham bo'лади.

Ammo, eng muhimmi, biz qanday munosabatlarga kirishmaylik, *inson ekunligimizni unutmasligimiz* lozim; biz hamisha *bir-birimizga nisbatan*

e'tibortli, oqibatli bo'lishimiz, insonlardan qo'limizdan kelgan yaxshiligi-mizni ayamasligimiz kerak!

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni yana bir marta o'qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn yuzasidan 5 ta savol tuzing.
4. Matnning mazmunini so'zlab bering.
5. Matndagi quyidagi so'zlarning sinonimlarini, antonimlarini toping: munosabatlari, aloqalar, ish, zaruriyat, muomala, boshqacha, otaxon, hurmat qilmoq, lozim, kecha, inson, yaxshilik.
6. Gaplarning mazmuni to'g'rimi?
 - a) mana siz maktab o'quvchisi bo'ldingiz;
 - b) o'qituvchi-talaba munosabati iqtisodiy munosabatdir;
 - d) talabalar xotin-qizlarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'ladilar: transportda joy bermaydilar, og'ir yuk ko'tariib ketayotganini ko'rib yordam bermaydilar;
 - e) talaba -- sotivchi munosabati ta'lim olishga qaratilgan munosabatdir.
7. «21-asr talabalari va ularning boshqa insonlar bilan munosabati» mavzusida kichik insho yozing.

Aniq va taxminiy vaqt ni ifodalash

Qiyoslang:

Aniq vaqt:

- | | |
|-----------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Akam soat beshda keladi. | Akam besh yarimda keladi. |
| Akam besh yarimda keladi. | Akam beshdan o'n minut keladi. |
| <i>o'tganda</i> keladi. | <i>o'tganda</i> keladi. |
| Akam o'n besh minut kam beshda keladi. | Akam o'n besh minut kam beshda keladi. |








Taxminiy vaqt:

- | | |
|----------------------------------|-------------------------------------|
| ... <i>soat</i> besharda keladi. | ... <i>besh-oltida</i> keladi. |
| ... <i>beshga yaqin</i> keladi. | ... <i>beshdan oshganda</i> keladi. |
| ... <i>beshgacha</i> keladi. | |

Eslab qoling!

1. Aniq vaqt ni ifodalovchi so'zlar: **soat, minut, daqiqa, yarim, kam.**
2. Taxminiy vaqt ni ifodalovchi so'zlar: **bir vaqtlar; bir zamon; ilgari; qachondir; allaqachonlar.**

2-mashq. Do'stlaringizdan vaqtini so'rang. Rasmga qarab soat necha bo'lganini ayting, javoblariningizi yozing.



3-mashq. Dialogni rollarga bo'lib o'qing.

Ne'mat: Salom, Nigora, ishlaring yaxshimi?

Nigora: Salom, Ne'mat, yaxshi yuribsanmi?

Ne'mat: Bilmaysanmi, hozir soat necha bo'ldi?

Nigora: Hozir soat 16 dan 25 daqqa o'tdi.

Ne'mat: Voy, men bugun soat 15 da klubda bo'lismish kerak edi.

Nigora: Ha, sen 1 soat 25 daqiqaga kech qolibsan.

Ne'mat: O'zingchi, o'zing bu yerlarda nima ish bilan yuribsan?

Nigora: Hozir, ya'ni soat 5 larda dugonam bilan uchrashishimiz kerak.

Ne'mat: Xo'r, mayli, ertaga soat 18 da kontsertimiz bor, kelinglar.

Nigora: Mayli, xayr, vaqtiniz bo'lsa albatta boramiz.

4-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjuma qiling.

Без пятнадцати восемь, пол десятого, десять минут двенадцатого, пять минут одиннадцатого, десять часов двадцать пять минут, девять часов шестнадцать минут тридцать пять секунд, в одной минуте шестьдесят секунд, в одном часу 60 минут, без двадцати семь, без десяти девять, без пяти двенадцать.

Eslab qoling!

Qiyoslang:

Siz necha soat ishladingiz? Hozir soat necha bo'ldi?

Biz olti soat ishladik. Hozir soat olti bo'ldi.

Predmetning narx-qiymatini ifodalash

Qiyoslang!

Aniq narx-qiymat:	Taxminiy narx-qiymati:
5 so`m (pul).	5 somcha pul.
15 so`mdan sotib oldi.	5 so`mchadanga.
1 so`m 20 tiyin.	1 so`m 20 tiyincha.
300 so`mdan oshiq.	100 so`mchadan oshiq.
1000 so`mdan kam.	1000 so`mga yaqin. taxminan 1000 so`m. <i>o`n - o`n besh so`m.</i>

5-mashq. Do'stingiz bilan «Toshkent bozorlarida» mavzusida suhbat tuzing, so'ngra uni daftaringizga yozing (suhbatda aniq narx-qiymatni ifodalovchi so'zlarni ishlating).

6-mashq. Gaplarni mazmuniga mos so`zlar bilan to'ldiring.

1. Oziq-ovqat do`konidan mahsulotlarni sotib oldim.
2. Bugun bozorga tushib 20 ta daltar sotib olmoqchi edim, lekin pulim yetmay qoldi.
3. Ertaga oshiq pul olib Samarqandga ketmoqchiman.
4. Sardor, iltimos, menga pul berib tur.
5. Bugungi xarajatdan keyin ularda taxminan pul qolgan bo'lsa kerak.
6. Eh, yana pulim bo`lganda edi, hozirning o'zida palto sotib olgan bo`lar edim.

7-mashq. Predmetning taxminiy narx-qiymatini ifodalovchi **yaqin, chamasi, atrofida, qariyib, taxminan** kabi so'zlar ishtirokida 8 ta gap tuzing.

Miqdorning qismini ifodalash

<i>Uchdan bir qismi.</i>	Bir <i>tomchi</i> suv.
<i>Bir yarimta tarvuz.</i>	<i>Ikki bo'luk</i> non.
<i>Chorakta qovun.</i>	<i>To'rtdan bir foiz.</i>
<i>Beshdan ikki qismi.</i>	<i>Yarim cho'mich.</i>
<i>Uch tilim qovun.</i>	

8-mashq. Kasr sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

9-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Завтра, в 11 часов утра.

2. Занятия кончаются около 8 вечера.
3. При университете открылось летнее кафе с 4 поварами, с 3 официантками, с 1 кассиром.
4. 3/5 человек ушли с пустыми руками.
5. 7/6 студентов стояли с поднятыми руками.
6. ½ (половина) людей были голодными.

10-mashq. Sonning barcha turlariga 2 tadan misol toping va daftaringizga yozing.

11-mashq. Matnni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Что такое «вежливость»?

До XVI века слово «вежа» означало «знаток». Вежливый – человек, который знает, как себя вести в разных жизненных обстоятельствах. Корректность – это особая вежливость, которая часто проявляется в официальных отношениях, это подчеркнутая, иногда суроватая вежливость. Учтивыми называют людей, которые с почтительной вежливостью относятся к другим людям, старшим по возрасту. Любезный человек это тот, который вместе с вежливостью обращения стремится быть полезным и приятным другим людям. «Деликатный» мы говорим о человеке, который не просто вежлив, но отличается мягкостью и тонкостью в понимании других людей. Но во всех случаях основа вежливости – уважение к людям, доброжелательность к ним.

Til va madaniyat.

1.O'zbekcha malozamat va nutq odobi namunalari.

Notanish kishini tanishtirish odobi.

- Assalomu alaykum, do'stimni tanishtirishga ruxsat eting. Bu Mavlonov Shuhrat bo'ladi, u O'zMUning matematika fakulteti talabasi.
- Juda yaxshi, siz bilan tanishganimdan xursandman. Men ham O'zMU talabasiiman, ya'ni jurnalistika fakultetining 2-kursida o'qiyman.
- Men ham siz bilan tanishganimdan xursandman. Siz ham o'zbekcha gapirasizmi?
- Ha, albatta, men o'zbek tilini o'rganayapman.
- Xo'r, mayli, yana ko'rishmiz.
- Xo'r, yotoqxonamizga kelib turing.

2.Ushbu o'zbek xalq maqollarini yod oling, ularning rus tilidagi muqobilini toping.

Do'st – do'sting tayanchi.

Hamarding bo'lsa – darding yarimta.

Do'st bilan uying obod bo'ladi,

Do'stsiz uying barbob bo'ladi.

Mingta yolg'on do'stdan bittagina xaqiqiy do'st yaxshi.

12 – mashq. a) matnni o'qing;

b) rus tiliga tarjima qiling;

c) shu masala xususida o'z fikringizni aytинг.

Yordamingizni ayamang

O'zbek xalqida qadimdan mehr-oqibat, saxiylik, ota-onा va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bor. Shuning uchun ham o'zbek xalqi orasida bir-birini yo'qlash, nochor va nogiron oilalarga yordam berish odat tusiga kirgan.

O'zbekistonliklarning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan mehmon-do'stlik, kattalarga hurmat, serfarzand oilalarga g'amxo'rlik qilish, to'y va marosimlarda o'zaro yordamlashish, hashar, oilada bir-biriga ko'maklashish, himmatlilik, oila buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi udumlar ko'p yillardan beri mavjud. Bu urs-odatlarni O'zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillari ham o'rGANISHSA, ularga amal qilishsa bu faqat foyda keltirishi mumkin. Shunday ekan, ota-bobolarimiz udumiga sodiq qolgan holda bir-birimizdan yordamimizni ayamaylik. Axir, moddiy yordam bera olmasak ham, yaxshi so'z, shirin muomala, do'stona munosabat bilan yordam berish, dil yarasiga malham berish mumkin-ku! Aziz ta labalar, savobli ishlar qilishga oshiqing!

16-Dars

Umumiy mavzu: Tabiat va inson Nutqiy mavzu: Inson va yovvoyi tabiat

1-mashq. Matnni o'qing. Matndagi tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: inson, yovvoyi hayvonlar, Turon yo'lbarsi, yo'qolib ketish, Turkistonning mustaqil mamlakatlarida, «Qizil kitob», umurtqalilar, Turkiston o'lkasi, qo'riqxona, tabiat bog'i.

2-mashq. Matndagi olmoshlarga e'tibor bering.

Turkistonning yovvoyi tabiatи

XX asrning ikkinchi yarmida xo'jalik faoliyatini kuchaytirgan inson o'zlashtirilgan yerlardan yovvoyi hayvonlarning ko'pchiligini qisib chiqaradi. Amudaryo va Sirdaryo to'qaylarining sultoni – Turon yo'lbarsi yer yuzidan o'chirildi. Sahrolarning eng go'zal mushugi gepardni, shuningdek, qizil bo'rini, tuvaloqni ham shafqatsiz ovchilar qirib bitirdilar.

Targ'il sirtlon, quvur shoxli echki – Marxo'r, Buxoro bug'isi – xongul, old Osiyo qoploni, O'rta Osiyo ko'zoynakli iloni kabi hayvonlar yo'qolib ketish arasasida.

Turkistonning mustaqil mamlakatlarida nodir va yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan hayvonlar turini nazorat qilib borish maqsadida «Qizil kitoblar» ta'sis etilgan. O'ta xavfli alvolga tushib qolgan umurtqalilar mazkur kitoblarga kiritilgan.

Turkiston o'lkasi hududida nodir hayvonlarni saqlab qolish va kelgusida ularning sonini ko'paytirish maqsadida so'nggi 30 yil ichida 30 ta qo'riqxona ochildi, shulardan 6 tasi biosfera qo'riqxonasi bo'lib, alohida xalqaro ahamiyatga egadir. Shuningdek, 30 dan ortiq zakaznik, 6 milliy tabiat bog'i, 5 pitomnik tashkil etilgan.

Qoriqxona tartibiga qat'iy amal qilish tufayli qo'riqxonalarning hayvonot dunyosi yildan-yilga boyib bormoqda. Lekin biz nechog'li zo'r berib qo'riqxonalar, zakazniklar, milliy tabiat bog'lari tashkil etmaylik, inson vijdoni tabiat muhofazasida hal qiluvchi mezon bo'lib qolaveradi. Zero, qo'l tegilmagan tabiatning barcha xususiyatlarini hozirgi kelajak avlodlar manfaatlari yo'lida to'laligicha hamda bor go'zalligi bilan saqlab qolish kunimizning dolzarb muammolaridan biridir. Siz aziz talaba, bu muam-moga qanday munosabat bildirasiz?

Matn yuzasidan topshiriqlar:

I.Matnni qayta o'qib chiqing.

2. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikmalarining sinonimlarini, antonimlarini toping: O'chiriladi, ko'pchiligi, yer, eng go'zal, qizil, hayvonlar, maqsadida, o'ta xavfli, o'lka, hudud.

3. Matndagi quyidagi gaplarni qanday tushundingiz:

- Amudaryo va Sirdaryo to'qaylarining sultonı – Turon yo'lbarsi yer yuzidan o'chirildi;*
- hayvonlar turimi nazorat qilib borish maqsadida «Qizil kitob» ta'sis etilgan;*
- Turkiston o'lkasi hududida 30 ta qo'riqxona ochildi, shulardan 6 tasi biosfera qo'riqxonasi bo'lib, alohida xalqaro ahamiyatga egadir;*
- qo'riqxona tartibiga qat'iy amal qilish tufayli qo'riqxonalarning hayvonot dunyosi yildan-yilga boyib bormoqda.*

4. Quyidagi so'z va iboralarning o'zbek tilidagi muqobilini matndan toping:

<i>Вторая половина XX века</i>	<i>пустыня</i>
<i>дикий зверь</i>	<i>учрежденный</i>
<i>ценный</i>	<i>под угрозой</i>
<i>территория</i>	<i>с целью</i>
<i>осовенный</i>	

5. Matnni lug'at yordamida tarjima qiling.

6. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matnning qisqacha mazmunini gapirib bering.

7. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering, su'ngra javobingizni daftarga ko'chiring.

- shafqatsiz ovchilar qaysi hayvontarni qirib bitirdilar?*
- «Qizil kitob» nima uchun ta'sis etilgan?*
- qo'riqxonalar qanday maqsadda ochilgan?*
- sizningcha, yovvoyi tabiatni asrash uchun nima ishlar qilish kerak?*

8. Matnda qo'llanilgan rus va o'zbek tillarida 1 xil ma'noni anglatuvchi so'zlarni daftaringizga yozing va eslab qoling. Masalan, biosfera, zakaznik kabi.

Harakat bajaruvchisini ta'kidlab ko'rsatish

<i>O'zim keldim.</i>	<i>O'zimizga qaytarib bering.</i>
<i>Siz o'zingiz aytинг.</i>	<i>Dadam o'zları keladilar.</i>
<i>Uning o'zida yo'q.</i>	<i>Ularning o'zi aybdor.</i>
<i>Men o'z qalamimni oldim.</i>	<i>U o'z ruchkasini oldi.</i>

Eslab qoling!

Men o'zim.	Biz o'zimiz.
Sen o'zing.	Siz o'zingiz.
U o'zi.	Ular o'zлari.

O'zimga, o'zimda, o'zimning, o'zimi, o'zimdan.

Birlikda:

Men o'z kitobimni oldim.
Sen o'z kitobingni olding.
U o'z kitobini oldi.

Ko'plikda:


Biz o'z kitobimizni oldik.
Siz o'z kitobingizni oldingiz.
Ular o'z kitoblarini oldilar.

3-mashq. Gaplarni ko'chiring, o'zlik olmoshining tagiga chizing hamda rus tiliga tarjima qiling.

1.O'qituvchi o'z kitobini talabaga sovg'a qildi. 2. Siz g'azalni shunday o'qiysiz-ki, o'zingiz ham rohat qilasiz. 3. Bolaga hech kim o'z ulushidan hissa berishni istamadi. 4. Podsho bolani o'ziga o'ng qo'l vazir qilib olibdi (ertakdan). 5. O'ziga boqma, so'ziga boq (maqol). 6. Nahotki bu gaplarni o'z qizimdan eshitayotgan bo'sam? 7. Ko'proq talabalarning o'ziga ishonish zarur. 8. Akbar o'z paltosini ukasiga berib yubordi.

4-mashq. Namunaga qarab davom ettiring.

Namuna: Bu o'zimning kitobim.



5-mashq. So'z va so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Сами студенты, ты сам, он сам, она сама, сама мама, сам отец, свой труд, своя статья, свой университет, свои права, если себя считать храбрым, другого львом считай (пословица).

Eslab qoling!

Kishilik olmoshlari

Men	Biz
Sen	Siz
U	Ular

Shaxs, predmet va hodisa yoki uning belgisining noanigligini ifodalash.

Kimdir keldi.	Allakim ko'rindi.
Nimadir tushib ketdi.	Allanarsalar olib keldi.
Ba'zi narsalar yo'q.	Alla qaysi narsani ko'rdi.
Ba'zilar kelmadni.	Qanaqadir buyum.
Birovni ko'rdi.	Bir nimani ko'tardi.

6-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. Men bu gapni eshitganman.
2. Kecha Zilola do'kondan sotib olibdi.
3. Hamma uning yana deyishimi kutib turar edi.
4. U ko'chaning narigi betida ko'rdi.
5. eshikni taqillatayapti.
6. Chiqing, sizni chaqirayapti.
7. kecha mana bu xatni tashlab ketibdi.
8. Bu maqolani yozib qo'yanman.
9. bu romanni o'qigan edim.
10. uning esidan chiqibdi.

7-mashq. «Talaba va tabiat» mavzusida suhbat tuzing.

8-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.

1. Он эту песню от кого-то уже слышал.
2. Все ждали, что кто-то сейчас зайдет во внутрь.
3. Салим перешел на ту сторону улицы, куда-то зашел, кого-то позвал, с кем-то поговорил, что-то записал и ушел неизвестно куда.
4. Она в темноте что-то видела.
5. Никогда никакого разговора об этом и быть не может.
6. Зилола зашла в магазин кому-то передала деньги и что-то взяла.

Shaxs, predmet, hodisa va ularning belgisini inkor etish

Hech kim kelmadni.	Hech indamadi.
Hech narsani olmadni.	Hech narsa demadi.
Hech qancha vaqt o'tmay...	Hech qanday kuch...
Hech bir voqeasi.	Hech qachon.
Hech qaysi talaba.	Hech nima.

9-mashq. Quyidagi bo'lishsizlik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing, ularni rus tiliga tarjima qilib daftaringizga yozing.

Hech kim, hech qaysi, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha.

Olmoshlarning yozilishini eslab qoling!

Ko'rsatish olmoshlari:

Bu, shu, u, o'sha, ana,
mana, mana bu,
ana shu

So'roq olmoshlari:

Kim? Kimlar?
Nima? Nimalar?
Qanday? Qanaqa? Qaysi?
Qancha? Qachon? Qalay?

Belgilash olmoshlari

Hamma, barcha, bari, har birimiz
ba'zi, har, har bir, har kim, har qaysi, har narsa

10-mashq. Olmoshlarning har bir turi qatnashgan 2 tadan gap tuzing. Ularning qaysi biri qo'shib, qaysi biri alohida yozilishini aytib bering.

11-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling

Чаткальский заповедник

Богат животный и растительный мир Узбекистана. В республике создано несколько заповедников. Один из самых больших заповедников - Чаткальский. Находится он в 70 километрах восточнее Ташкента. Самая высокая точка заповедника - 3265 метров. В горах на склонах встречаются рисунки птиц и зверей, сделанные первобытным человеком. Здесь текут горные речки. Климат в заповеднике прохладный и влажный. Разнообразен растительный и животный мир заповедника. Здесь живут 3 вида рыб, 9 видов пресмыкающихся, свыше 100 видов птиц и 30 видов млекопитающих. Встречаются белка, ликерман, волк, лиса и другие звери. Чаткальский горно-лесной заповедник - прекрасный уголок природы, сохраненный руками и умом человека.

Til va madaniyat

I.O'zbekcha malozamat va nutq odobi namunalari

Minnatdorchilik bildirish odobi.

Talaba: Assalomu alaykum ustoz, mumkinmi?

O'qituvchi: Vaaleykum assalom, marhamat, kiring.

Talaba: Ustoz, sizga kitobingizni olib kelgan edim. Kitob uchun katta rahmat.

O'qituvchi: O'qib bo'ldingizmi, juda yaxshi.

Talaba: Ha, ustoz, sizdan behad minnatdorman. Yana bir marta rahmat. Xayr, ustoz, sog' bo'ling.

2. Ushbu o'zbek xalq maqollarini yod oling, o'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

Usta obro'nı hunaridan topadi.

Dungusaning qo`li saratonda sovgotar.

Gap bilguncha, ish bilgin.

Qolgan ishga qor yog`ar.

12-mashq. a) matnni rus tiliga tarjima qiling.

Tog`lar tabiatı

O'rta Osiyo hududidagi katta tog`lar Tyan-Shyan, Hisor-Oloy, Pomir kabi tog`larning o`ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi bo`lib, ular bir-birlariga o`zarlo ta'sir ko`rsatib turadilar. Bu tog`larda turli xil yovvoyi qush va hayvonlar yashaydi. Masalan, boshida kichkina jig`asi bor so`fito`rg`aylar, dehqon-chumchuq, Turkiston ko`k kaptari, toshchumchuq kabi qushlar qadimdan bu tog`larni o`ziga makon qilganlar. Adir yonbag`irlarining ko`p joylarida yer osti hayvoni – ko`rsichqon chiqarib tashtagan barhanchalar uchraydi. Unga yaqin joyda O'rta Osiyo ko`zoynakli ilonlari bor. Sal nariroqqa yurilsa, qoyalar boshlanadi. Qoyalar orasidan lip-lip ko`rinib qolayotgan kaklik jo`jalari bilan ko`ldan suv ichgani boradi. Yu-qoriga ko`tarilgan sari o'simliklar ham, hayvonlar ham o`zgarib boradi. Masalan, baland tog`larda qo`ng`ir ayiq, sirtlon, O'rta Osiyo tog` echkilari, yovvoyi cho`chqa, yirtqich qushlardan qoraqush va qor kalxatlari aynan tog`larning eng baland joylarida yashaydi.

- b) toqqa sayrga chiqqanmisiz?
- d) tog`lar haqida bilganlaringizni yozing.

17-Dars

Umumiy mavzu: Fan- texnika olamida Nutqiy mavzu: Kutubxonaning qurʼani

1-mashq. Matnni o’qing. Tayanch so’z va so’z birikmalarini eslab qoling:

Davlat kutubxonasi, nashrlar, bebablo madaniy boyliklar, adabiy asarlar, kitobxonalar, o’quv chiptalar, ilmiy, xorijiy adabiyotlar, muallif, nashriyot nomi, buyurtma.

2-mashq. Matndagi fe’llarning qaysi maylda ekanligini aniqlang.

Alisher Navoiy nomli kutubxona

Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Davlat kutubxonasi O’rta Osiyodagi eng yirik va boy kutubxonalardan biridir. U 1870-yilda ochilgan. O’sha vaqtida uning fondida 2000 ta kitob va jurnallar bor bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunda kutubxona fondida 70 tildagi 4,5 million tom kitoblar mavjud. Kutubxonaga har yili 250 mingdan ortiq nashrlar kelib tushadi. Bu yerda bebablo madaniy boyliklar saqlanadi, xususan, kutubxonada XV-XVII asrlarda nashr qilingan tarix, jug’rofiya, harbiy ishlarga oid nodir kitoblar, O’rta Osiyo va O’zbekiston haqidagi adabiy asarlar to’plangan. Qadimgi val nodir kitoblar bo’limida Fyodorovning «Apostol», Petr I buyrug’iga asosan tuzilgan I.F. Magnitskiyning «Arifmetika»(1703-y.), M.V. Loimorosovning «Rossiya grammatikasi» asarlari saqlanadi.

Kutubxonaning kitoblar fondidan har yili 20 mingdan ortiq kitobxonalar foydalananadi.

Kutubxona roppa-rosa soat 10 da ochiladi. Dastlabki kitobxonalar o’z o’quv chiptalarini ko’rsatgan holda navbatchidan nazorat qog’ozlarini olib umumiy zaliga yo’l oladilar. Bir vaqtning o’zida ilmiy, o’smirlar, periodik, xorijiy adabiyotlar zallari, qo’lyozmalar, nodir kitoblar bo’limlari hamda mikrofilmalar zali ish boshlaydi.

Kutubxonaga har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, broshura, gazeta va jadvallar keitiriladi.

Kataloglar bo’limida 70 tilda yozilgan kitoblarning nomi yozilgan kartochkalar yig’ilgandir. Ularda kitoblarning muallifi, nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili hamda betlar miqdori ko’rsatilgan. Ba’zi o’rinlarda kartochkada kitobning qisqacha mazmuni, ya’ni annotasiyasi ham berilgan. Katalogda kartochkalar turli sohalar: falsafa, iqtisod, matematika, fizika, xim’iya, texnika, badiiy adabiyot bo’yicha ajratilgan holdadir. Biror kitob bo’yicha buyurtma berish uchun katalogdan shu kitobning shifritini topish kifoya qiladi. Kutubxona o’z ishini kechqurungi soat 10 da tamom

qiladi. Kitobxonlar o'z kitoblarini topshirib uylariga ketadilar. Sizchi, aziz talaba, ushbu kutubxonaga a'zo bo'ldingizmi? Bo'lmasa, bugunoq a'zo bo'lishga shoshiling!

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- 1.Matnni o'qing.
- 2.Quyidagi so'z va so'z birikmalarining o'zbek tilidagi muqobilini matndan toping.

Государственная библиотека	читательский билет
огромные культурные ценности	контрольные листки
хранятся издания XV-XVII веков	год издания
более 20 тысяч читателей	автор
иностранный литература	философия
издательство	экономика

- 3.Matnni tarjima qiling.
- 4.Matn bo'yicha savollar tuzung.
- 5.Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matnning mazmunini so'zlab bering.
- 6."Fan olamiga yo'li" mavzusida kichik insho yozing.
- 7.Matndan fe'lning turli mayllarida qo'llangan shakllarni toping va ko'chirib oling.
- 8.Tasavvur qiling, siz xorijdan kelgan muxbirsiz, kutubxona haqida maqola yozmoqchisiz. Siz kutubxona direktori va ishchilariga qanday savollar bergen bo'lardingiz? Shu savollarni yozing.

Harakatni bajarishga undashni ifodalash

Kitobni menga ber.	Buyoqqa kel.
Ushbu masalani ishlashi.	O'rningdan tur.
Mana bu olimalarni sana.	Bor, o'qishingga borib kel.
Saida uyiga ketsin.	Ular kirsintar (kirishsin).

Eslab qoling!

Sen boshla

Sen bor

U borsin

Sizlar boringiz

Ular borishsin yoki borsintar

Qiyoslang:

Ko'plikda

Hurmat ma'nosi bo'lganda

Sizlar keltingiz

Aka, kiringiz.

Ular kelishsin

Akam kirsintar.

3-mashq. Ushbu fe'llardan buyruq maylidagi fe'llar hosil qiling, ular ishtirokida gaplar tuzung.

Kelmoq, boshlamoq, topshirmoq, javob bermoq, so'zlamoq, turmoq, ko'rmoq, baholamoq, o'qimoq, yozmoq, ishlamoq, sanamoq, arimoq, turmoq.

4-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan fe'llarning mazmunan mos kelganini qo'yng va tarjima qiling :

1.O'zbekiston yoshlari, xalqingiz uchun 2. Avval o'qituvchimizning yoniga 3. Gulchehra menga telefon 4. Hamma talabalarni bugun soat 3 da katta zalda 5. Nodira opa ,bizga yangi qoidani yana bir marta tushuntirib 6. Ertaga barcha majlisga 7. Akamga aytинг, bugun kutubhonaga 8. Zohida opa shanba kuni uydan ketmay

So'zlar: *ishlamoq, jonini fidо qilmoq, bormоq, qilmoq, to'planmoq, bermoq, kelmoq, turmoq.*

5-mashq. She'rni yod oling. Undagi buyruq maylidagi fe'llarni ko'rsating, she'rning mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

O'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang danagin saqla.
Shu imeros bog'igni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosing haqla.
Bog'da tovus kabi xiromon bo'lib,
Umid danagini birga ekingiz,
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz

(*G'afur G'ulom*).

Harakatni bajarish istagini ifodalash

Men xatni o'qiy.	Kitobni o'qiylik.
Men endi boray.	Biz boraylik.
Men keta qolay.	Biz keta qolaylik.
Men she'rni o'qib turay.	Biz shuni ushlab turaylik.

Eslab qoling!

Buyruqni anglatuvchi so'zlar (fe'llar) faqat 2- va 3-shaxs uchun xos. Buyruq -istak maylidagi fe'llar asosan 1-shaxsga nisbatan ishlataladi.

6-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling. Buyruq-istak maylidagi fe'llarning tagiga chizing.

1. Сего́дня напишу́-ка письмо́ другу. 2. Займусь-ка завтра рефе́ратом. 3. Позвоню-ка вечером подружке. 4. На новый год подарю-ка маме хорошие духи. 5. Давайте поедем-ка на каникулы в горы. 6. Сходи-ка в хороший театр.

7-mashq. Hamsuhbatlaringizdan ular qanday kitoblarni o'qishni, qaysi filmlarni ko'rishni, qanday musiqa eshitishni istashadi, fe'llarni buyruq-istak mayliga qo'yib gapirib berishilarini so'rang.

Harakatni bajarilish shartini ifodalash

Men kelsam.	Biz olsak.	O'qisam. O'qisak.
Sen kelsang.	Siz olsangiz.	O'qisung.O'qisangiz.
U kelsa.	Ular olsalar.	O'qishsa. O'qisalar.
Siz indamasangiz.		Men o`rgansam edi.
Ular qatnashsalar.		Ular borishsa edi.
Kelgan bo`lsang.		Sizlar kelsangiz edi.

8-mashq. Maqollarni kerakli fe'llarni qo'yib ko'chiring.

1.Nima, shuni o'rasan 2. Hurmat...., izzat ko'rasan. 3.Ona yurting omon, rangi ro'ying somon bo'lmas. 4. Agar.... oqliging, bilinmaydi yo'qliging. 5.Agar odamni bilmoqchi, uning do'stiga boq. 6.,ortib qoladi. 7. Jahl,aql ketar. 8.Zo'rdan zo'r, zo'r dumuni qisar.

9-mashq. She'rnii yod oling. Shart maylidagi fe'llarni topib daftaringizga ko'chiring.She'rnning mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

Shunday yashar odatda odam

Yo'q, kerakmas, qo'ying kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar.
Xitvat soz deb qistamang, do'stlar.
Qo'ying, bunday orom kerakmas.
Nogahonda xayolga botsam,
Yo uylasam, uyg'oting darrov,
Qo'llarimdan ushlab o'shal dam.
Behudaga bir yoqqa borsam,
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng, hayqir deng, jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam!

(Abdulla Oripov)

10-mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimihalarni qo'yib ko'chiring.

1.Ertaga biznikiga kel, birga dars qilamiz. 2. Kimki mehnatga chidamlı bo'l, u muvaffaqiyatga erishadi. 3. Qani endi mening qizim

ham shunday yutuqlarga erish.... . 4. Bugun darsdan keyin kutubxonaga bor...hamma darsimni o'sha yerda tayyorlab olar edim. 5. Ertaga ham-mangiz kinoga bor, menga ham aytинг. 6. Kitob do'koniga bor menga ham o'zbek tili darsligini olib kel. 7.Dam olish kuni buvim uya bo'l...., ko'rgani bormoqchi edim. 8. Butun kurs to'plan, o'qituv-chimizni ko'rgani borar edik.

11-mashq. Quyidagi jadvalni xat taxtaga chizing va navbat bilan to'ldiring.

Fe'llar	Buyruq mayl	Buyruq- istak mayl	Shart mayl	Bolishli shakli	Bolishsiz shakli
Avaylamoq					
Asramoq					
Bormoq					
Yurmoq					
Yugurmoq					
Uxlamoq					
Dam olmoq					
Tushmoq					
Tiklamoq					
Gapirmoq					
Sakramoq					
Sirpanmoq					
Kulmoq					
Ketmoq					

12-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Научная библиотека Национального университета Узбекистана

Научная библиотека Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека была основана в 1918 году как библиотека Туркестанского народного университета. Только в 1920 году библиотека получила около 60000 томов. Коллекция литературы по искусству, языкоznанию, философии и математике была приобретена у частных лиц. Ценными книгами по математике поделился профессор Московского университета А.Б. Бахтин.

В настоящее время научная библиотека УзНУ - крупнейшая научная библиотека Средней Азии. Её фонд превышает 2 млн. 500 тысяч томов.

В собрании редких и старинных изданий хранится более 1000 книг на русском, западно-европейских и восточных языках. Среди них есть книги 16-18 вв.

Библиотека богата коллекциями восточных рукописей (около 900 названий) и монографий (1200 названий) на таджикском, персидском, тюркском и арабском языках. Она содержит ряд уникальных трудов по истории, географии, литературе и философии. Дорогой студент, не теряй зря времени и воспользуйся огромным научным потенциалом университета, т.е. его научной библиотекой. Именно книга поведет тебя к источникам в мире науки и больших открытий.

I. Rasmiy ish qog'ozlari namunaları

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zMU rektori akademik
T.N.Dolimovga
Ta'minot bo'limining boshlig'i
S.Saidovadan

Bildirishnoma

2000-yilining 20-dekabridan 29-dekabrigacha Toshkent to'qima-chilik mashinasozligi zavodida xizmat safarida bo'ldim. Xizmat safaridan maqsad O'zMUning ayrim ustaxonalariga zarur bo'lgan dastgoh va mashinalar yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish edi.

Xizmat safari yuzasidan mena yuklatilgan topshirig'ingiz bajarildi.

Illova: Zavod bilan tuzilgan shartnoma – 4 bet, 2 nusxa

Ta'minot bo'limining boshlig'i (imzo) S.Sajdova

2000- yil 30- dekabr

2. O'zbek xalq maqollarini yod oling, o'z ona tilingizdagи muqobilini toping.

*Baliq suv bilan tirik.
Bahorning bir kuni bir yilni to'ydiradi.
Besh qo'l barobar emas.
Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil.*

13-mashq. a) matnni o'qing.

Kitobning iltimosi

Aziz o'quvchim! Sizdan iltimos, meni kir qo'llaringiz bilan ushlamang, meni kir qilib qo'ysangiz boshqa kitobxonlardan uyalaman. Mening sahifalarimga qalam yoki ruchka bilan chizib tashlamang, bu juda xunuk

ko'rinadi. O'tinaman, sahifalarimni yirtmang! Meni o'qiyotganingizda yuzimga tirsaklaringizni tiramang. Yana bir iltimosim, meni ochiq holda yerga tashlamang, axir sizga ham shunday munosabatda bo'lishsa, jahlingiz chiqadi-ku!

Menga juda ehtiyyotkorona munosabatda bo'lling, ichimga qalam, yoki shunga o'xshash qalin narsalarni qo'y mang, bo'lmasa muqovam yirtilib ketadi. Yaxshisi, o'qishni to'xtatgan sahifangizga bir varaq qog'oz qo'y ing. Shuni unutmang-ki, men hali ko'plab o'quvchilar qoldida bo'lishim zarur. Shuning uchun menga top-toza va bus-butun saqlanishimda yordam bering, men esa sizlarga aqli hamda baxtli bo'lishingizda ko'mak beraman.

- b) uni rus tiliga yozma tarjima qiling;
- d) matn xususida o'z fikringizni ayting.

18-Dars

Umumiy mavzu: Fan-texnika olamida Nutqiy mavzu: Fan-texnika inqilobi

I-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: fan-texnika, sifat o'zgarishlari, elektron hisoblash mashinalari, tub o'zgarishlar.

Fan-texnika inqilobi

Hozirgi vaqtida buyuk fan-texnika inqilobi ro'y bermoqda, bu inqilob taxminan chorak asr ilgari boshlandi. Fan-texnika inqilobi fan va texnika ning ko'plab sohalarida chuqur sifat o'zgarishlariga olib keldi. Eng qadimiy fanlardan biri astronomiya insonning kosmik fazoga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobni boshidan kechirdi.

Kibernetika va elektron hisoblash mashinalarining paydo bo'lishi tufayli matematika fanida tub o'zgarishlar yasaldi, inson faoliyatida informatika deb atalgan yangi sohaga yo'l ochib berildi. Molekulyar biologiya vujudga keldi, kimyo fanidagi inqilob tufayli «katta kimyo» yaratildi. Geologiya, meteorologiya, okeanologiya va ko'plab boshqa hozirgi zamon fanlarida ham shunga o'xshash jarayonlar sodir bo'linoqda.

Bugungi kunda texnikaning barcha asosiy sohalarida chuqur sifat o'zgarishlari yuz berayapti. Masalan, energetikadagi inqilob organik yоqilg'i bilan ishlaydigan issiqqlik elektr stansiyalaridan atom elektr stansiyaliga o'tish bilan bog'langan.

Bularning hammasini jamlab, FTI jamiyat ishlab chiqarish kuchlarida yanada malakali ishchilarni talab qiluvchi inqilobni tayyorlamoqda deb aytish mumkin.

FTI fanning jamiyat hayotidagi rolini tubdan o'zgartirib yubordi. Fan bevosita ishlab chiqarish kuchiiga aylandi. Endi va bundan keyin insonga zarur bo'lgan moddiy boyliklar ishlab chiqarish taqdiri fan sohasidagi yutuqlarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qing.

2. Gaplardagi ayrim so'zlar gapning ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Siz matndan kelib chiqqan holda bu so'zlarni mos keladigan so'zlar bilan almashting.

a) hozirgi vaqtida buyuk fan-texnika inqilobi amalga oshmayapti;

- b) molekulyar biologiya va genetikaning yuzaga kelishi biologiyada inqirozni vujudga keltirdi;
- d) ...biroq amaliyot uchun juda muhim xossalarga ega bo'lgan tabiiy materiallar sanoatini yo'q qildi;
- e) FTI fanning jamiyat hayotidagi rolini tubdan o'zgartirib yubormadi;
- f) madaniyat bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi;
- g) endi insonga zarur bo'lgan moddiy boyliklar ishlab chiqarish taqdiri sun sohasidagi yutuqlurga mutlaqo bog'liq emas.

3. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

4. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib matn mazmunini gapirib bering.

5. Matndagi baynalmilal so'zlarni daftaringizga ko'chiring. Masałan, astronomiya, kibernetika.

6. «Fan-texnika inqilobining mening hayotimga ta'siri» mavzusida kichik insho yozing.

7. Matndagi fe'llarning nisbat shakllarini aniqlang.

Harakatning birgalikda bajarilishini ifodalash

Karim bilan Aziz kinoga borishadi.

Ular kechgacha ishlashdi.

Nozima va Malika o'qituvchidan ruxsat so'rashdi.

Otam bilan onam Moskvaga ketishdi.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli fe'llarni qo'yib ko'chiring.

1. Kecha Lola va Aziz aeroportga
2. Nigora bilan o'qituvchimiz sport klubigava yo'l-yo'lakay do'koniga ham.....
3. Buvam bilan buvum har doim xiyobonda sayr.....
4. Yozda talabalar dam olish uchun toqqa
5. Ertaga talabalar o'z ustozlarini tabriklagani
6. Biz bugun ertalabdan beri, lekin bir qarorga kelganimiz yo'q.

3-mashq. Hamsuhbatlaringizdan ular kim bilan uchrashganlari, yaqinda tanishganlari, raqsga tushganlari, dam olishga borganlari, gaplashganlari, sayr qilganlari haqida so'rab biling. Bu ma'lumotlarni fe'llining birgalik nisbatiga qo'yib aytib bering.

4-mashq. Fe'llardan birgalik nisbatini yasang.

Bajarmoq, yozmoq, qaramoq, o'qimoq, qurmoq, kelmoq, ko'rib chiqmoq, javob bermoq, o'ynab kelmoq, ashula aytmoq, dars tayyorlamoq.

Bajaruvchinig o'ziga yo'naltirilgan harakatni ifodaish

<i>U tarandi.</i>	<i>Onasi zavqlandi.</i>
<i>Malika yasandi.</i>	<i>Yo'lbars kerishdi.</i>
<i>Bola kiyindi.</i>	<i>Saida maqtandi.</i>
<i>10-raqamli yiqildi.</i>	<i>Buvusi o'tnidan qo'zg'aldi.</i>

5-mashq. Qavs ichidagi fe'llarni o'zlik nisbatiga qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Nargiza (yuvmoq), ertalabki mashqlarni bajarishni boshladi.
2. Singlim Sharofat bugun yaxshi (kiymoq), chunki u mehmonga ketmoqchi.
3. U kam har kuni ertalab ho'l sochiq bilan (artmoq).
4. U (yuvinmoq), (taranimoq), chiroyli (kiyinmoq), chunki bugun u teatrga boradi.
5. Dugonamning yutug'idan men juda (quvonmoq).
6. Toqqa dam olishga ketayotganimizda hammaniz qalin (kiyinmoq).

6-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Утром Надя умывается, красиво одевается, аккуратно причесывается и идет в университет.
2. Летом в Ташкенте очень жарко, поэтому мы укрываемся лёгкими одеялами.
3. Лена всё время хвастается.
4. Бабушка встала с места и направилась в сторону кухни.
5. Мадина надела пальто.
6. Зарина оделась потеплее.

7-mashq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing. Fe'llarning qaysi nisbatda ekanligini aytинг.

Gulchehra: Allo, bu Gulnorami? Assalom y alaykum.

Gulnora: Ha, bu men Gulnoraman. Siz Gulchehranisiz?

Gulchehra: Ha, menman. Kecha biznikiga kelmoqchi eding. Nima uchun kelmadning?

Gulnora: Eh, dugonajon. Kecha yuvindim, tarandim, kiyindim, lekin uydan chiqib keta olmadim. Mehmonlar kelib qolishdi.

Gulchehra: Men ham yasandim, ko'chaga chiqib kutib turdim. Onam bu ishimdan achchiqlandilar.

Gulnora: Mayli, dugona, uzr. Ertaga, albatta, boraman.

Gulchehra: Mayli, onam bilan birga kutamiz.

Bajaruvchisi noaniq harakatni ifodalash.

Kitob tarqatildi.	Javob aytildi.
Mevalar idishga solindi.	Ishlar qilindi.
Xat o'qib chiqildi.	Ertaga ketiladi.
Qaytishga ruxsat so'raldi.	Hovli tozalandi.

Qiyoslang:

Sub'ekt aniq:

Salim kitobni o'qidi.
Nozimalar ertaga ketishadi.
Shavkat chapga yursin.
Go'zal kiyindi.
Ukam yiqildi.

Sub'ekt noma'lum:

Kitob o'qildi.
Ertaga ketiladi.
Chap tomonga yuriladi.
Kiyimlar tikildi.
Ko'p ishlar qilindi.

8-mashq. Quyidagi fe'llarni majhul nisbatda yozing va rus tiliga tarjima qiling.

Qurmoq, to'kmoq, o'qimoq, o'rgatmoq, tuzmoq, aymoq, bajarmoq, ulamoq, mukofotlamoq.

9— mashq. Namunaga qarab davom ettiring

Namuna: A'llochi talabalar mukofotlardi

1. Universitet binosi juda chiroyli
2. Faol o'qituvchilar sovg'alar bilan
3. Bugun xotin-qizlar yig'ilishi
4. Muhtojlarga moddiy yordam
5. Ertaga darsda yangi mavzu
6. Bu xat kim tomonidan noma'lum.

O'zgalarga bajartirilgan harakatni ifodalash

U ukasiga choy ichirdi.	O'ziga sovg'a oldirtirdi.
Singlisini uxlatdi.	Ukasini yurg'izdi.
Keliniga somsa pishirtirdi.	Maktabga ketkazdi.
	Ko'ylagini yuvdirtirdi.

10-mashq. Ushbu fe'lllar ishtirokida gaplar tuzing.

Yedirmoq, yozdirmoq, kuldirmoq, sevintirmoq, singdirmoq, sindirmoq, uyaltirmoq, bildirmoq, oldirmoq, ishlatmoq, ichirmoq, yig'latmoq, ketkazmoq, chiqazmoq, yurgazmoq, qurdirmoq.

11-mashq. So'z va so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qilinq, jaftaringizga yozing.

Приводить в движение, заставить надеть, заставить скучать, выпроводить, заставить лечь спать, усиливать, принудить, сделать работу, заставить заплакать (прочитать, смеяться, громко хлопать).

12-mashq. Jadvalni xat taxtaga chizing va navbat bilan to`ldiring.

<i>Fe'llar</i>	<i>Aniq nisbat</i>	<i>Birgalik</i>	<i>O'zlik</i>	<i>Majhul</i>	<i>Orttirma</i>
Kelmoq	keldi	kelishdi	-	kelindi	keltirdi
O'qimoq					
Kulmoq					
Ketmoq					
Salom bermoq					
So`zlamoq					
Sevinmoq					
Yurmoq					

Eslab qoling!

Nutq jarayonidan oldindi harakat va holatni ifodalash

Qiyoslang:

Yaqin o'tgan zamон fe'li

Uzoq o'tgan zamон fe'li

Alisher bilan yaqinda tanishganman Bu kitobni o'tgan yili o'qigan edim

13-mashq. Quyidagi gaplarga zarur qo'shimchalarni qo'ying va rus tiliga tarjima qiling.

1.Biz ilgari Toshkent shahrida tur... . 2.Ular dam olish kuni toqqa chiqish... 3. Men Alisher Navoiyning bir qancha hikmatli so'zlarini yodlab olgan... . 4. Onam hali ham bu kinoni ko'r... . 5. San'at saroyi qo'shiq muxlislari bilan to'l... edi . 6.Kecha uyingizga mehmonlar kelish... ekan.

14- mashq. Quyidagi fe'llardan uzoq o'tgan zamон shaklini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bajarmoq, boshlamoq, o'qimoq, ishlamoq, kelmoq, olmoq, bermoq, ko'tmoq, yemoq, tashlamoq.

15-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, fe'llarning zamон shaklini aytib bering.

1. Твоего брата вчера избрали председателем профкома. 2. Узбекистан достиг больших успехов. 3. Ошибки студентов были исправлены своевременно. 4. Оказывается, сегодня студенты нашей

группы смотрели в кабинете узбекского языка художественный фильм «Тахир и Зухра». 5. Говорят, брат Азиза в прошлом году съездил в Америку.

16-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Как был добыт радий

Явление радиоактивности было открыто в 1896 году французским физиком А. Беккерелем, когда он исследовал соли урана.

Радий впервые был получен Пьером и Марией Кюри. Учеными была выдвинута смелая гипотеза: в природе есть, кроме урана, другое радиоактивное вещество. Надо было добывать хотя бы грамм радия, чтобы гипотеза была доказана. Нужна была лаборатория. С трудом было получено помещение для лаборатории. Это был старый сарай. В сарае не было пола. Через дыры в крыше свободно проникал дождь и снег, дул ветер. Ученые проводили целые дни в своей лаборатории. Это был изнурительный труд. Мария сама мешала ковшом в кotle кипящую массу урановой руды, пока Пьер читал лекции в университете и проводил со студентами практические занятия. За это платили 500 франков в год. На эти деньги ученые жили.

Только через 40 месяцев был добыт ими 1 дециграмм чистого радия. Был определен его атомный вес – 225. Радий получил права гражданства.

I.Rasmiy ish qog'ozlarining natiunalari

Institutning to'rtburchak muhri

Vazirlik va institut nomi

Ma'lumotnoma raqami va

berilgan sanasi

№ 90 2000-y. 22. 01

Ma'lumotnoma

Ravshan Olimovich Valiyev O'zMU kimyo fakultetining 1-kursida o'qiydi. Ma'lumotnoma kutubxonaga ko'rsatish uchun berildi.

Kadrlar bo'limining boshlig'i
(muhr)

(imzo) H. Rahimova

2. O'zbek xalq maqollarini yod oling, o'z ona tilingizdagি muqobi- lini toping

Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq.

Avval o'yla, keyin so'yla.

Avval yo'ldosh, keyin yo'l

Avval iqtisod, keyin siyosat

17-mashq. a) matnni o'qing, uni rus tiliga tarjima qiling.

Fun-texnika inqilobi va muammolar

Atom elektr stansiyalari va tajriba reaktorlarida hosil bo'lgan radioaktiv chiqindilarni ko'mish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ular tarkibidagi ba'zi bir izotoplar bir necha 10000 yil davomida ham xavfli bo'lib qolaveradi. Karlsruhe(Germaniya)dagи yadro tadqiqot markazining tavsiyasiga ko'ra, radioaktiv chiqindilar keramik xom ashyolar – kaolin, bentonit, korundga suv qo'shib aralashtiriladi va silindrsimon «tabletka» shakliga keltiriladi, so'ng 1300 daraja issiqlikda kuydiriladi. KAB 78 nomini olgan yangi bu keramika chiqindilarni shishaga qaraganda 3 marotaba ko'proq yutar ekan. Yangi material nihoyatda mustahkam bo'lib, radioaktiv nur uni 1000 yil davomida ham yemirolmaydi.

b) sizningcha, FTI yana nimalar berishi mumkin?

d) javoblaringizni yozing.

*Umumiy mavzu: Salomatlik-tuman boylik
Nutqiy mavzu: Sog`lom turmush tarzi*

I – mashq. Matnni o`qing. Tayanch so`z va so`z birikmalarini eslab qolning: sevimli qo`shtiq, giyohvandlikning zarari, iste`mol qilish, maqsadsiz yashash, yoshlarning madhiyasi, sog`lom turmush tarzi, xunuk ogibatlari, poydevor qo`yadigan, nasl tozaligi, pok hayot.

Sog`lom turmush tarzini targ`ib qiluvchi qo`shtiq

Bugungi kundagi yoshlarning sevimli qo`shtiqlaridan biri “Setora” guruhining “Qora” nomli qo`shig`i hisoblanadi. Bu qo`shtiq mazkur guruhning 2000- yilgi albomiga kiritilgan.

Qo`shtiq, asosan, giyohvandlikning zarari haqidadir. Qo`shtiq matnida ko`plab yoshlar giyohvand moddalar iste`mol qilish orqali giyohfurushlar qo`lida qo`g`irchoqqa aylanib, o`zlarini tiriklayin yoqishlari haqida so`z boradi. Qo`shtiqda shunday so`zlar bor:

«Ayt, yuragingda orzular bormi,
Maqsadsiz yashash ne kerak deb o`yladingmi,
Bu qorani deb do`stdan ayrilding, yordan ayrilding.
Qora, qora, o`z hayoting o`zing etding qora
O`tmishing qora, qoradir qora.
Bo`lar eding balki sen buyuk bir inson
O`z hayoting o`zing etding vayron».

Qo`shtiq shularga o`xshash giyohvandlikning halokatli ta`siri haqidagi satrlardan iborat. Qo`shtiqni tinglab, undagi so`zlarning mag`zini chaqqan har bir odam o`z hayoti haqida o`ylanib qolishi tabiiy. «Setora» guruhining «Qora» nomli qo`shig`i giyohvandlikka qarshi bo`lgan yoshlarning madhiyasi bo`lib jaranglamoqda.

Umuman, bugungi kundagi har bir odam giyohvandlar qo`lida qo`g`irchoq bolib qolishdan o`zini asrashi lozim. Sog`lom turmush tarziga rioya qilish, ya`ni spiritli ichimliklarni ichmaslik, chekmaslik, narkotik moddalarini iste`mol qilmaslik, pok turmush kechirish bu o`zini ham, bo`lajak avlodlarini ham turli kasallikkardan, xunuk ogibatlardan saqlash demakdir. Aziz talaba! Siz hozir ayni balog`at yoshidasiz. Siz aynan shu bugun kelajak avlodningiz uchun poydevor qo`yadigan palladasiz. Bo`lajak farzandlariningiz, nabiralariningiz taqdirlari sizning qo`lingizda, chunki ularning sog`lig`i, nasl tozaligi siz qaysi yo`lni tanlashingizga bog`liqdir. Shuning uchun siz sog`lom turmush tarzini, pok va rostgo`y hayotni tanlang, toki bugungi qilgan qora ishlaringiz tufayli necha-necha avlodning uvoliga

olmang! Zero «keyingi pushaymon – o'zingga dushman» maqolini yodan chiqarmang.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1.Matnni qayta o'qing.

2.Matndan quyidagi so'z va so'z birikmalarining o'zbek tilidagi muobilini toping:

*смертельные последствия наркотика
сумн молодежи
стать игрушкой на руках наркодельцов
здоровый образ жизни
не курение
здоровая и честная жизнь.*

3.Matnni rus tiliga tarjima qiling.

4.Matnning mazmunini tayanch so'z va so'z birikmalariga tayangan holda gapirib bering.

5.“Sog'lom turmush tarzi” deganda nimalarni tushunasiz? O'z fikringizni bayon qiling.

6.So'z va so'z birikmalarini to'g'ri tartibda joylashtiring.

*sevimli qo'shig'i yoshlarning "Qora"
qilish iste'mol moddalar giyohvand
o'z o'yplashi hayoti hayida
javanglamoqda madhiyasi yoshlarning
ichmaslik, chekmaslik, kechirish pok hayot tarzi turmush sog'lom.*

7.Nashr qilinayotgan gazeta, jurnallardan sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi maqolalarni topib o'qing.

8.»Keyingi pushaymon – o'zingga dushman» maqolining mazmunini sharhlab yozing.

9.Matndagi fe'llarni noaniq shaklda yozib chiqing. Masalan, kiritilgan – kiritmoq (kiritish).

Eslab qoling!

Harakat va holatning davomiyligini ifodalash

Men kelaman.	Men ishlayman.
Sen kelasan.	Sen ishlaysan.
U keladi.	U ishlaydi.

2-mashq. Quyidagi fe'llardan hozirgi-kelasi zamon fe'l shaklini yasang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'zlashtirmoq, o'rganmoq, boshlamoq, so'zlamoq, bormoq, ishlamoq, javob bermoq.

3-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling, fe'lning zamon qo'shimchalari tagiga chizing.

1. После летней сессии вы поедете отдыхать в Чимган. 2. В июне у нас начинается летняя сессия. 3. Студенты 2-курса будут сдавать экзамен по узбекскому языку. 4. Мой отец работает хирургом в сельской больнице. 5. Где ты будешь работать, когда окончишь университет? 6. Мы любим свою Родину Узбекистан.

Nutq jarayonidagi harakat va holatni ifodalash

Men o'qiyapman.	olmoqdaman
Sen o'qiyapsan.	olmoqdasan
U o'qiyapti.	olmoqda
Biz o'qiyapmiz.	olmoqdamiz
Siz o'qiyapsiz.	olmoqdasiz
Ular o'qiyaptilar.	olmoqda

4-mashq. Quyidagi fe'llarni hozirgi zamon davom fe'lining barcha shakllarida qo'llab, I, II, III shaxs birlik va ko`plikda tuslab o'qing.

O'rganimoq, o'yamoq, yayramoq, topshirmoq, bajarmoq, yashamoq, so'zlamoq, yozmoq.

5-mashq. Qavs ichidagi fe'llarni hozirgi zamon davom fe'l shakllarida qo'llab yozing, gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men shifokorni kutib (o'tirmoq). 2. Bu ikki do'st doim bir biriga yordam berib (turmoq). 3. Akam hali ham shaxmat to'garagiga qatnashib (yurmoq). 4. Malika bog'da dars tayyorlab (o'tirmoq). 5. «Bahor» raqs dastasining qizlari hisobot konsertiga tayyor bo'lib (turmoq).

Bajarilishi maqsad qilingan harakatni ifodalash

<i>Bo'lishli shakli:</i>	<i>Bo'lishsiz shakli:</i>
Men olmoqchiman.	Men bermoqchi emasman.
Sen olmoqchisan.	Sen bermoqchi emassan.
U olmoqchi.	U bermoqchi emas.
Biz olmoqchimiz.	Biz bermoqchi emasmiz.
Siz olmoqchisiz.	Siz bermoqchi emassiz.
Ular olmoqchilar.	Ular bermoqchi emas.

6-mashq. Nuqtalar o'rniga o'ng tomonda berilgan fe'llarni kelasi zamon maqsad fe'li shaklida yozing va tarjima qiling.

1. Men bir oydan keyin chet elga	ketmoq
2. Sen shu daftarni sotib ...?	olmoq
3. Do'stim bilan darsdan keyin kinoga ...	bormoq
4. Men o'zbek tilini juda puxta	o'rganimoq
5. Bu yil opam universitetga o'qishga	kirmoq
6. Ertaga o'gituvchimizning yoniga	jo'namoq
7. U ertaga mening kitobimni uyiga olib....	ketmoq
8. Ular nega bu to'garakka a'zo	bo'lmoq

7-mashq. Guruhdoshlaringizdan so'rang, ular va ularning do'stlari bugun kechqurun, ertaga, indinga qanday ish bilan shug'ullanmoqchilar.

O'zingiz ham yaqin kunlarda nima qilishingizni aytинг. Barcha javoblarni daftaringizga yozing.

8-mashq. Diafoglarni rollarga bo'lib o'qing. Ular namunasida «Mening kelajakdag'i oilam» mavzusida suhbat tuzing.

- Siz shanba kuni toqqa chiqasizmi ?
- Ha, chiqmoqchiman.
- Direktoringiz sizga qachon qo'ng'iroq qiladi ?
- U soat to`rtborda qo'ng'iroq qilmoxchi .
- Ular kelasi haftada qayerga ketishmoqchi ?
- Ular kelasi haftada Chimyonga ketishmoqchi.
- Bu yil yozda dengizga dam olishga ketmoqchimisiz ?
- Yo'q, biz bu yil hech qayerga bormoqchi emasniz.

Bajarilishi noaniq harakatni ifodalash

Bo'lishli shakli:

Men balki kelarman.
Sen balki o'qirsan.
U balki borat.
Biz kelarmi.
Siz o'qirsiz
Ular borarlar.

Bo'lishsiz shakli:

Men kelmasman.
Sen o'qimassan.
U bormas.
Biz kelmasmiz.
Siz o'qimassiz.
Ular bormastar.

9-mashq. Quyidagi fe'llarni kelasi zamon guman fe'li shaklida qo'llab gaplar tuzing. Utarni rus tiliga tarjima qiling.

Nununa: Laylo, men ertaga darsdan keyin siznikiga borarman.

Kirmoq, tozalamoq, saylamoq, yozib olmoq, o'rganimoq, tushunmoq, nukosotlamoq, chizmoq.

10-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling, zamon qo'shimchalarining tagiga chizing.

1.Возможно, я завтра поеду за город. 2.Возможно, за 3 дня ты прочитаешь эту книгу ? 3.Очевидно, она об этом ребёнке ничего не знала. 4.Вероятно, завтра они купят это платье. 5.Наверное, Азиза и Нафиса сегодня уже не придут

11-mashq. Jadvalni xat taxtaga chizib, navbat bilan to'ldiring.

Fe'llar	Yaqin o'tgan zamon	Uzoq o'tgan zamon	Hozirgi-kelasi zamon	Hozirgi zamon davom	Kelasi zamon maqsad	Kelasi zamon guman
Astaroq						
Ajrashtmoq						
Bermoq						
O'qinoq						
O'rganmoq						
Kelmoq						
Ketmoq						
Yurmoq						
Yugurneoq						
Yozmoq						
Tushmoq						

Harakat va helatni nomlash

<i>Yurmoq</i> – yurish	<i>Yodlash</i> zarur.
<i>Yozmoq</i> – yozish	<i>Chiqish</i> mumkin.
<i>Bermoq</i> – berish	<i>Kirish</i> mumkin emas.
<i>So'zlamoq</i> – so'zlash	<i>O'qish</i> kerak.
<i>Uxlamoq</i> – uxlash	<i>So'zlamoq</i> zarur.

12-mashq. Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

Aytish lozim, chora topish, gapirish mumkin, tushuntirish uchun, maslahatlashish uchun, bajarish kerak, qolish mumkin emas, a'lo bahoga o'qish uchun, kelishim zarur, olishing mumkin emas.

13-mashq. «**Talaba qanday bo'lishi lozim**» mavzusida kichik suhbat tuzing. Undagi kesimlarning ko'pchiligi harakat nomi shaklida bo'lsin.

14-mashq. Ushbu se'l negizlaridan harakat nomlarini yasang.

ol, so'zla, tingla, quvon, bajar, ishla, o'qi, boshla, yoz, yur, yugur, chiz, tik, art, sur.

15-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. U haqida o'z fikringizni aytинг.

Что влияет на здоровье людей?

Абул Баракат Кадырий ибн Мухаммад Насруллах (15 век) в своей книге «Качкули Султания» («Книга сultanов») пишет : Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей :

- употребление спиртных напитков, курение;
- не осторожные отношения с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- черезчур много кушать, есть левой рукой есть слишком горячую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой ;
- оставлять открытым посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом ;

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, дышится приятными духами, часто купаться ;
- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;
- также нужно быть приветливым, с открытой душой, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

1.Rasmiy ish qog'ozlarining natunalari

Tarjimai hol

Men, Sattorova Bahora, 1980-yilda Samarqand shahrida tug'ilganman. 1987-1997-yillarda Samarqanddagi 17-o'rta məktabda o'qidim. 1997-yilning sentabr oyidan boshlab O'zMUning jurnalistika fakultetida tahsil olib kelmoqdaman, ya'ni hozir 2-kurs talabasiman.

Olamiz uch kishidan iborat.

Otam Sattorov Baxtiyor - arxitektor.

Onam Sattorova Nargiza kutubxonada ishiaydilar.

Mening turar joyim: 700210, Toshkent, Usmon Nosir ko'chasi, 5-uy, 27-xonadon.

Tel: 72-28-61

2000-yil 3-yanvar.

(imzo) B. Sattarova

2. Maqollarni yod oling. O'z ona tilingizdagি muqobilini toping.

Yegan og'iz uyalar.

Yerga tushgan yetimniki.

Yerdan topib olsang ham, sanab ol.

16-mashq. a) she'ning mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

Shohobiddin Abdulkarim o'g'li

So'gliqni saqlash tadbirlari

Agar bo'lsin desang sihhatim ko'p soz,
 Parhezdan kaliting bo'lsin qishu yoz.
 Xilma - xil achiqdan o'zni tut har dam,
 Qorningni to'ldirma, bo'sh qoymagin ham.
 Kam yesa gar kishi sog'liq bo'lar yor,
 Ko'p yesa sihhati ranjdan toru mor.
 Ovqatni bir paytda yegin, ey odam,
 Mol doim yegandek yemagin har dam.

Qishda yemoq kerak shundayin ovqat,
 Issiqdan tanga yetsin harorat.
 Ammo havo issiq bo'lgan zamonda,
 Sovuq ovqatlardan yegin har onda.
 Yangi non echki go'shti ye, ukam,
 Har kuni bir vaqtida na ortiq, na kam.
 Ko'p yema, parhez qil doim ovqatdan,
 Ko'p yegan ko'p yeydi zarba zahmatdan.
 Aytgan narsalarga qilsang sen amal,
 Badaning salomat bo'lar har mahal!

- b) sog'liqni saqlash uchun nimalar qilish zarur deb hisoblaysiz?
 d) shu haqida o'z fikringizni yozing.

Umumiy mavzu: Salomatlik - tuman boylik

Nutqiy mavzu: Sport - salomatlilik garovi

1-mashq. Matnni o'qing, tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: *sport inshootlari, sport majmuasi, jahon andozalari, xalqaro sport musobaqalari, xalq salomatligi, sog'lom, barkamol bo'lishi, jismoniy mashqlar, so'g'tanda sog'lom aql, jismonan sog'lom*.

2-mashq. Matndagi fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllariga e'tibor bering.

«Jar» sport majmuasida

Bugun yakshanba, shuning uchun biz do'starimiz bilan Toshkent-dagi eng yirik sport inshootlaridan biri «Jar» majmuasiga borishga qaror qildik. Ushbu sport majmuasi shaharning qoq markazida – «Chorsu» mehmonxononasining yonida, ya'ni Chorsu bozoriga yaqin joyda joylashgan. Bu majmua juda salobatli va ko'rakm qilib qurilgan, u jahon andozalari talablariga to'ha javob beradigan darajada buniyod etilgandir.

«Jar» sport majmuasida sportning deyarli barcha turlari bilan shug'ullanish imkonи bor. Bu yerda futbol, voleybol, qo'l to'pi, basketbol, o'zbek kurashi, shuningdek kurashning boshqa turlari, karate, qilichbozlik, suzish, trampplindan suvga sakrash, yengil atletikaning barcha turlari, badiiy gimnastika, shaxmat, shashka, aerobika, boks, tennis kabi sport turlari bo'yicha to'garaklar ishtab turibdi. «Jar» sport majmuasida nufuzli xalqaro sport musobaqalari, turli tadbirlar o'tkazilib turadi. Ushbu majmua O'zbekiston hukumatining xalq salomatligi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom, barkamol bo'lishi yo'lida ko'rsatayotgan jonbozligi, jonkuyarfigi namunasidir. Bu yerga kuniga yuzlab, minglab odamlar tashrif buyuradilar, o'zлari istagan sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarda qatnashib salomatligini mustahkamlashadi. «Jar» sport majmuasida nomdor sportchilar bilan bir qatorda oddiy ishchi, xizmatchilar ham jismoniy mashqlar qiladilar.

Umuman, har bir inson salomatligini saqlashda, sog'lom turmush tarziga amal qilishda, albatta sport bilan shug'ullanmog'i zarur. Buning uchun «Jar» kabi hashamatli sport saroylariga borishga harakat qilish kerak, ammo bunga imkon topa olmaydiganlar ham bor. Bunday insonlar o'z uylarida imkonи boricha ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi lozim bo'ladi, axir ertalabki yugurishning o'zi sog'liq uchun qanchalik foydaligi fonda isbotlangan-ku! O'zbek xalqida «sog' tanda

sog`lom aql» degan ibora bor. Darhaqiqat, faqat jismonan sog`lom in-songina teran fikrlar aytishi, fan-texnika sohasida buyuk kashfiyotlar qilishi, madaniyat va san`at sohasida ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. Shunday ekan, shu bugundan boshlab sport bilan yaqin do`sit bo`laylik, zero inson salomatligi o`z qo`lidadir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni yana bir marta o`qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn bo`yicha savollar tuzing.
4. Matnning mazmunini tayanch so`z va so`z birikmalariga asoslangan holda gapirib bering.
5. Quyidagi savollarga javob bering:
 - a) siz sportning qaysi turi bilan shug`ullanasisiz, qaysi turiga qiziqasiz?
 - b) siz qaysi futbol jamoasining muxlisisiz, u oxirgi paytda qanday o`yinlar o`tkazdi, nechtasida yutdi, qanchasida yutqazdi?
 - c) 20-asrning mashhur sportchilaridan kimlarni bitasiz?
 - d) universitetdagi jismoniy tarbiya darslari qiziqarli o`tadimi? Ular sifatini yaxshilash uchun nimalar qilish kerak deb hisoblaysiz?
6. O`zingiz bilgan sport turlarining nomini o`zbekcha yozib chiqing. Ularning qaysi biri baynalmlat so`zlar ekanligiga, qaysi biri o`zbekcha atalishiga diqqat qiling.
7. «Sport mening hayotimda» mavzusida insho yozing. Undagi kesimlarni harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shaklida qo`llashga harakat qiling.

Shaxs yoki predmetni harakat va holat belgisiga ko`ra ifodalash

Bo`lishli shakli:	Bo`lisisiz shakli:
O`qigan qiz.	O`qimagan qiz.
Turgan bola.	Kelmaygan o`quvchi.
Yozadigan kishi.	Yozmaydigan ruchka.
Uxlayotgan bola.	Raqs tushmaydigan qiz.
Ishlayotgan ishchi.	O`qimaydiganlar ketsin.
Kuzatuvchi ona.	Kuzalmaydiganlar qoisiin.

Eslab qoling!

- | | |
|------------------------------|---------------------------------------|
| O`qigan bola.
(sifatdosh) | Bola o`qigan.
(O`tgan zamон fe`li) |
|------------------------------|---------------------------------------|

Qiyostlang!

O'tgan zamon sifatdoshi:

tamomlagan talaba
yozilgan kitob
o'qigan bola

Hozirgi zamon sifatdoshi:

tamomlayotgan talaba
yozilayotgan kitob
o'qiyotgan bola

Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi:

ishlaydigan odam
ketadigan yigit
biladigan qiz

Kelasi zamon sifatdoshi:

ishlar
o'qir
kelar

3-mashq. Namunaga qarab davom ettiring.

Kecha

Uydan kelgan qiz.

Kitob o'qigan bola

Telefonda gaplashgan ayol

Xat yozgan tashkilot.....

Ko'rgazmani ochgan yigit.....

Shu yerda o'tirgan kishi.....

O'sha joyda ishlagan qiz.....

Meni yaxshi ko'rgan bola.....

Shu ish bilan shug'ullanган олим

Hozir

Uydan kelayotgan qiz.

4-mashq. Nuqtalar o'rniga o'ng tomondagi fe'llardan zarurini tanlab, sifatdosh shaklida kerakli shaxs va zamonda qo'yib chiqing.

1. Turli mamlakatlardan mehmonlar (kelmoq).
2. Tijorat bankidan yordam firma (olmoq).
3. Kecha Moskvada ukam keldi. (o'qimoq)
4. Kechaayol mening onam bo'ladilar.(kelmoq)
5.suv, oqmay qolmas. (oqmoq)
6. Eshikni bola ichkariga kirdi (ochmoq)
7. Men ertaga akamga xatbo'ldim (yozmoq)
8. Ertaga ertalab soat 4 da bo'ldim (turmoq).

5-mashq. Ketayotgan, maslahat (yordam, ruxsat) olayotgan, ishlayotgan, yozayotgan so'zlaridan foydalanib, biror shaxsni hamda dumalab yotgan, turgan, ochilib qolgan, sifatdoshlari yordamida biron predmetlarni tavsiflab yozing.

6-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я видел предпринимателей, уезжающих заграницу. 2. Студентка, которая занимается в читальном зале, завтра будет делать научный доклад. 3. Здесь собирались банкиры, управляющие банками Узбекистана. 4. Мой друг, хорошо знающий узбекский язык, помог мне перевести этот текст. 5. Пришла преподавательница, принимавшая вступительные экзамены. 6. Появившая на сцене песню красивая девушка - моя сестра.

Eslab qoling!

Sifatdoshlarning otlashishi

Qiyoslang:

O'qiydigan bola.

aniqlovchi

O'tirgan qiz.

aniqlovchi

O'qiydiganlar qolsin.

ega

O'tirganlar o'rinalaridan turishsin.

ega

Harakatning bajarish tarzini ifodalash

Bo`lishli shakli:

Shoshib ketmoq.

Pichirlab gapirmoq.

O`ylab javob bermoq.

Yozib olmoq.

Yura-yura charchamoq.

O'qiy-o'qiy yod olmoq.

Bo`lissiz shakli:

Shoshmay ketdi.

Pichirlamasdan gapirdi.

O`ylamasdan javob berdi.

Yozmay ketdi.

Yurmasdan charchadi.

O'qimasdan institutga ketdi.

7-mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'ying. Ular gapda qanday ma'no ifodalaganini aytib bering. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Quyosh charaqla.. chiqdi. 2. Nazira xonadan yugur.. chiq.. ketdi. 3. Salima indama.. bosh chayqadi. 4. Hakimjon so'qmoqlarda yur... bei oyog'ida oyoq qolmadı. 5. Mehmon kul..-kul.. bo'lgan voqeani gapiri berdi. 6. O'ktam dadasini qidir..-qidir.. qo'shninikidan topdi. 7. Nazire titra..-qaqsha... o'midan turdi. 8. Ey, sen, mahmadona, bir pas bidirla tur!

8-mashq. Quyidagi ravishdoshlardan foydalananib gaplar tuzing.

O'ynab, so'zlay, uxtlamay, to`ldirib, kuldirib, ko`rsatib, yura-yu ko`ra-ko`ra, ishlay-ishlay, ishlab, gapirib, sanab, bajara, kurashib, o'qib, boshlamay, aytib.

9-mashq. «Sport musobaqasida» mavzusida suhbat tuzing, unda imkonи boricha ravishdoshlarni ko'proq qo'llang.

10-mashq. O'zbek xalq maqollarini daftaringizga ko'chirib oling. Ullardagi ravishdosh va sifatdoshlarning tagiga chizing.

Bilmaganni so'rab o'rgangan - olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Oz-oz o'r ganib dено bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Botirdan yov qochib qutulmas.

Qo'rkoq oldin musht ko'tarar.

Erta ekkan erta o'radi.

Ko'p yurgandan so'rama, ko'p bilgandan so'ra.

Eslab qoling!

Vaqtni chegaralashda -guncha (-kuncha, -quncha) qo'shimchali ravishdoshlardan foydalaniлади.

Men ukam maktabdan **kelguncha** ovqat qilib qo'yaman. U Toshkentdan **ketguncha** biznikiga kelmadi.

Harakatning maqsadini ifodalash uchun -gani (-kani, -qani) qo'shimchalar yordamida hosil qilingan ravishdoshlar ishlataladi.

Biz Chimyonga dam olgani keldik.

11-mashq. Latifalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Как я победил чемпиона

— Ты знаешь, я летом играл в шахматы и в теннис. Так хорошо играл, что победил чемпиона-шахматиста и чемпиона -теннисиста.

— А как ты это сделал?

— Я победил чемпиона - теннисиста. Когда с ним играл в шахматы. А чемпиона - шахматиста победил, когда с ним играл в теннис.

Я пойду в бассейн

Мать говорит сыну:

— У тебя болит живот. Не ходи сегодня в бассейн.

— Не волнуйся, мама, буду плевать на спине, отвечает сын.

Идти или ходить

— Не знаю, что мне делать. Один врач говорит: «Вам нужно больше ходить». А другой: «Вам нужно ехать на курорт». Что мне делать?

Идти на курорт пешком!

12-mashq. Jadvalni xat taxtaga chizing. Uni navbat bilan to'ldiring.

Fe'llar	Harakat nomi shaklida	Sifatdosh shaklida	Ravishdosh shaklida
Aytmoq			
Arazlamoq			
Bormoq			
Bermoq			
Yemoq			
Ekmoq			
Foydalan- moq			
Kelmoq			

13-mashq. Fe'lning kategoriyal va funksional shakllarining har biriga 2 tadan misol keltiring. Javoblarizingizni yozing.

14-mashq. a) hikmatli so'zlar bitilgan she'rlarni o'qing.

Barcha dunyo ne'mati sog'liqqa teng kelolmas

Davlat asosi – sihhat matosi. Eng yaxshi ,eng muhim ne'mat tandurustlik va eng katta boylik salomatlilikdir.

Xalq ichida mo'tabar hech narsa yo'q davlat kabi,

Bo'lmagay davlat jahonda bir nafas sihhat kabi.

Sog'liq kabi aslo hech davlat bo'lmas,

Zaiflik, sustlikdek zo'r malomat bo'lmas

(Badriddin Hiloliy)

Davolanishdan qochish – o'limga yo'l ochish

Tandurust bo'lay desang, hikmat uyiga bo'l ravon ,

Har xil illatdan qorong'i bo'lmagay senga jahon.

Sog'lom tanda sog'lom aqlu huq fikr,

Kasalmandda qaydan bo'lsin bu xislat.

(Afsar Sabzavoriy)

Tani sog`liq - tuman boylik

Jumla dunyo ne'mati sog`liqqa teng kelolmas,
Buni so`ra bemordan, isbotlanas bir onda.
Hayotingda yuz bersa nodurustlik bitor ish,
Durust bo`ldimi, demak dil og`ritma jahonda.

(Abdulmajid Sanoiy)

- b) she'ning mazmunini rus tiliga tarjima qiling;
- d) sog`liq haqida bilgan maqollariningizni yozing.

21-Dars

Umumiy mavzu: Salomatlik- tuman boylik Nutqiy mavzu: Sayohat. Dam olish

1-mashq. Matnni o'qing, tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: *Buyuk ipak yo'lli, karvon yo'llari, Markaziy Osiyo, shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog'lar, cho'llar, jahon bozori.*

2-mashq. Matnni o'qish jarayonida ravishlarga e'tibor bering.

Buyuk Ipak yo'l bo'ylab sayohat

Buxoro, Xiva, Samarcand, Toshkent, Farg'ona vohasi, Qarshi cho'llari qadimiy Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy manzillardir. Arxeologlarning ta'kidlashicha, uning tarixi eramizgacha bo'lgan II asrga borib taqaladi. Karvon yo'llari Markaziy Osyoning ikki daryosi – Amudaryo va Sirdaryo yoqalab Qizilqum hamda Qoraqum qumloqlari bilan borib, Tyan-Shan tog'dovonlari, Pomir-Oloy tizmalari osha Sharqni G'arb bilan. Yaponiyani Hindiston va Xitoy bilan, Angliya, Fransiya, Portugaliya bilan ulagan. Qadimiy o'zbek tuprog'i hududidagi necha-necha shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog'lar va cho'llar Buyuk Ipak yo'lli oralig'ida ko'priq vazifasini o'tagani madaniyatning rivojlanganidan darak beradi.

Tarixning shohidlik berishicha, Ipak yo'lli necha ming yillar mobaynida 2 qit'adagi necha-necha xalqlarning bir-biriga yaqinlashishida eng muhim rol o'ynagan. Mahsulot, bilim, texnologiya va madaniyat almashuvi aynan shu yo'l orqali sodir etilgan. Natijada davlatlar, shaharlar va madaniyat rivojlanib borgan.

Bugungi kunda Buyuk Ipak yo'liga qiziqish yanada ortib bormoqda. Buyuk Ipak yo'lli boylab turli ilmiy, sayyoqlik ekspeditsiyalari tashkil qilinmoqda. Uni qayta tiklash borasida ham turli loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu loyihalardan biri Yevropa Uyushunasi tarafidan taklif qilingan TKASEKA dasturidir. Bu dasturga asosan chegaradan o'tish soddaleshitirilishi, bojxona munosabatlari takomillashtirilishi lozim bo'ladi. Bu yangi yo'nalish Markaziy Osyodan jahon bozoriga xizmat ko'rsatuvchi dengiz bandargohlariga boriladigan eng tez va arzon yo'l bo'lib qolishiga ishonch katta. Xillas, Buyuk Ipak yo'lli bo'ylab sayohat qilish har bir insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan takomillashtuviga yordam beradi. Turli mamlakatlarga sayohat qilish va ko'nglli dam olish kishining salomatligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Matn yuzasidan topshirqlar:

1. Matnni yana bir marta o'qib chiqing.
2. Matnga asoslanib so'z va iboralarini tog'ri tartibda joylashtiring:
 a) arxeologlarning ta'killashicha, borib taqalgan (II. asrga) eramizgacha bo'lgan;
 b) ipak yo'lli 2 qit'adagi rot o'yagan muhim yaqinlashtirishda xalqlarning necha-necha nang yillar mobaynidagi;
 d) ortib bormoqda qiziqish hamada bugungi kunda Buyuk Ipak yo'lliga;
 e) TKASEKA dasturi taklif qilingan Yevropa Uyushmasi tarafidan.
3. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
4. Matn bo'yicha savollar tuzing.
5. Matning mazmunini tayanch so'z va so'z birikmalariga asoslanib gapirib bering.
6. Matndagi mawlaqtar nomini ko'chirib oling. Ularning o'zbek tilida yozilishini eslab qoling.
7. Matndan ravish so'zlarini ko'chirib yozing va tarjima qiling.
8. «Dam olish va sayohatlar qilishning inson salomatligiga ta'siri» mavzusida insho yozing.

Harakat belgisini ifodalash:

tez		Qahramonlarcha halok bo'ldi.
sekin		
yayov	yurmoq	O'zini pastkashlarcha tutdi.
ravon		U mardona kurashdi.
<i>tasodifan</i>		
birdan	uchrashmoq	Saida o'zbekcha gapirdi.
to'satdan		U pulni ko'p-ko'p ishlatdi.
Tez-tez so'zlamoq		Buvim shoshmasdan yuradilar.
Asta-sekin ketmoq		

3-mashq. Quyidagi holat ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

qo'qqisdan, bexosdan, tez (da), sekin, astoydil, bekorga, yayov, piyoda, ketma-ket, arang, darhol, zimdan.

4-mashq. Namunaga qarab savollarga javob bering.

Namuna : Malika vazifani qanday bajardi?

Ubu vazifani vijdoran bajardi.

Akang qanday so'zlaydi?

TKASEKA dasturi taklif qilingan Yevropa Uyushmasi tarafidan

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Matn bo'yicha savollar tuzing.

Matning mazmunini tayanch so'z va so'z birikmalariga asoslanib gapirib bering.

Bolalar yozuvchini qanday kutib oldilar?
 Bu matnni siz qanday o'qidingiz?
 Ular futbolni qanday o'ynayaptilar?
 Siz o'zbek estradasi yulduzlari qo'shiqlarini qanday tinglaysiz?
 Siz pulni qanday ishlatasiz?
 Siz qaysi ishni qanday qilasiz?

5-mashq. O'ng tomonda berilgan holat ravishlari bilan gaplarni to'l-diring va tarjima qiling.

- | | | |
|-----------------------------------|---------------------------------|----------------|
| 1. Zobit jangda | halok bo'ldi. | qahramonlarcha |
| 2. O'qituvchimiz mavzuni | tushuntirdi. | yaxshilab |
| 3. Zulfiya onasini ko'rgani | kelib turdi. | tez-tez |
| 4. Ular | suhbatlashib ketayotgan edilar. | shoshimasdan |
| 5. Sasha o'rtoqlari bilan | gaplashadi. | o'zbekcha |
| 6. Yoq, sen bu ishni..... | bajarmading! | to'g'ri |
| 7. Bu satrlar | yodimga tushdi. | birdan |
| 8. Men hozir, | qaytaman, kutib tur. | darrov |

Harakatning muddati va davrini ifodalash

Besh kun oldin.	Dushanbagacha xayr.
Uch kun ichida.	Hozir kelaman.
Yetinchi yanvardan beri.	Kundan-kunga chiroyli bo'lib bormoqda.
Bir haftacha qoldi.	Erta-indin kelib qolar.
Shanba kunitdan boshlab.	Har kuni keladi.
Bugun shaharga ketdi.	

6-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. Payt ravishlarining tagiga chizing.

1. Миразиз, я сейчас приду, подожди.
2. С какого времени Вы занимаетесь спортивной гимнастикой?
3. Ты, маленький проказник, до каких пор будешь продолжать мучить меня?
4. Ребята, внимание, в Самарканд уезжаем послезавтра.
5. Ой, как давно я тебя не видела, я так по тебе соскучилась, подружка.
6. Не волнуйтесь, в эту комнату я переехала временно.
7. Гадкий утенок изо дня в день превращается в роскошного белого лебедя.
8. Завтра будет лекция по дизайну современной одежды.

7-mashq. O'ng tomondagi payt ravishlarini nuqtalar o'rniغا qo'yib gaplarni ko'chiring

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
| 1. men o'zbek tilini yaxshi bilmas edim. | |
| 2. O'zbek tilini o'rgana boshladim. | ilgari, |
| 3. o'tilgan yangi mavzuni yaxshi tushundingmi? | kundan-kunga, |
| 4. Men qiyin matnlarning mazmunini aytib bera olmayman. | hozircha, |
| 5. universitet madaniyat saroyida ashula va raqs to'garagi ochilgan. | yaqindan
o'tgan yili, |
| 6. o'zbek tili to'garaginining ishlari yaxshilanmoqda. | bugun, |
| 7. Yaxshi bo'ldi. Samarcandga jo'naydigan bo'ldim. | ertaga, |
| 8. Uf, bu ishdan qutuladiganga o'xshamayman! | halo-beri |

Harakat va holatning me'yori va darajasini ifodalash

<u>Ko'p gapirmoq</u>	<u>G'oyat sevinmoq</u>
<u>Oz yurmoq</u>	<u>Asta so'zlamоq</u>
<u>Ancha qolib ketmoq</u>	<u>Bir pas jim turmoq</u>
<u>Juda charchamoq</u>	<u>To'satdan kasal bo'lmoq</u>
<u>Salgina tuzalmoq</u>	<u>Do'stona ko'rishmoq.</u>

8-mashq. So'roqlar yordamida aniqlab, holat ravishlarini birinchi ustunga, daraja – miqdor ravishlarini ikkinchi ustunga yozing.

Ko'p, tez, oz, ko'plab, asta, darrov, bir oz, mo'l, birdan, piyodu, to'la, qattiq, ancha, to'satdan, tezdan, do'stona, hotirlarcha, eskichu, arang, sal-pal, zo'rg'a, chor-nochor.

9-mashq. Nuqtalar o'rniغا daraja-miqdor ravishlarini qo'yib ko'chiring.

1. Bu eshik ... chiroyli naqshlar bilan bezatilgan ekan.
2. Bu talabalarga mening ... mehnatim singgan.
3. Rahmat, kechagidan ... tuzukman.
4. Mana shu doridan ... ichib yuring, tuzalib qolasiz.
5. Men kecha ishingga ... yetib bordim.
6. U institutda ... o'qimoqda, chunki sog'lig'ining mazasi yo'q.
7. Gulnorlar juda ... yashar edilar.
8. Menga juda ... pul kerak bo'lib qoldi.

Harakat va holatning bajarilish o`rnini ifodalash

<i>Oldinda</i> kelayotgan arava.	<i>Ichkariga</i> kiring.
<i>Yuqoriga</i> chiqayotgan kishi.	<i>Pastga</i> tushing.
<i>O`rtada</i> u xlabelotgan qiz.	<i>Chapga</i> o`ting.
<i>Uzoqdan</i> kelaman.	<i>O`ng tomondan</i> yuring.

10-mashq. Quyidagi o`rin ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

Hech qayerga, bu yerda, pastda, balandda, yuqorida, har yerda, uzoqda, yaqin joyda, hech qayerdan.

11-mashq. Quyidagi gaplarni rus tiliga yozma tarjima qiling. rus tilida o`rin ravishlarining ifodalanishiga diqqat qiling.

1. Bahorda hamma yerda gullar ochiladi.
2. Bu maqolaning muallifi shu yerda, marhamat, tanishing.
3. Bitimsiz kishi hech qayerda yutuqqa erisha olmaydi.
4. Senga bo`lgan muhabbatim tufayli bu yerga keldim.
5. Har yerda va har qachon insonga ilm kerak.
6. O`rtada ketayotgan qiz mening singlim bo`ladi.

12-mashq. Ravishlarning barcha turlariga 4 tadan misol keltiring, ularning vazifasini tushuntirib bering.

13-mashq. «Dam olish uyida» mavzusida suhbat tuzing. Suhbat tuzish jarayonida ravishlardan faol foydalaning.

14-mashq. Matnni o`zbek tiliga tarjima qiling.

Эзоп и путешественник

Однажды баснописец Эзоп встретил в поле путешественника, который спросил его, далеко ли до ближайшей деревни.

- Иди, – сказал ему Эзоп.
- Я и сам знаю, что нужно идти, но скажи мне, когда я приду туда.
- Иди, – опять сказал Эзоп.

«Наверное, это сумасшедший», – подумал путешественник и пошел дальше. Через несколько минут Эзоп крикнул ему:

- Ты будешь там через два часа.
- Почему же ты сразу не ответил на мой вопрос?

— Поэтому что я не знал, как ты ходишь, — ответил Эзоп.

Телеграмма

Один человек впервые приехал в Париж. Он взял такси и поехал в одну из гостиниц. Там он снял номер, переоделся и пошел осматривать город. По пути он зашел на почту и дал другу телеграмму, где сообщил свой парижский адрес. Целый день он гулял по Парижу и очень устал. Он решил поехать в гостиницу, но забыл её название и адрес. Тогда он зашел на телеграф и послал другу еще одну телеграмму: «Немедленно сообщи мне мой парижский адрес».

I. Rasmiy ish qog'ozlarining namunalari

Taklifnoma

Hurmatli Odiljon aka!

Sizni va xonadoningiz ahlini farzandlarimiz Nodiraxon va Sayyorjonlarning nikoh to'ylari sharafiga 2000-yil 5-sentabr kuni soat 19 da yoziладиган дастурхонимизга taklif qilamiz.

Hurmat bilan Yusupovlar oilasi.

To'xona manzili: Toshkent shahri. Qorasuv dahasi, 4-uy, 78-xonodon.

Ishonchnomma

Men, jurnalistika fakultetining 1-kurs talabasi Qodir Mirzayevich Yoqubov, kursimiz talabasi Shavkat Turobovich Hakimovga (CB-686520 raqamli pasportga ega) O'zMU kassasidan meniga tegishli 1999- yil dekabr oyi stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

2000-yil 4-yanvar (imzo) Q. M. Yoqubov

Q. M. Yoqubovning imzosini tasdiqlayman

Jurnalistika fakulteti dekanı (imzo) Q. Irnazarov

2. O'zbek xalq maqollarini yod oling. O'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

Yo zar bilan, yo zo'r bilan.

Yon qo'shnim, jon qo'shnim.

Yo changi chiqadi, yo dong'i chiqadi.

Yog' ichida yayramagan qora buyrak.

15-mashq. a) matnni o'qing.

Hakimdar nasihati

Ikki narsa borki, ular odamning yuragiga quvvat beradi. Biri – sayohat va boshqasi esa olim kishilarning suhbati. Bu narsalar esa ko'zga ziyo bag'ishlaydi va uning nurini o'tkir qiladi: chirolyi yuz, oqar suv, yam-yashil sabzavor va xushxat kitob.

Fursat g'animat, umr esa o'tkinchi, uni xush o'tkazish tadbirini qil va atrofni sayr et.

Hakimlar quyidagi 4 narsa kishining yuragini haquvvat qilishini aytganlar: dunyoni tomosha qilish, maqsadga yetish uchun kurashish, haloldan non topib yeishi, ulug' olim xizmatini qilish. Bu 8 narsa esa inson salomatligiga salomatlik qo'shadi: sog'lon tan bilan safar qilish, bahorda bog'larni sayr qilish, semiz va yuvosh otga minib chopish, ozoda kiyinib yurish, xushfe'l va chirolyi xotinga ega bo'lish, bahorda sodiq do'stlar bilan uchrashish, mo'tadil havoda olimlar suhbatidan bahramand bo'lish, qadimdan qolgan osori atiqalarni tomosha qilish.

Hikoyat

Bir kuni Anushervon Yunondan:

- Eng yaxshi hayot qanday hayot? – deb so'radi.
- Eng yaxshi hayot – salomatlik va xotirjamlikda o'tkazilgan hayot! – deb javob berdi Yunon.

b) matnlarni rus tiliga tarjima qiling;

d) matn haqida shaxsiy fikringizni yozing.

22-Dars

Umumiy mavzu: O'zbekiston shaharlari

Nutqiyl mavzu: Ona shahrim – Toshkent

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qo'ling: *O'zbekiston Respublikasining poytaxti, go'zal shaharlar, tuman, qadimiy binolar, zamонавиј, yangidan bunyod bo'lgan, dostonlik va birdamlik shahri, dunyoga mashhur, umumiyl та'lim maktablari, oliy oquv yurti*.

2-mashq. Matndagi yordamchi so'z turkumlarini aniqlang.

Ona shahrim – Toshkent

Toshkent O'zbekiston Respublikasining poytaxti, u mamlakatimizning janubi-sharqiy qismidagi eng go'zal shaharlardan biridir. U O'rta Osiyoning eng yirik sanoat – transport markazi hisoblanadi. Aholisi 2,5 milliondan ortiq, shaharda 12 ta tuman bor.

Toshkent sal kam 2500 yoshda. Uning qadimiy binolari zamonaviy binolar bilan bir qatorda shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. U Y – YIII asrlarda Shoshkent, Binkent deb atalgan. XI asrdan boshlab esa Toshkent nomini olgan.

Toshkent 1930-yilda O'zbekiston Respublikasining rasmiy poytaxti etib tayinlangan. 1966-yilning aprelidag'i kuchli zilziladan katta zarar ko'rgan Toshkent yangidan bunyod bo'lgan. 2-jahon urushi yillarda turli xalqlarga, yetim-yesirlarga non shahri sifatida tanilgan. Toshkent dostlik va birdamlik shahriga aylandi.

Toshkent bugungi kunda O'rta Osiyoning eng katta sanoat, yirik ilm-fan va yuksak madaniyat shahridir. Toshkent havo va temir yo'llari orqali AQSh, Ovro'pa, Osiyo, Sharq mamlakatlari bilan aloqa bog' lagan. Bu yerda muhim xalqaro anjumanlar, kengashlar, uchrashuvlar va sport musobaqalari o'tkaziladi. Toshkent yirik sanoat tarmoqlari bilan jahonga tanilgan. Shaharning mashinasozlik, samolyotsozlik, elektronika, to'qimachilik, zargarlik, chinni mahsulotlari ishlab eniqaruvchi zavod va fabrikalari dun-yoga mashhurdir. Toshkentda 450 dan ortiq umumiylar ta'lim maktablari, 50 ga yaqin hunar-texnika o'quv yurtlari, 28 ta oliy o'quv yurti ishlab turibdi. Toshkentliklar mustaqillik yillarda barpo etilgan inshootlar – Turkiston san'at saroyi, Xotira maydoni, Shahidlar xotirasiga atab qurilgan yodgorlik, «InterKontinental», «Sheraton» mehmonxonalar kabi katta-katta qurilishlar bilan juda faxrlanadilar. Toshkent kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. 21-asrda uning xusniga xusn, qudratiga qudrat qoshilishiga shubha yo'q.. Men o'z ona shahrim Toshkentni sevaman va uning ravnaqi yo'lida bor kuchim, bilimimni sarf qilishga tayyorman!

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni yana bir marta oqib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn bo'yicha savollar tuzing.
4. Matn mazmunini tayanch so'z va so'z birikmalariga asoslangan holda gapirib bering.

- O'z ona shahringiz uchun nimalar qilishni istaysiz? Shu haqda gapirib bering.
- Matndagi barcha ko'makchi, bog'lovchilarini topib, daftaringizga ko'chiring, nima vazifani bajargaunini aytib bering.
- Matnga asoslanib «Men tug'ulib o'sgan shahar (qishloq) yoki «Men nima uchun Toshkentni sevaman» mavzusida insho yozing.

Eslab qoling!

Ko'makchilarining a'maliy-ma'noviy vazifalari:

a) shaxs va predmetni o'xshatish orqali ta'riflashda:

Oy **kabi** go'zal, Lola **kabi** nozik. **Xuddi** yulduzdek porloq. **Xuddi** oyga o'xshab.

b) harakat maqsadini ifodalashda:

Sizni ko'rish **uchun** keldik. Pul berish **niyatida** bordim.

Sizni ko'rish **maqsadida** keldik. Pul beraman **deb** bordim.

d) harakat va holatning sababini ifodalashda:

Kasalligim **tufayli** kela olmadim.

Kasalligim **sababli** kela olmadim.

e) vaqtini chegaralashda:

Saida uni ko'rgandan beri juda g'alati bo'lib qoldi.

To ovqat pishguncha do'konga borib kel.

To tong otguncha ertak aytib o'tirdi.

Ertalabdan kech tushgunga **qadar** jang davom etdi.

f) harakatning muddati va davrini ifodalashda:

Sen kelmasingdan **oldin** ketib bo'lgan edi.

U ertalabdan **beri** shu ahvolda yuribdi.

Oyim ishdan kelganlaridan **so`ng** ovqat pishiradilar.

Men uchi kun **davomida** shu yerda bo'laman.

U shu kundan **boshlab** bu uyga qadam bosmadi.

Sizlarni oyning oxiriga **qadar** ko'rnmas ekanman-da.

g) harakatning asosini ifodalashda:

Shikoyat xati **asosida** tekshirmoq.

Xatga **asosan** xulosa qilmoq.

Navbatchilar jadvalga **muvofiq** ishlaydilar.

Avtobuslar yo'naliш **bo'yicha** yuradilar.

U hammaning yoshiga **qarab** muomala qiladi.

Anvar xizmatiga **yarasha** mukofotlandi.

Otasi qariligiga **qaramay** hali juda tetik edi.

h) harakat vositasini ifodalashda:

U yukni zambil bilan tashidi.

Uning xonasiga dahliz orqali kiriladi.

Paxtalar mashina yordamida teriladi.

Akam mashinasini avtogen **vositasida** tuzatdi.

3-mashq. Nuqtalar o'miga ko'makchilarning zarurini qo'yib ko'chiring.

- 1.Qalam ... yozdim. 2. Bu ko'yakni bayramda kiyish ... sotib oldim.
3. Konsertingni televizor ... ko'rdim. 4. Malika ... o'n besh kunlik oydek go'zal edi.
5. Ona bitan bola gul ... nozikdir, ularni asrab-avaylash zarur.
6. Sen bugun ertalabdan ... kechgacha nima ish bilan shug'ullanding?
7. Onam o'tgan kundan ... pishiriq pishiradilar. 8. Askar yigit o'sha voqeordan ... juda parishon bo'lib qoldi.

4-mashq. «Toshkent bo'ylab sayohat» mavzusida suhbat tuzing.

5-mashq. Quyidagi gaplardan ko'makechilarni topib, ma'nosini aytilib bering va tarjima qiling.

- 1.Kursimiz talabalari ichida a'lochilar ko'p. 2. O'qituvchimizning mashinasi bino oldida to'xtadi. 3. Uyimiz yonida katta bozor bor. 4. Gulnor qizni uy ichiga otlib kirdi. 5. Qiz poezd to ko'zdan yo'qolguncha unga qarab turdi. 6. U ishlarini qilib bo'lganidan so'ng dars qilishni boshladi. 7. Hay'at a'zolari xulosaga asosan ishni yakunladilar. 8. Unsin ham ularning orqasida borar edi.

Estub qoling!

Qiyoslang:

<i>Asl ko'makchilar</i>	<i>Ot - ko'makchilar</i>	<i>Fe'l ko'makchilar</i>
bilan	Old - oldinda	ko'ra
uchun	Orqa - orqasida	yarasha
kabi	Yon - yonida	qarab
	O'rta - o'rtasida	boshlab
	Tomon - tomonda	tortib
	Ust - ustida	qaraganda
	Past - pastda	

6-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1.Перед нами самое красивое место Ташкента – площадь Мустакиллик. 2. За этим большим зданием находится детский сад. 3. Мы по-

пути своей экскурсии проедем озеро Иссык-куль. 4. Мы договорились с однокурсниками встретиться около университета. 5. Ты сегодня с утра до вечера бездельничал! 6. Возьми из этого шкафа свои вещи и отнеси в сторону. 7. Алишер получил премию по заслугам. 8. Путь наш лежит через реки и моря, через пустыни и горы .

Bog`lovchilarning turlari

1. Teng bog`lovchilar:

a) biriktiruv bog`lovchilar:

Kitob va daftarlar.

Saida ham, opam ham matabda ishlashadi.

Dinora, Saida hamda Malika imtixonni yaxshi topshirdilar.

O`qituvchining esa hech narsadan xabarí yo`q edi.

b) zidlov bog`lovchilar:

Ma`ruzaga hamma keldi, ammo Zilola kela olmadi.

Talaba o`zbekcha matnni yaxshi o`qidi, lekin og`zaki nutqi yomon.

Men sizni juda hurmat qilaman, biroq ba`zi bir ishlaringizdan jahlim chiqadi.

Balki bugun kinoga borarimiz.

d) Ayiruv bog`lovchilar:

Yo men boray, yo o`zingiz keling.

Dugonam ha`zan telefon qitadi, ha`zan xat yozadi.

Goh qushlar sayraydi, goh qo`ylar ma`raydi.

Men dam u yerda bo`laman, dam bu yerda.

2. Ergashtiruvchi bog`lovchilar:

Salima bugun juda kech keldi, shuning uchun unga joy yetmadi.

Hamma biladiki, o`zbek xalqi do`scht va inoq yashaydi.

Bolalar, bugun amaliyotga bormaymiz, chunki qor yog`moqda.

Hamma yer jimjit, go`yo bu yerda hech narsa bo`limgandek.

Agar Salim kelsa, shaxmat o`ynaymiz.

7-mashq. Nuqtalar o`rniga kerakli bog`lovchilarni qo`ying, turini aytинг va rus tiliga tarjima qiling.

1.O`zbekistonda kuz fastida anor, anjir ... xurmo pishadi. 2. Bu olma ozgina qizaribdi, ... hali yaxshi pishmagan. 3. U faqat sengagina emas, ... menga ham yordam beradi. 4. Kuzda ... kun isib ketadi, ... yomg`ir yog`adi. 5. Uning uyi kichkina, ... juda chiroyli ... fayzli edi. 6. Feruza, biz ertaga kinoga bormoqchimiz, sen ... teatrga borib kel. 7. U juda ko`p ishlaydi, ... dam olishni ... o`rniga qo`yadi. 8. O`qituvchimiz juda oz, ... juda ma`noli gapiradilar.

8-mashq. «Toshkent ko'chalarida» mavzusida suhbат tuzing, suhbatingizda bog'lovchilardan unumli foydalaning.

9-mashq. Jadvalni xat taxtaga chizing, uni navbat bilan to'ldiring (ularning har biriga misol yozing).

От-ко'макчилар	Фе'л ко'макчилар	Асл ко'макчилар	Тенг боғловчилар
Biriktiruv bog'lovchilari	Zidlov bog'lovchilari	Ayiruv bog'lovchilari	Ergashtiruvchi bog'lovchilar

10-mashq. Matnini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Самые крупные строения Ташкента

Проспект Навои. Одна из самых древних улиц Ташкента. XII-XV веках связывала город с ремесленными пригородами. До 1893 года называлась Ташкуча, с 1893 года -Шайхантахурской улицей, с 1938 года улица Навои. В 1948 году установлен памятник Навои (скульптор Н.Дитрих).

Площадь Мустакиллик. До 1917го- Соборная площадь. С 1936 года площадь им. В.И.Ленина, с 1991 года площадь Мустакиллик. В 1999 году здесь сооружена площадь Памяти.

Театр имени Навои. Расположен на Театральной площади. Построен в 1949 году (архитектор А.Щусев). В зрительном зале свыше 1400 мест.

Музей искусства. Основан в 1918 году. В 1974 году построено новое здание музея (архитекторы И.Абдулов, А.Никифоров, С.Розенблум).

Дворец дружбы народов. Находится на площади Дружбы народов. Открыт в 1981 году (архитекторы С.Адылов, Е.Букина). Зрительный зал на 4000 мест. В зале аппаратура для одновременного перевода текста на 8 языков.

Гостиница «Чорсу». Расположена на площади Чорсу. Построена в 1982 году (архитекторы В.Л.Спивак, А.Асанов). В 23-этажном здании 506 номеров на 1100 мест.

Метрополитен. Строительство начато в 1973 году. Первый участок введен в действие с 6 ноября 1977 года. Названия станций Чиланзарской линии метро:

С.Рахимов, Чиланзар, Мирзо Улугбек, Хамза, Пахтакор, Мустакиллик, Амир Темур, Х.Алимджон, Пушкин и Буюк ипак йўли. Названия станций Узбекистанской линии метро: Чкалов, Сельмаш, Таш-

кент, Айбек, Проспект космонавтов, Алишер Навои, Гафур Гулям, Чорсу, Тинчлик, Беруний.

1.Rasmiy ish qog`ozlarining namunalari:

Tavsifnomasi

Nazar Shukurov 1996- yilda O`zMUning jurnalistika fakultetiga o`qishga kirgan.

Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o`zini ko`rsatdi. O`quv mashg`ulotlariga jiddiy yondashadi va ularni qunt bilan o`rganishga harakat qiladi.

N.Shukurov fakultetining jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. U fakultetining «Yosh jurnalistlar» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi. N.Shukurov aql-zakovat, bilimdonlik talab etiladigan har qanday ishda o`zini ko`rsata oladi va dadillik bilan harakat qiladi.

U kamtarin va to`g`ri so`z, do`stlariga nisbatan doim g`amxo`r, mehribon bo`lganligi uchun ham kursdoshlari unga hurmat va ehtirom bilan qaraydi.

Dekan	(imzo)	G. Ernazarov
Kasaba uyushmasi:		
qomitasi raisi	(imzo)	M. Rahimov
Kurs rahbari	(imzo)	C.Mirvaliev
(sana)		
muhr		

2. O`zbek xalq maqollarini yod oling, o`z ona tilingizdagagi muqobilini toping.

Kam gapirsang, ko`p eshitasan.

Ko`kka boqqan yiqlar.

Ko`p bilgan oz so`zlar.

Kuch-birlikda.

11-mashq. a) Matnni o`qing, ularni rus tiliga tarjima qiling. Matndagi Toshkentga oid muhim sana va nomlarni eslab qoling.

Toshkent shahridagi teatrlar nomi:

Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri.

O`zbekiston Milliy teatri.

Abror Hidoyatov nomidagi drama teatri.

Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri.

Gorkiy nomidagi drama teatri.

Yo`ldosh Oxunboboyev nomidagi yosh tomoshabinlar teatri.

Rus yosh tomoshabinlar teatri.
Respublika qog'irchoq teatri.
Operetta teatri.
«Ilhom» teatr-studiyasi.

Toshkentning eng yirik muzeylari:

Temuriylar tarixi muzeyi.
O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi.
Tabiatshunoslik muzeyi.
San'at muzeyi.
Amaliy san'at muzeyi.
Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi.
Rassomlar uyushmasi ko'rgazma zali.

Toshkentning yirik sport inshootlari:

«Paxtakor» markaziy o'yingohi
«Yunusobod» tennis klubi
«JAR» sport majmuasi
Markaziy sport klubи majmuasi
«Dinamo» sport majmuasi
Suv sporti saroyi

Grossmeyster Grigoriy A'zamov nomidagi respublika shaxmat-shashka klubи.

- b) matndagi Toshkentga oid muhim sana va nomlarni eslab qoling;
d) yuqorida sanalgan teatrlar, muzeylar, sport inshootlari Toshkentning qayerida joylashgan? Javoblaringizni yozing.

23-Dars

Umumiy mavzu: O'zbekiston shaharlari Nutqiy mavzu: Qadimiy va navqiron shaharlari

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: *eng ko'hna shahar, Zarafshon vodiysi, madaniyat markazi, muzey-shahar, sayyoohlar, allomalar, navqiron shahar.*

Qadimiy va navqiron shaharlari Samarqand

Samarqand O'zbekistondagi eng ko'hna shaharlardan biridir. U 1925-30-yillarda O'zbekistonning poytaxti bo'lgan. Samarqand Zarafshon vodiysining janubi-g'arbida, Toshkentdan 351 km. uzoqlikda joylashgan. Aholisi 600000 kishidan oshiq.

Samarqand 2500 yildan oshiq tarixga ega. Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan savdo-sotiq qilgan. Samarqand XIV asrning oxiri va XV asrda Temur davlatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'lgan. Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandda ilmfan va madaniyat taraqqiy etdi. Samarqand sharqdagi sanoati rivojlangan, ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtida Samarqandda 17 ta o'rta maxsus o'quv yurti, 6 ta oliy o'quv yurti ishlab turibdi. Samarqand tarixiy obidalarga boyligi tulayli sayyoohlar eng ko'p tashrif buyuradigan shahardir.

Buxoro

Buxoro O'zbekistonning qadimiy shaharlardan biridir. U Zarafshon daryosining quyi oqimida, O'zbekistonning janubi-g'arbida joylashgan. Toshkentdan 616 km. uzoqlikda. Aholisi 400000 kishidan ortiq. Buxoro milodning boshtarida barpo etilgan. U yerda jahonga mashhur Abu Ali Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband kabi yuzlab allomalar yashaganlar. Buxoro qadimdan katta savdo yo'li ustida joylashgan. U eng yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq, madaniyat markazi hisoblanadi. Bugungi kunda ham Buxoro Sharqning eng yirik madaniyat markazlaridan biridir, bu yerga minglab chet elliklar ketadilar. Buxoroda zamonaviy mehmonxonalar, o'rta va oliy o'quv yurtlari, korxonalar ishlab turibdi.

Xiva

Xiva ham O'zbekistonning qadimiy va shu bilan birga navqiron shaharlardan biridir. Bu shaharni muzey-shahar deb atash mumkin. Xivada,

ayniqsa, Ichan qal'ada juda ham ko'p tarixiy obidalar saqlanib qolgan. Ularning ko'pchiligi 18-19-asrlarda bunyod etilgan. Xivadagi Kalta minor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Xon saroyi, Tosh hovli kabi tarixiy yodgorliklarni bir kunda yuzlab sayyoohlар ziyorat qiladilar. Bugungi kunda Xivada yirik sanoat korxonalari ham faoliyat ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, Xiva gilamlari o'zining pishiq-puxta to'qilganligi, go'zal naqshlari bilan kundan kunga dunyoda mashhur bo'lib bormoqda.

Umuman, O'zbekistonning har bir shahari o'ziga xos va betakror, ularda qadimiylik bilan zamonaviylik o'zaro uyg'unlikdadir. Biz ularni asrab avaylashimiz, kelgusi avlodlarga beshikasi yetkazib berishimiz tozim.

Matn bo'yicha topshiriqlar:

1. Matnni yana bir marta o'qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn bo'yicha savollar tuzib, ular asosida matn mazmunini so'zlab bering.
4. Quyidagi savollarga javob bering:
 - a) siz O'zbekistonning qaysi shahrida tug'ilgansiz?
 - b) O'zbekistonning qaysi shaharlari borgansiz?
 - d) O'zbekiston shaharlari bilan Ovro'po shaharlari o'ttasida qanday umumiyl va farqli jihatlar bor?
 - e) O'zbekiston shaharlarining o'ziga xosligini asrash uchun, sizningcha, nima ishlar qilinishi zarur?
5. Tasavvur qiling, siz ekskursovodsiz. Siz O'zbekistonning o'zingiz istagan shahari bilan sayyoohlarni tanishtirishingiz kerak. Shu haqda yozing.
6. Matndagi ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarni alohida yozib chiqing. Ularni nima uchun xizmat qilganiga diqqat qiling.

Gap yoki uning ayrim bo'laklariga qo'shimcha ma'no yuklashni ifodalash

So'roq va taajjub yuklamalari:	Sen ertaga o'qishga borasanmi? Boraman, sen-chi ? U keldi-a? Tavba, keldi-ya !
Ayiruv va chegaralov yuklamalari:	Darsga faqat Karim kelmadi. Darsga faqat Karimgina kelmadi.
Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari:	Men ham keldim-ku! O'zi endi ketdi-yu. Ozim bilaman- da!

	Axir bilishing kerak! Buni hatto sen hain ko'rmading.
Gumon yuklamasi:	U balki kelgandir.
Inkor yuklamasi:	Na kun isib ketmaydi, na qor yog'maydi. Na opasi kelibdi, na o'zi.

Eslab qoling!

So'z – yuklamalar:

hatto
nahotki
axir
faqat
xuddi

Affiks – yuklamalar:

-gina (-kina, -qina)
-mi, -chi, -da, -eq (yoq)
-ku, -dir, -a, -ya, -na,
Faqatgina · mi, oq, -ov, -gina
yuklamalari affiksi qo'shib
yoziladi. Qolgan affiks-yuk-
lamalar desis orqati yoziladi.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga o'ng tomonda berilgan yuklamalarning mazmunan mos kelganini qo'ying va tarjima qiling.

- | | |
|------------------------------------------------------------------|------------|
| 1. Sen o'zi ... ovqat qilishni bilasan. | axir |
| 2. ... yaxshi turmush bundan ortiq bo'ladi ... ? | faqat |
| 3. Ota-onangizga xabar berish zarurdir... ? | -faqatgina |
| 4. Kecha mashg'ulotga Saida
kelmadи, u juda dangasa....! | -da |
| 5. sen meni shunday odam o'ylaysan? | -nahotki |
| 6. Bu ko'yak.... senda ham yo'q. | -da |
| 7. Bu juda zo'r ish bo'lar edi.... | -ku |
| 8. Seni juda ham sog'inib ketdim... | -hatto |

3-mashq. Quyidagi so'zlar va yuklamalar ishtirokida gaplar tuzing.

Hatto, nahotki, axir, faqat, aytdim-ku, sen-a ?,

Keldi-ya, Ahmad-chi ?, Siz-ku, mi, -chi, -ku, -da, -u, -a (-ya).

4-mashq. «**Registon maydonida**» mavzusida suhbat tuzing. Suhbatda yuklamalarni faol ishlating.

5-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, yuklamalar ma'nosini tushuntirib bering.

1. Даже ты не знаешь, что случилось? 2. Неужели завтра все будет кончено? 3. Ты уйдешь или нет, в конце концов? 4. Ходила ли ты вчера в парикмахерскую? 5. Ведь давно уже все началось же! 6. Ведь ты все знаешь, но специально мучаешь меня. 7. В конце концов ты должна

поступить именно так, как говорит твоя мама. 8. Все уехали, только лизь мой брат ещё оставался здесь.

So'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini ifodalash

Fikrning aniqligini tasdiqlovchi modal so'zlar:	<i>Albatta, biz ertaga ketamiz. Shubhasiz, bu biznikidir. So'z siz, sen bu ishdan bexabarsan. Darhaqiqat, bu shunday ulug' diyor.</i>
Afsuslanish ma'nosini bildiruvchi modal so'zlar:	<i>Afsus, bu gal ham seni ko'ra olmadim. Afsuski, boshqa kitobim qolmadi. Esiz, senga shunday kitobni bekor beribiman. Attang, o'g'limni olib kelsam bo'lar ekan.</i>
Taxmin, guman ma'noli modal so'zlar	<i>Elttimol, qor yog' adi. Chamasi, sovuq bo'ladi. Aftidan, men bu ishdan ham ozod bo'laman.</i>
Fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar:	<i>Avvalo, shu ishni qilmagin edi. Dastlab, tanishtirishni shu qizdan boshlaymiz.</i>
Fikrning xulosasini bildiruvchi modal so'zlar:	<i>Xullas, men ishdan bo'shatmoqchiman. Demak, shu gapingizda qattiq turasiz. Ummumani, darsni yakunlasak ham bo'ladi.</i>
Fikrni ta'kidlovchi, isbotlovchi modal so'zlar:	<i>Masulan, bu talaba. Aksincha, bu qiz.... Jumladan, chunonchi, binobarin, xususan.</i>

Eslab qoling!

Albatta, sen «besh» baho olasan.

Sevara, aftidan, darsga kela olmaydi.

Ukamni yana ko'ra olmaydiganga o'xshayman, **ming afsus**.

Modal so'zlarning yozilishini, ayniqsa, tinish belgilarni eslab qoling.

6-mashq. Quyidagi modal so'zlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga arjima qiling.

Albatta, qani, chunonchi, nahotki, holbuki, kerak, lozim, mayti, o'g'ri, tuzuk, demak, xullas, afsus, esiz, darvoqe, ayigandek.

7-mashq. «Mening sevimli serialim» mavzusida kichik insho yozing. Unda modal so'zlardan unumli foydalaning.

His-hayajon va turli hissiyotlarni ifodalovchi so'zlar

Undov so'zlarining ma'nolari

Eh, qo'limni bosing-ku ! (afsuslanish)

Ura, ertaga toqqa ketamiz ! (quvonch)

O'ho', bu juda katta baliq-ky (hayron bo'lish)

Ha, bu mening qizlarim! (faxrlanish)

Oh, yeding-ku ablak ! (achchiqlanish)

Eslab qoling!

Ovozga (tovushga) taqlid so'zlar:

inga-inga (chaqaloq yig'isiga)

qult-qult (suyuqliq yutishga)

xi-xi-xi (kulishga taqlid)

miyov-miyov (mushuk ovoziga)

Obrazga taqlid so'zlar:

Yalt, yalt-yalt, yalt-yult, lip, lip-lip,

Milt, milt-milt, g'ir-g'ir, duv-duv, shuv-shuv.

8-mashq. Gaplarni mazmunan mos kelgan undov va taqlidiy so'zlar bilan to'ldiring.

1.Zaldan ... degan tovush eshitildi. 2. ... Toshkent! ... mening ona shahrim Toshkent! 3. Komiljon uni ko'rib ... deb baqirib yubordi. 4. ... bu gulni juda ham yaxshi ko'raman. 5. ... qaniyi mana shu kitoblarning bar-chasi meniki bo'lib qolsa! 6. ... bu joylar juda ajoyib joylar ekan-ku! 7. Kech tushdi, ... shanol esa boshladi. 8. To'satdan hovlida ... qadam tovushi eshitildi. 9. Uni ko'rib yuragim ... urib ketdi. 10. Yarim kecha edi, olisdan ... o'q tovushi eshitilib qoldi.

9-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1.Shaxs, predmet, hodisalarni nomlashda qaysi so'zlardan foy-dalaniladi ?

2.Qarashlilik ma'nosi qanday ifodalanadi ? Predmetning o'michi ?

3.Predmetning rangi, maza-ta'mi, shakli va hajmini qanday ifoda laymiz ?

4.Predmetning belgi-xususiyati, shaxsning tashqi qiyofasi qanday ifodalanadi ?

5.Shaxs yoshi qanday ifodalanadi ?

6.Predmetning sanog'i, tartibi, narx-qiymati, taxminiy miqdori qanday ifodalanadi ?

- 7.Taxminiy va aniq vaqtini ifodalab bering.
- 8.Harakat bajaruvchisi qanday ta'kidlab ko'rsatiladi ?
- 9.Shaxs, predmet va hodisa yoki uning belgisi noaniqligi qanday ifodalanadi?
- 10.Shaxs, predmet, hodisa va ularning belgisi qanday inkor etiladi ?
- 11.Nutq jarayonidan oldingi harakat qanday ifodalanadi ?
- 12.Nutq jarayonidagi harakat va holatchi ?
- 13.Bajarilishi maqsad qilingan harakat qanday ifodalanadi ?
- 14.Fe'lning qanday nisbatlari bor ?
- 15.Fe'l mayllariga misol keltiring.
- 16.Harakat va holat qanday nomlanadi ?
- 17.Shaxs harakat va holat belgisiga ko'ra qanday nomlanadi ?
- 18.Ravishdoshlarga misol keltiring.
- 19.Harakat belgisi, bajarilish o'rni, vaqt, tarzi qanday ifodalanadi ?
- 20.Bog'lovechi, ko'makechi, yuklamalaming barcha turlariga misol keltiring.
- 21.Modal so'zlar, undov va taqlidiy so'zlarga misol keltiring.
- 22.O'zbek tilida nechta mustaqil, nechta yordamchi so'z turkumi bor? Ular nomini sanab bering, ularning vazifasini tushuntiring.

1. Rasmiy ish yog'ozlarining namunalarari

Majlis bayoni

O'zMU jurnalistika fakulteti 3-kurs yig'ilishining majlis bayoni.

2000-yil 30-noyabr

Toshkent shahri

Rais - M. G. Rahimov

Ko'hiba - S. P. Mahmudova

Qatnashdilar: 30 kishi (ro'yxat ilova qilinadi)

Kun tartibi:

1. Kurs yetakchisini qayta saylash.
2. Yangi yil bayramiga bag'ishlangan adabiy-badiiy kecha uyushtirish.

1. Eshitildi:

Birinchi masala yuzasidan kurs rahbari C. Alimova so'zga chiqdi. U kurs yetakchisi etib M. Azimovni saylashni taklif etdi, chunki oldingi kurs yetakchisi sog'ligi yomonligi tufayli akademik ta'tilga chiqqan edi. Kurs rahbarining bu taklifini hamma bir ovozdan ma'qulladi.

Qaror qilindi:

1. Kursning oldingi yetakchisi O. Salimovaning akademik ta'tilga chiqqanligi munosabati bilan kurs yetakchisi vazifasidan ozod etilsin.
2. Kursning yetakchisi etib M. Azimov tayinlansin.

2. Eshitildi:

Ikkinchchi masala yuzasidan O. Soliyeva so'zga chiqdi. U yangi yil bayramini o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tashkil etilganini, ushbu kechaning senariysi tuzilganini ma'lum qildi. O.Soliyeva bu bayramda barcha talabalarni faol qatnashishga da'vat qilib, kechaning yaxshi o'tishi uchun amalga oshiriladigan barcha rejalarni bayon qildi.

Qaror qilindi:

1. Yangi yil bayramiga bag'ishlangan kechaning senariysi tasdiqlansin.
2. Kecha o'tkazish uchun kurs fondidan 5000 so'm pul ujratilsin.

Majlis raisi

(imzo)

M.S.Rahimov

Kotiba

(imzo)

S.T. Mahmudova

2. O'zbek xalq maqollarini o'qing. O'z ona tilingizdag'i muqobilini toping.

Mard maydonda sinalar.

Mol achchig'i-jon achchig'i.

Musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaydi.

Muzga suyanma, yovga sig'inma.

10-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling, sayyoh borgan shaharlар nomini aytинг.

Письмо туриста

Здравствуй, дорогая сестра!

С группой туристов я обогнал много городов. У меня очень много интересных впечатлений, и я хочу рассказать тебе о них.

Сначала мы приехали в столицу Узбекистана. Это очень большой, красивый, современный город. Этот город за годы независимости очень изменился. Здесь много СП, зарубежных фирм, шикарных гостиниц. Потом мы сели на самолет и прилетели в одно из древней-

ших городов мира. Здесь очень много исторических памятников. Одну площадь-«Регистан» можно наблюдать целый день. Ах, какие здесь базары, а лепешки, их больше нигде не найдешь!

Отсюда на скоростном автобусе мы уехали в другой город Узбекистана. Там есть такие исторические памятники, как Лабиходуз, Миноран калан, и многое другое. Побыв здесь 2 дня, мы хотим полететь самолетом в вечно зеленую и благодатную долину Узбекистана. Я об этом тебе напишу, до свидания!

11-mashq. a) she'rn'i yod oling.

Mirtemir

O'zbekiston

Men haxt borasida so'ylamoqchiydim,
Quvnoq bir qasida kuylamoqchiydim,
Erta va bugunni o'ylamoqchiydim,
Ertak kabi bir to'y to'ylamoqchiydim.
Ko'zlarim o'ngida sen namoyonsan,
Sen axir o'shasan, asriy armonsan
O'zbekistonsan.

Mehnat o'g'lisan-da, yuraging sog'dir,
Kumchilar yil sayin tajang va dog'dir.
Har qadamning jamat, bog'chadir,
Kechalaring doim lak-lak chiroqdir.
Sen yovga shaddedu de'stga darmonsan,
Sendan xatar yiroq, dorilomonsan,
O'zbekistonsan.

Ne-ne xazinalar hukmi qo'lingda.
Qutlug' yil qo'shig'i bog'u cho'lingda.
Oltining, ipaging o'ngu so'lingda,
Ne-ne ellar shaydo sening yo'lingda.
Mevasi sharobsan, suvsan va nonsan,
Mehri qo'shdaryo, bag'ri ummonsan,
O'zbekistonsan.

b) mazmunini rus tiliga yozma tarjima qiling.

24-Dars

*Umumiy mavzu: Milliy qadriyattarimiz
Nutqiy mavzu: Navro'z*

1-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'qing.

Yangi kun, milliy taomlar, raqsga tushmoq.

2-mashq. O'qing, takrorlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yaxshi kayfiyat, mehnat bayrami, bahorda nishonlash, urug'larni saralash.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

Navro'z

Navro'z – O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy yangi yil bayrami. «Navro'z» forscha so'z bo'lib. «yangi kun» degan ma'noni ifodalaydi.

Navro'z yangilanish, poklanish, uyg'onish bayramidir. Aynan, shu jihat bilan u insonlar qalbidagi iliqlikni, ona zaminga bo'lgan muhabbat hissini uyg'ota oladi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtiradi.

Navro'z bahor faslida nishonlanadi. Bu paytda tabiat uyg'onib, barsha o'simliklar ko'kara boshlaydi. Bahor insonlarga ezgu tuyg'ular hadya etadi. Inson qalbida orzulari mavjulanadi.

Dehqonlar, bo'g'bonlar bahorgi ishlarni boshlab yuboradilar. Navro'z ayyomiga atab bobodehqonlar yerlarni maromiga keltirish, arizovurlarni tozalash, urug'larni saralash, ko'zlangan joylarni urug' qardashga moslash va boshqa taraddudlarni ko'radilar. Bog'bonlar esa toklarni ochish, anjir, anor va boshqa mevalarning ko'chatlarini tartibga keltirish, yangi nihollarni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarni butash, payvandlash kabi yumushlarni rejalashtiradilar. Shuning uchun ham Navro'z yangi yil bayrami bo'lib qolmasdan, mehnai bayrami hamdir.

Navro'z 21-martda kutib olinadi. Shu kuni kecha bilan kunduz tenglashadi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda Navro'z bahor bayrami sifatida nishonlanadi. Bayram kunlari odamlar bir-birlariga gullar sovg'a qiladilar, yaxshi tilaklar bildiradilar.

Navro'z qadim-qadimdan yaxshilik va saxiylik ramzi bo'lib kelgan. Odamlar bir-birlariga mehr-oqibat ko'rsatadilar, urush-janjal, gina-kudurat unutiladi. Bemorlardan, nogironlardan, yolg'izlardan xabar olinadi. Bayram kunlari turli milliy taomlar, jumladan, sumalak, halim, ko'k chuchvara, ko'k somsalar tayyorlanadi.

Navro'zda saylgohlar odamlar bilan gavjum bo'ladi, turli taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi. Yoshlar lapar aytib, raqsga tushadilar.

Navro'z bayrami kishilarga yaxshi kayfiyat, samimiylilik, zavqu-shavq, ilhom va g'ayrat bag'ishlaydi.

Topshiriqlar:

1. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikmalarni eslab qoling.

Ona zamin, yangilanish, poklanish, bahor bayrami, tabiatning uyg'onishi, yaxshilik ramzi, daraxtlarni butash.

2. Matnni rus tiliga tarjiyna qiling.

3. Yuqorida berilgan tayanch so'z va birikmalardan foydalanib matnning mazmunini so'zlab bering.

4. «Biz Navro'zni qanday kutib olamiz» mavzusida matn tuzing.

5. Matn asosida bayon yozing.

So'z birikmasi va gap

Kecha va kunduz	Ko'm-ko'k dafalar	dalalar ko'm-ko'k
Dalalar va bog'lar	go'zal tabiat	tabiat go'zal

4-mashq. Quyidagi so'zlarining lug'aviy ma'nosini izohlang va ular ishtirokida so'z birikmalarini tuzing.

Zamon, zamin, sumalak, lapar.

5-mashq. O'qing, qiyoslang.

qizil gul	красный цветок
yotgan bola	лежащий ребенок
o'qilgan kitob	прочитанная книга
ko'm-ko'k dalalar	зеленые поля
yangi kitoblar	новые книги

6-mashq. Quyidagi so'zlar yordamida so'z birikmasi tuzing.

astoydil, ko'rkan, bilimli, o'qi, ikki, saxiy, eshit, yodla, olmoq, ush-lamoq.

7-mashq. O'qing. Avval boshqaruv, keyin moslashuv, so'ngra bitishuv yo'li bilan birikkan so'z birikmalarini ko'chiring.

Samimiy tilaklar, tafabalar anjumani, tez gapirmoq, ukamning kitobi, daraxtning kurtagi, qishloqdan kelmoq, olma terish, a'lochilarni tabriklash, tonggi shabada, vazifani bajarish, qiziqarli kitob, qalamda yozmoq, uydan chiqmoq, vatanni sevmoq, ulkan ishlar.

8-mashq. O'qing. Gaplarni turlarga ajrating.

Bog'da o'ynab yurgan edik, kimdir mening nomimni aytib chaqirib qoldi.

- Bobojon, sizlarni juda sog'indik.
 - Ukalaring qani?
 - Soy bo'yiga sayohatga ketishgan, hozir kelib qolishadi.
 - Voy, ana! Sultonim ham kelyapti. Sultan yig'lamadi. Ovoz ham chiqarmadi, jimgina ko'rishib bo'lgach, qovog'ini sofib:
 - Endi keldilaringmi? Boshqa bolalarning bobosi uch martadan keldiku!
- Roziq tog'am ham kefnadi...
- ...Ovgati qalay?
 - Yomonmas, menga ikki norma berishadi.
 - Seni yaxshi ko'rib qolishibdi-da?
 - Men oshxonaga suv, o'tin tashib beryapman.
 - Barakalla o'g'ilim, mehnat qilsang ikki dunyoda kam bo'lmayсан.

(H.T.)

9-mashq. O'zingiz darak, so'roq, buyruq gaplarga ikkitadan misol toping va ularni yozing.

10-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Умей слушать!

Нужно знакомиться с языком со слуха, уметь слушать, как говорят на нем люди, для которых он родной. Можно слушать пластинки, магнитофонные записи. Очень важно внимательно слушать дикторов радио и телевидения.

Необходимо правильно произносить звуки изучаемого языка, особенно те, которых в твоем языке нет. Постарайтесь подражать тем, интонациям, с которыми говорят носители языка. Нужно запоминать самые частые, самые распространенные в обиходе слова.

Потом можно взяться за целые предложения.

11-mashq. «Navro'z bayramida» mavzusida dialog tuzing.

12-mashq. a) matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Hashar – Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri.

U qadimdan o'zbek xalqi hayotida muhim o'rinn tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgaflashib harakat qilishidir.

Hasharning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepu'l, beta'ma bajariladi.

Xalqimizda ajoyib naql bor: birovni hech qachon og'ir kunda qoldirmasam, deydi. Mahallalarda birov uy qursa, to'y qilsa, og'irroq ish bilan mashg'ul bo'lsa, qo'ni-qo'shnilar beminnat yordamga chiqadilar, uning mushkulini oson etadilar.

Bahor kunlari umumxalq hashari o'tkaziladi. Bu hashar oddiy hashar emas, o'z qishlog'i, o'z shahri, o'z elini jon-dildan yaxshi ko'rganlarning hashari!

Hovlingizda birorta cho'p bejo yotgan bo'lsa, dilingizga g'ashlik qo'nadi. Shahar ham ana shu hovlimizdek ardoqli, mo'tabar!

Yo'llkalar ozoda, beton ariqlar yog' tushsa yalagudek! Qurigan daraxtlar o'rniga navnihollar ekilgan, ko'chalardagi latofatga qarab ko'z to'ymaydi.

Ko'klam hashariga . aziz hamshaharlar!

Bahor ko'rkiga mehnatkash qo'llarimiz bilan yana ko'rk qo'shaylik!

b) siz yana qanday o'zbek udumlarini bilasiz?

d) hasharda qatnashganmisiz?

Gaplaringizni yozing.

Test savollari:

1. Javoblarning qaysi biri gapga misol bo'la oladi?

1) mayin shabada

2) kurash ishq 'ibozlari

3) hesh qavatlari bino

4) heg'ubor osmon

5) osmon beg'ubor

2. Javoblarning qaysi birini darak gapning ta'rifi deb bilasiz?

1) Gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi

2) So'zlochi o'zi qilgan bayonga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydi.

- 3) *Gapning mazmunidan buyruq, iltimos, yalinish, maslahat ma'nolarini anglashiladi.*
- 4) *Gap orqali hivor narsa ma'lum qilinadi, bu haqda xabar beriladi.*
- 5) *Gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.*
3. Javoblarning qaysi birini so'roq gap deb bilasiz?
- 1) *Tez va sifatlari teraylik?*
 - 2) *Amir Temur muzeyida bo'lganmisiz?*
 - 3) *Bizning guruhdan ham ma'lumot borgan ekan?*
 - 4) *Bug'doy o'rmini boshlandi?*
 - 5) *Tergan paxtang tog' bo'sin?*

25-Dars

*Umumiy mavzu: Milliy qadriyatlarimiz
Nutqiy mavzu: Mehrjon bayrami*

1-mashq. Quyidagi birikmalarning ma'nosini izohlang.

Oltin kuz, mezon oyi, inson muruvvat, ona zamin.

2-mashq. O'qing, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qovun sayli, qavm-qarindoshlarni yo'qlash, ozuqalarni g'amplash, ona zamin sahovati.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

“Mehrjon” – sahovat va muruvvat bayrami

«Mehrjon» bayrami elimizning orzu-umidi, tilak va niyatlarining shoyon natijasi, ijobatidir.

Qadimda oltin kuzning debochasi sifatida mezon oyida qarshi olin-gan bu bayram 1990-yildan boshlab go'zal Toshkentimizda, diyorimizning ko'pgina viloyat va tumanlarida yana qayta nishonlana boshlangani bilan diqqatga sazovordir.

Xalqimiz saytlarga, kishi ko'ngliga quvonch ularshadigan ayyomlarga juda ham oshustga xalq.

Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlar-dan qolgan yodgorliklar» deb atalgan nodir asarida ko'hna Turon, Eron, Rum va Afgh'oniston xalqlarining tabiat hodisalari bilan bog'liq ,o'sha davming dono kishilari tomonidan kashf etilib, turmushga singdirilgan urfatlar haqida bebaho ma'lumotlar beradi, ularni ilmiy tahlil etadi.

Buyuk alloma bahor va kuzda kun va tunning ikki marta teng kelishini esga soladi. Demak, Navro z 21-martdan 22-martiga o'tar kechasi nishonlansa, «Mehrjon» 23-sentabr dan 24-sentabrga o'tar kechasi boshlanadi.

Sharqning buyuk mutafakkir shoirlari – Rudakiy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Hofiz, Jomiy va Navoiylar ijodida Navro z madh etilgani singari «Mehrjon» to'g'risida ham ajoyib baytlar bitilgan. Jumladan, Rudakiy «Mehrjon»ni ta'riflab yozgan g'azallaridan birida bu bayram hamma uchun barobar ekanligini ta'kiglagan, bobo-dehqonlarimiz xizmatini ulug'lagan.

Qadimdan ota-bobolarimiz «Mehrjon» kunlarida ko'pgina yumushlar bilan mashhg'ul bo'lishgan. Ular da-la va bog'larga, uzum va qovun saytlariga chiqqanlar, qavm-qarindoshlar bir-birlarini yo'qlaganlar, qariyalarga

sovg'a-salomlar olib borganlar, ozuqalarini g'amlashga kirishganlar, uy-joylarini qishga tayyorlaganlar, qabristonlarni ziyorat etib, xas-cho'pdan tozalaganlar. Bozorlarda, saylghohlarda oltin kuz ne'matlari ko'rgazmalarini tashkil etilgan. Dorbozlar, askiyachilar o'z mahoratlarini namoyish etganlar, polvonlar kuch sinashganlar, hunarmandlar o'z mahsulotlarini ko'z-ko'z qilganlar.


Qo'chqor, bedana, xo'roz urishtirishlar tashkil etilgan. Bir so'z bilan aytganda, kun va tunning tengligi ma'nosida barcha tabaqa, mansabdagi kishilarning teng ekanligi targ'ib etilib, xushechaqchaqliq qilingan.

«Mehrjon» ayyomi kezlarida do'kondorlar mollarini arzon bahoda kam daromadli odamlarga beminnat sotganlar. Agar bosh kiyimi eskiroq yetim bola o'tib qolsa, darrov do'ppi hadya etganlar. Dehqonlar ham meva, sabzovotlarini arzon narxda sotganlar. Shahar ko'chalarida yangi-yangi kiyim kiygan bolalar quyosh taqlid rangdor doira shakl taxtani yog'ochga ilib yoki sariq tola paxta osib ko'cha-ko'yni to'ldirib yurishgan. «Navro'z» Oy (Qamar) bayrami bo'lsa, «Mehrjon» Quyosh (Shams) bayrami sanalardi. Darhaqiqat, «Mehrjon» – ona zaminning sahovati, insonga muvvattdi demakdir.

Topshiriqlar:

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Yuqorida berilgan tayanch so'z birikmalaridan foydalaniib matning imazminuni so'zlab bering.
3. Qovun sayliga chiqqannisiz?
4. Oltin kuz ne'matlari ni yig'ib-terishda ishtirok etganmisiz?
5. «Oltin ku'z», «Ona Zamin sahovati» mavzularidan birini tanlab kishik insho yozing.

Gap bo'laklari



4-mashq. Berilgan yig'iq sodda gaplarni yoyiq sodda gaplarga aylantirib yozing.

Bu ikki xil gapning farqini aytib bering.

Bahor keldi. Quyosh chiqdi. Dalalar bezandi. Sumalak tayyorlandi. Yoshlar to'plandi. Raqsga tushdilar. Dars boshlandi.

5-mashq. Gaplarni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirin va yozing.

Ustoz. Ona allasi. Bahor. Mardlik. Mana. Farg'ona. 1991-yil 1-sentabr.

6-mashq. O'qing. Bir bosh bo'lakli gaplarni alohida, ikki bosh bo'lakli gaplarni alohida qilib ko'chiring.

Yetti o'lehab, bir kes. A'lochi talabalar uy vazifasini puxta bajardilar. Toshkentdan Moskvaga samolyotda yeh soatda boriladi. Halol mehnat insonni ulug'laydi. Biz sport musobaqasiga tayyorlandik. Ko'chatni ko'pincha bahorda o'tqazaditar. U sayohatni yaxshi ko'radi. Bugun sayohatga jo'naladi.

Kecha universitetda yig'ilish bo'ldi. Bu qizlar Olimpiada g'oliblari bo'ldilar. Ular o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan qaytmaydilar. Dalalar. Keng dalalar. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

7-mashq. O'zingiz bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gapga ikitidan misol toping va ularni yozing.

8-mashq. Ko'chiring. Har bir gapning bosh bo'laklarini topib, tagiga chizing.

Bu yil mamlakatimizning mustaqilligiga 10 yil bo'ldi. Shu davr ichida ko'p yaxshi ishlar qilindi. Shahrimiz qanday o'zgargan, qanday go'zal bo'layotganini qarang-a!

Men Toshkentda tug'ilganman va uni juda yaxshi ko'raman. Yurtimiz mustaqil bo'lgandan beri Toshkentda har xil chet davlatlarning vakolatxonalarini va kompaniyalari ochildi.

Ketajakda men shu vakolatxonalarining birida ishlashni orzu qilaman.

9-mashq. Berilgan so'zlarga kesim toping va gap tuzing.

Mehnat, Amir Temur, nihol, salomatlik, quyosh, osmon, ko'zalar.

10-mashq. Gaplarning kesimini aniqlab, ularning qanday so'z turkumi bilan ifodalanganligini tushuntirin.

U a'lochi talaba. Ona yurting - oltin beshiging. O'qish yaxshi, uqqan undan ham yaxshi. O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Guruhimizdagи

talabalarning soni yigirmata. Tinchlik. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu!

Um, fan va fikr olami nihoyat keng va chuqur. Malika dugonasiga zimdan ko'z tashlaadi. Kulgi hamisha umrnii uzaytiradi.

11-mashq. O'qing. Har bir gapning egasini topib, eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Umida darslarni o'z vaqtida tayyorlaydi. Siz o'zingizni qynamang. Yaxshilar ko'paysin, yomonlar qolmasin.

Bolalarning uchalasi ham cho'milishga ketishdi. Biz institutimizga kelgan mehmonlarni yaxshi kutib oldik.

Uzoqdan qizning muloyim ovozi eshitildi. G'afur G'ulom Toshkent shahrida kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi. Insoniyatning eng yaxshi farzandlari asrlar bo'yli orzu qilgan zamonlar endi keldi.

12-mashq. O'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling. Gaplardan sodda gap tuzing.

АВИЦЕННА

Творческое наследие великого философа, врача и поэта Абу Али ибн Сина, получившего широкую известность в Европе под именем Авиценны, огромно.

Авиценна – автор медицинской эмблемы: змея, обвивающая кубок. На протяжении почти 10 веков служит она во всем мире символом исцеляющих сил.

В течение почти 600 лет врачи как на Востоке, так и на Западе, воспитывались по книге «Канон врачебной науки».

В XV веке после изобретения печатного станка он выдержал 16 изданий, а полностью переиздавался более 40 раз.

Нет, пожалуй, области знания, где бы не оставил следа великий ученый: физика и химия, геология, ботаника и зоология, математика и музыка, философия и медицина, военное дело и др. «Шейх-ур-раис» – называли Ибн Сино на Востоке, «князь врачей и философов» - на Западе, «наставник ученых» - во всем мире.

В 1980 году весь научный мир широко отметил 1000 летний юбилей Авиценны.

13-mashq. Matnni o'qing, takrorlang, eslab qoling. Sodda va yoyiq gaplarni aniqlang.

Subbat

- Siz Toshkent metrosi haqida nimalarni bilasiz?
- Toshkent metrosi 1972-yildan qurila boshlandi.
- Metro qaysi yo`nalishlarda xizmat qiladi?
- Hozirda uch yonalishda xizmat qilmoqda. Sobir Rahimov – Buyuk ipak yo`li, Beruniy – Chkalov, va Yunusobod.
- Metroning uchinchi yo`nalishi haqida nimalarni bilasiz?
- Uchinchi Yunusobod yo`nalishi mustaqilliqimizning o`n yilligiga ishga tushirildi.
- Metro bekatlarining nomlari haqida nima deysiz?
- Bekatlarning nomlari eliniz, millatimiz nomini ulug`lashga xizmat qilgan, jahon taniydiyan, hamkorlikka da`vat etuvchi atamalar.
- Siz metro xizmatidan foydalanasizmi?
- Albatta, metro ahsoti uchun eng qulay va arzon transport vositalaridan biri hisoblanadi.

14-mashq. a) matnni o`qing va rus tiliga tarjima qiling.

Mustaqillik – muqaddas ne'mat

Muhammad Yusuf, O`zbekiston xalq shoiri.

– Mustaqillik, eng avvalo, ruhimni qaytarib berdi. Qolaversa, tilimni, dinimni, millatimning faxri bo`lgan buyuk ajdodlarimni qaytarib berdi. Ba`zi odamlar hamon mustaqillikni osmondan tushdi deb o`ylashadi. Go`yoki xuddi shunday bo`lishi kerakdek, Mustaqillik – ulug` ne'mat, muqaddas ne'mat. Mustaqillikning qadriga yetmasak, farzandlarimizga jabr qilgan bo`lamiz. Mustaqillikni himoya qilish deganda, men avvallo, o`z nomusim, oriyatim, farzandlarim, onam, singillarimni himoya qilish deb tushunaman.

b) inustaqillik yoshlarga nima berdi?

O`z fikrlaringizni qo`shib, matnni so`zlab bering,

d) gaplaringizni yozing.

26-Dars

*Umumiy mavzu: Milliy qadriyatlариниз
Nutqiy mavzu: Alla*

1-mashq. Quyidagi birikmalarning ma'nosini izohlang.
ona mehri, nurli qo'shiq, ona allasi, allaning qudrati.

2-mashq. O'qing, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida sodda gaplar tuzing.

ruhiy lazzat bulog'i, qo'shiqqa maftun bo'lmoq, allaning hayotbaxsh qudrati, go'zallikni his qilmoq.

3-mashq. Matnni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib biling.

Alla

Alla - farzand haqidagi, onaning farzandga tilanadigan yaxshi tilaklari, orzu-umidlari haqidagi qo'shiq. Allada onalar hech kimga ayta olmagan sirlarini, dardlarini kuylaganlar. Onalar qadimdan o'z bolalari beshigi tepasida kechasi bo'lsin, kunduzi bo'lsin, alla aytib kelishgan. Alla o'z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi. Go'dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uplashga imkon beradi.

Onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-armontari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham atlalarga qo'shib aytganlar. Alla axloqiy, tarbiyaviy, didaktik, an'anaviy ijod namunalardan iborat bo'lgan. Uni tinglagan bola onaga mehrni sut bilan o'z taniga, shuuriga singdiradi.

Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, hazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.

Alla! Onalarning jonbaxsh qo'shig'i. Ona bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ruhiy lazzat bulog'ini ochadi. Bola she'riyat va qo'shiqqa umrbod maftun bo'ladi. Inson dunyo go'zalligini ilk bor ona allasi sadolari bilan his qiladi. Ona mehri bilan qalbiunizga g'unchalar isi, yaproqlar shitiri, yurt mehri jo bo'ladi. Uning maroqli kuyi o'ta ta'sirli hayotbaxsh qudratga egadir.

Alla eshitmagan bolada bu xususiyatlar bo'lmaydi. Manqurtlik mana shundan ketib chiqadi. Bola o'z onasini o'zga ayollardan farqlay olmaydi. Unda o'ziga onalik xislatini topolmaydi. Alla nasaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatini ham ma'nан ta'minlaydi.

O'zbek onasi alla aytarkan, bu allalar bir-biriga sira o'xshamaydi. Hatto bir onaning bugun aytgan allasi kechagisiga o'xshamasligi mumkin. Ayni paytda, allalarda hamma ona va bolaga xos bo'lgan umumiylilik ham bor. Bu mehr, bu -- muhabbat!

Donishmandlarimizning aytishlaricha, alladan yaxshiroq qo'shiq, onadan xushovoz xonanda yo'q.

Topshiriqlar:

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Yuqorida berilgan tayanch so'z birikmalaridan foydalanib matning mazmunini so'zlab bering.
3. Sizga alla aytishganmi? Ona allasi haqida bilgantaringiz, kuzatishlaringiz asosida so'zlab bering.
4. Matn va o'z iikr-mulohazalaringiz asosida bayon yozing.

Gapning ikkinchi darajali bo'taklari

Alla aytdi	Mehribon ona tunda farzandiga alla aytди.
O'qituvchi tabrikldi	Kecha yangi o'qituvchi talabalarni bayram bilan tabrikldi.

4-mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Unda bu so'zlar aniqlovchi vazifasida kelsin.

Baland, ikki, pushti, ukamning, temir, o'sha, o'qigan, ishlagan.

5-mashq. O'qing. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Aniqlovchining qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aytинг.

Yurtimizda quyoshli bahor nafasi keza boshladi. Ishlagan odamning hayoti oljanob bo'ladi. Sevimli vatanimizda toshqin daryodek jo'sh urar hayot. Mana bu albonni bizning talabalar tayyorlagan. Ikkinchi kurs talabari olimpiada g'oliblari bo'lishdi. O'rinosarning bunday xushomadlar oldida og'zining tanobi qochadigan odati bor edi. Hisobli do'st ayrimas. Odob - kishining zeb-ziyнати. Yoqolgan pichoqning sopi - oltin. Tosh yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turadi. Usta Shirinning avlod-ajodolari ganchkor o'tgan.

6-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarini topib, ularni qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlang.

Vatan posbonlari deb Siz kimlarni bilasiz?

Vatanimiz posbonlari deb milliy armiya zabitlari, chegarachilarimiz va Ichki Ishlar vazirligiga qarashli bo'lgan militsiya xodimlarini tushunaman.

Din niqobi ostida demokratik jamiyatimizga qarshi kurashayotgan Vatan xoinlari, ekstremistlar, reketchilardan xalqimizni, millatimizni, ona zaminimizni himoya qilayotgan kishilarni Vatan posbonlari deb bilaman.

Vatanimiz dushmanlari safiga bilmay adashib kirib qolgan yoshlarni «millatimiz o'g'il-qizlarini hech kimga bermaymiz» shiori ostida Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov kechirmoqda. Ularni o'z oilalariga qaytarmoqda, ish bilan ta'minlamoqda. Ular mahalla, tuman, shahar rahbarlari tomonidan nazorat qilinmoqda.

7-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarni topib, ma'nosidagi farqni aytib bering.

Lobar oldiga qo'yilgan taomni yedi. – Lobar oldida qo'yilgan taomdan yedi.

Abdulla Oripov she'rlarini o'qidim. – Abdulla Oripov she'rlaridan o'qidim.

Bog'imizga har xil gul ko'chatlarini o'tqazdik. – Bog'imizga har xil gul ko'chatlaridan o'tqazdik.

Oksana she'rni yod aytdi. – Oksana she'rdan yod aytdi.

8-mashq. O'qing. Hollarni topib, turlarga ajrating.

Ko'z qayerda bo'isa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi. Mehmonlar kecha Toshkentning diqqatga sazovor joylarini ko'rdilar. Ertalab yog'ib o'tgan yomgir daraxt yaproqlarida va gullarda go'dak kiprigidagi yoshday yiltirab qoldi. Bugun guruhimiz talabalari lola sayliga ketdilar. Fotima meni ko'rib shodligidan qichqirib yubordi.

Sihat tilasang, ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema. Umida chaqqonligidan hamma ishni o'z vaqtida bajara olar edi. Men bu kitobni o'qiymen deb olib kelgan edim.

9-mashq. Holning har bir turiga bittadan gap yozing.

10-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga yozma tarjima qiling. Ikkingchi darajali bo'laklar tagiga chizing.

Милосердие

Человек стал человеком, когда в нем проснулись жалость, сострадание не только к своему соплеменнику, но и к «чужаку», будь то чужестранец или более того — пленник.

Чувство милосердия вечно. Оно старо так, как стар мир, в котором мы живем. Способность сострадать — это признак духовной зре-

лости личности. Зареветь от собственной обиды проще, чем от чужой. И эти слезы сочувствия к чужому человеку – святые слезы. Они означают наличие у человека души и сердца.

Не ожесточайтесь, не озлобляйтесь ни при каких обстоятельствах. Жизнь дает массу примеров, когда люди много перенесшие и физических, и духовных страданий, не замкнулись в себе, в своем горе, не озлобились на жизнь, на других людей. Добрый и милосердный легче жить, потому что люди платят им любовью.

Поэтесса Анна Ахматова советовала: «Во всем, как хотите, чтобы с вами поступали люди, так вступайте и вы с ними».

11-mashq. O'zbek urf-odatlari, marosimlari haqida kommunikativ dialoglar tuzing.

12-mashq. a) matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Sidneyda bo'lib o'tgan XXVII Olimpiya o'yinlarini butun dunyo zo'r qiziqish bilan kuzatib bordi. Qariyib 200 davlat anjumanida har bir sportchining fikri-xayoli faqat g'alaba qo'zonish orzu-umidlari bilan band edi.

Biroq millionlar orasida birinchi bo'lishning o'zi be'ladimi?

Hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev ana shunday sharafli unvonni qo'lga kiritdi. U Sidneyda boks bo'yicha Olimpiya championi unvoniga sazovor bo'ldi.

Championni mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tabrikladi.

Prezident Muhammadqodir Abdullayevni butun o'zbek xalqi, sportchilarimizning g'alabasiga sidqidildan ishongan barcha vatandoshlarimiz nomidan Olimpiya o'yinlarida qo'lga kiritgan ulkan g'alabasi bilan samimiy qutladi.

b) «Milliy sport turlari», «Men sevgan sportchilar», «Men sport bilan shug'illanaman» mavzularidan birini tanlab matn tuzing va so'zlab bering;

d) gaplaringizni yozing.

Test savollari:

1. To'ldiruvchining ta'risi qaysi javobda o'z ifodasini topgan:

1) Gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, boshqa bo'laklarga tobe bo'lmaydi.

2) Ega haqidagi xabarni bildirib, unga grammatik tobe bo'ladi.

- 3) *Gapdag'i hivor bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yoli bilan birkadi.*
- 4) *Gapdag'i hivor bo'lakning belgisini yoki narsaning boshqasiga garashligini bildiradi.*
- 5) *Kesimga bog'lumib, uning belgisini bildiradi.*

2. Misollarning qaysi birida sifatloveli aniqlovchi ifodalangan:

- 1) *Betga aytganning zahri yo'q.*
- 2) *Takrorlash ta'limning asosidir.*
- 3) *Dalalar ko'm-ko'k o'tlar, daraxtlar yashil liboslarga burkandi.*
- 4) *Odamning go'li cho'lni bo'ston qiludi.*
- 5) *Soyaga qarab bo'y o'chama.*

3. Javoblarning qaysi birida o'rinn holning so'roqlari to'g'ri berilgan?

- 1) *Qancha? qanchalab? nechalab? necha marta?*
- 2) *Nima sabubdan? nima magsadda?*
- 3) *Qayerga? qayerda? qayoqqa? qayerdan?*
- 4) *Qanday? qay holdu? qay tarzda?*
- 5) *Qachon? qachongacha? qachondan beri?*

27-Dars

Umumiy mavzu: Adabiyot va san'at Nutgiy mavzu: Alisher Navoiy

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qo'ling: buyuk shoir, mutafakkir, shoortabiat oila, muhrdor, vazir, xalq manfaati, yosh iste'dodlar, ulug' davlat arbobi, homiy.

2-mashq. Matnni o'qish jarayonida uyushgan bo'laklarga alohida e'tibor bering.

Alisher Navoiy

Buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tug'ilgan. U shoortabiat oиласи tarbiya oldi. Uning tog'алири Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar shoir edilar. Navoiy yoshligidanoq shoh farzandi Husayin Boyqaro bilan do'stlashadi. 1469-yilda Husayin Boyqaro taxtga o'tirgach, Navoiyni avval muhrdor, keyin esa vazir etib tayinlaydi. Navoiy bu katta mansablardan xalq manfaati, mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnagi, adolat tantamasi uchun foydalanadi. Navoiy ko'plab yosh iste'dodlarni tarbiyalab, ularga homiylik qiladi. Ayniqsa, tarixchi Xondamir, rassom Behzod, voiz Koshifiyolar Navoiy homiyligida voyaga yetadilar. Tarixchi Xondamir Navoiy 32 rabot, hovuz, 16 ko'rik, bir qancha ariq, to'g'on, hammom, masjid-madrasalar qurdirgani haqida yozadi.

Alisher Navoiy o'zining 60 yillik hayoti davomida 1000 yilliklarga arzigidlik xayrli ishlarni amalga oshirdi. Ulug' shoir Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida Hirot shahrida vafot qilgan.

Alisher Navoiyning yirik asarlari

«Xamsa» asari 5 dostonidan iborat:

1. «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»).
2. «Farhod va Shirin».
3. «Laylo va Majnun».
4. «Sab'ai sayyora» («Yetti sayyora»).
5. «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»).

«Xazoyinul maoniy» («Ma'nolar xazinasи») devoni g'azallar, ruboilalar, qit'alar, tuyuqlar, fardlar va dostonlardan iborat.

«Lison ut-tayr» ("Qushlar tili") va «Nasoim ul-muhabbat» falsafiy dostonlar bo'lib, tasavuffga bag'ishlangan.

«Muhokamat ul-lug'otayin» ("Ikki til muhokamasi") turkiy tilning boyligini isbotlashga bag'ishlangan asar.

«Majolisun nafois» ("Nafislar majlisini") Navoiy yashagan davrdagi shoir, yozuvchi, rassom, umuman, san'at va adabiyot vakillari haqidagi asar.

Shuningdek, Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Mahmud", "Mufradot", "Munshoot" kabi asarlari ham mavjud.

Topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn mazmunini so'zlab bering.
4. «Alisher Navoiy va bizning zamonamiz» mavzusida insho yozing.
5. Navoiy asarlari nomini daftaringizga ko'chiring, ularning har biri nima haqida ekanligini o'qituvchingga bilan muhokama qiling.

Eslab qoling!

Gapda bo'laklar uyushgan holda qo'llanishi mumkin:

1. Uyushgan kesim: Men bugun o'qiyman, yozaman va tarjima qilaman.
2. Uyushgan ega: Toshkentda maktablur, bog'chalar, do'konlar va sport inshootlari qurilmoxda.
3. Uyushgan to'ldiruvchi: Sayohat vaqtida har xil odamlar va hayvonlarni uchratdim.
4. Uyushgan aniqlovchi: Talabalar keng, yorug', ozoda xonalarda dars tayyorlaydilar.
5. Uyushgan hol: O'qituvchi mavzuni tez, sodda, qiziqarli tarzda tushuntirdi.

3-mashq. Gaplarni o'qing, ulardag'i uyushgan bo'laklar gapning qaysi bo'lagi ekanligini aniqlang.

1. Salima, Muhayyo, Feruza bugun darsdan keyin mehmonga borishmoqchi.
2. Bog'imizda olma, olcha, o'rik va shaftoli pishdi.
3. Yangi uyga stol, stul, oyna kabi jihozlar sotib oldik.
4. Onam Osiyo. Afrika va Amerikada bo'lganlar.
5. Xalqlar tinchlikni, do'stlilikni va farovon hayotni istaydilar.
6. Burgutlar, lochinlar hamda qirg'iyalar yirtiqich qushlar hisoblanadi.

4-mashq. Gaplardagi uyushiq bo'laklar o'zaro qanday bog'lanqanligini aniqlang, gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Bahorda o'rrik, shaftoli va behi kabi mevali daraxtlar gullaydi. 2. Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish uchun ko'p o'qish kerak, ko'p o'rganish kerak. 3. Kecha do'kondan oq, qizil, sariq hamda ko'k rangli qog'ozlarni sotib oldim. 4. O'qishimga tramvay ham, avtobus ham boraveradi. 5. Singlim bechora ham o'qiydi, ham ishlaydi, ham bolasiga qaraydi. 6. Ukam toza, chiroyli, bexato yozadi.

5-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling, uyushgan bo'laklarning tagiga chizing.

1. Заповедники Узбекистана расположены в лесах, в горах, в степях и на побережьях рек. 2. Я наблюдала за своими подопытными животными и зимой, и летом, и весной, и осенью. 3. В университете обучаются представители разных национальностей: узбеки, русские, казахи, киргизы, таджики, туркмены, корейцы, евреи. 4. В человеке всё должно быть прекрасно: и лицо, и одежда, и душа, и мысли (А. П. Чехов). 5. В нашей библиотеке имеется различная литература: общественно-политическая, научная, художественная.

6-mashq. Quyidagi umumlashtiruvchi so'zlarga mos uyushiq bo'laklarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Transport, yil, sport turlari, odamlar, mevalar, sabzavotlar, qurilish materialliri, tillar, oylar.

Eslab qoling!

Qiyoslang:

Saida, menga kitobni ber! Menga kitobni ber!

Gapda undalma qatnashganida tinish belgilarining ishlatalishi:

Nigora, bugun biznikiga kelasanmi?

Eshiting, hurmatli domla, talaba sizga javob bermoqchi.

Nega kecha darsga kelmadding, Hasanjon?

7-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini undalma sifatida har 3 o'rinda qatnashdirib gaplar tuzing.

Do'stim, azizim, ukaginam, bolalar, aziz, ota-onalar, tafabalar, dangasalar, qadrdonlarim, hurmatli o'rtoqlar, janoblar.

8-mashq. Nuqtalar o'miga kerakli undalmalarni qo'yib ko'chiring.

Namuna: Sanobar, go'zalim, senda gapim bor.

1. Hormang, ..., hosilingiz juda mo'l-ku! 2. Bugungi majlisda siz al-batta so'zga chiqasiz, ... 3. Sabr qiling, ..., hozir qizingizni chaqirib bera-man. 4. ..., menga ozgina pu'l berib tura olasan-mi? 5. Bu yerga endi hech qachon kelmagin, ... 6. ..., bundan keyin senga hech ham ishonmayman!

Eslab qoling!

Kirish so'z va kirish birikmalar:

Afsuski, bugun ham ishga kech qoldim.

Menimcha, bu yigit kecha ham kelgan edi.

Birinchidan, siz bu ishga aralashmang, **ikkinchidan**, uni hal qilishga kuchim etadi.

Qisqasi, men bu vazifani sizga topshiraman.

Sen ertaga, **chtimol**, Samarqandga ketarsan.

Baxtga qarshi, siz bu gaplarni tushunmadingiz.

9-mashq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing. Undagi uyushgan bo'lak-lar, undalamda va kirish so'zlarining tagiga chizing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

Hasan: Salom, Mahbuba, qayerga ketayapsan?

Mahbuba: Salom, Hasan. Men kutubxonaga ketayotgan edim. O'zing-chi?

Hasan: Men bozorga ketayapman. U yerdan piyoz, sabzi, go'sht, yog' xarid qilmoqchitman.

Mahbuba: Men esa kutubxonadan Alisher Navoiy asarlarini olmoqchiman. Menga hazrat shoirning g'azallari, ruboilyari, tuyuqlari juda yoqadi. Senga-chi?

Hasan: Yo'q, she'riyatni yoqtirmayman. Menga urush haqidagi filmlar, yaxshi ovqatlar, o'yin-kulgi, qisqasi, dunyodagi barcha zo'r narsalar yoqadi.

Mahbuba: Ha, afsuski, hozir ko'pchilik yigitlar shunday o'ylaydilar. Vatanni himoya qilishnichi, Navoiy hazratlaridek xalq manfaati uchun xizmat qilishni o'ylaysanmi?

Hasan: Birinchidan, biz juda ham yomon emasmiz, ikkinchidan, vaqt kelganida Vatanimizni albatta himoya qilamiz.

Mahbuba: A, shunday bo'lsa, yaxshi, bo'pti, xayr.

Hasan: Xayr, o'qimishli, aqli qiz!

10-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Алишер и скворец

Алишер с детства был умным, сообразительным, шустрым мальчиком. С 9 лет он писал стихи и этими стихами восхитились взрослые люди.

В один прекрасный день он вышел в сад. Сидя посреди сада он читал стихи. Его голос был таким нежным, и в тоже время звонким, приятным, что поющий в саду скворец затих. Он спустился к Алишеру и сел на его плечо. Он сказал Алишеру:

- Эй, поэт, твой голос оказался приятней моего голоса. Как тебя зовут?

- Меня зовут Алишер, - ответил мальчик.

Ах, да, ты юный поэт Алишер. Ты должен выбрать себе псевдоним. Твой голос похож и даже лучшие пения скворца, поэтому твой псевдоним должен быть от слова «наво», то есть «Навон».

С тех пор, как гласит народная легенда, Алишер Навон подписывался под своими произведениями псевдонимом «Навон».

11-mashq. O'zbek tilidagi gazeta, jurnal, badiiy adabiyot namunalaridan kirish so'z va kirish iboralarini topib daftaringizga ko'chiring, rus tiliga tarjima qiling.

12-mashq. a) matnni o'qing.

Alisher Navoyning hikmatli so'zlari

Odami ersang, demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Erursan shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen.

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tufroqqam u ketgumdir oxir?!

Sen agar zohir etting itlikni,
Men senga ko'rguzay yigitlikni.

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.
Bilmaganni so'rab o'rgangan olim
Va orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Yaxshilik qila olmasang,
Yomonlik ham qilma.

- b) Alisher Navoiyning hikmatli so'zlarini yod oling;
d) ularning mazmunini rus tiliga tarjima qilishga harakat qiling.

28-Dars

*Umumiy mavzu: Adabiyot va san'at
Nutqiy mavzu: O'zbekiston san'ati*

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling; Cholg'u asboblar, sozanda, hofiz, tasviriy san'at, milliy hunarmandchilik, ganchkorlik, o'ymakorlik, naqqoshlik, rassomchilik, ma'nnaviy oziqa.

2-mashq. Matnni o'qish jarayonida bog'langan qo'shma gaplarga e'tibor bering.

O'zbekiston san'ati

O'zbekistonda san'atning deyarli barcha turlari mukammal rivojlangan. *Musiga* san'atida qadimgi davrlardan to bugungi kunimizgacha behbo kuy, qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Juda ko'p mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar o'zbek san'ati dovrug'ini olamga taratishgan. Xususan, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mamurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Botir Zokirov, Farruh Zokirov, Yulduz Usmonova, G'ulomjon Yoqubov kabi o'zbek qoshiqchilarining nomi jahonga mashhurdir. O'zbek milliy qo'shiqchiligi va sozandachiligi kundan kunga rivojlanib, ravnaq topib bormoqda.

O'zbekiston tasviriy san'ati ham o'zining qadimiyligi ildizlariga ega. 15-16-asrlarda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an'analar hozirgacha davom etib kelmoqda. Respublika tasviriy va amaliy san'at bilim yurtida qadimiyligi hunarmandchilik turlarining san'at darajasiga ko'tarilgan ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulechilik sirlari yosh avlodga o'rnatilayotgan bo'lsa, rassomechilik kollejida tasviriy san'atning rang-tasvir, portret, peyzaj, minatura, naturnmort kabi turlari o'qitilmoqda. O'zbek rassomiari Chingiz Ahmarov, Abdulhaq Abdullayev, Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev, Muzaffar Abdullayevlarning asarlari dunyodagi ko'pgina nufuzli ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

Kino san'ati ham O'zbekistonda juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatli film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhratli MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili «O'zbekfilm» kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqidagi o'nlab filmlar

suratga olinadi. «Mahallada duv-duv gap», «O'tgan kunlar», «Kelintar qo'zg'aloni» kabi filmlarni o'zbekistonliklar juda sevib tomosha qilishadi.

O'zbek teatr san'ati ham o'z tarixiga, rivojlanish bosqichi ham o'ziga xos an'analariga ega. Teatr san'ati darg'alari Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, G'ani A'zamov, Soyib Xo'jayev kabilar o'zbek teatr san'atini yuqori pog'onaga ko'targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma'naviy ozuqa bergen.

O'zbekistonda, shuningdek opera, balet, estrada, me'morchilik kabi san'at turlari ham katta yantuqlarga ega bo'lgan holda rivojlanib bormoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalangan holda matn mazmunini so'zlab bering.
4. Siz matnni o'qish jarayonida yirik o'zbek san'atkorlari bilan tanishdingiz. Siz yana qaysi o'zbek san'atkorlarini bilasiz? San'atining barcha turlari bo'yicha nom chiqqagan jahon san'atkorlarini aytib bering.
5. Sizga san'atning qaysi janri ko'proq yoqadi yoki san'atning qaysi turi bilan shug'ullanasisiz, shu haqida insho yozing.
6. Respublikada nashr qilinuvchi gazeta, jurnallardan san'atga doir maqolalarni topib o'qing, ulardan istaganingizni rus tiliga yozma tarjima qiling. Tarjima qilish jarayonida san'atga oid so'zlarining qaysi biri o'zbekcha, qaysi biri baynalmilal shaklda ekanligiga e'tibor bering.

Eslab qoling!

Voqeа-hodisalarning bir vaqtда va o'zaro bog'liq holda sodir bo'lishini ifodalash

Biriktiruv bog'lovchilari

*Derazadan bog'ko'rinar va kechki shaboda esib turardi.
Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, uymi qorong'ulik bosdi.*

3-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchilarni qo'ying.

1. Rassomning chizgan rasmi hammani hayratda qoldirdi ... ko'r-gazma rahbari unga maxsus sovrin topshirdi. 2. Film rejissori bu rol uchun imunosib aktyor tanladi ... ushbu nomzodni badiiy kengash orqali tas-

dinqlatib ham oldi. 3. Bu qo'shiqda xalqning dardu alamlari, orzu armonlari aks etadi ... tinglochchida juda kuchli taassurot qoldiradi. 4. Men bugun er-talab Temuriylar tarixi muzeyiga bordim ... u yerdan juda ko'p taassurotlar oldim.

Voeqa-hodisalarning navbatma-navbat, alohida tarzda sodir bo'lishini ifodalash

Ayiruv bog'lovchilari

Yo biron daydi o'q tegishi, yo G'ulomjon tanib qolishi mumkin edi.

Dam jahtum chiqadi, **dam** kulgim qistaydi.

Huri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.

4-mashq. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gapga badiiy adabiyotdan 10ta misol topib ko'chiring. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

5-mashq. «*O'zbekiston Davlat san'at muzeyida*» mavzusida suhbat tuzing. Dialoglaringizni biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplar orqali tuzishga harakat qiling.

6-mashq. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» va Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanidan ayiruv bog'lovchili qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Bog'lovchilarining yozilishiga diqqat qiling.

7-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Она то злилась, то ей хотелось смеяться. 2. Сегодня на заседании кафедры или я выступаю, или ты будешь выступать. 3. Иногда они к нам приезжают, иногда мы к ним ходим в гости. 4. То Сажида не хотела видеть Тахира, то она говорит, что не может жить без него. 5. Или я завтра поеду к маме, или мама сегодня вечером приедет ко мне. 6. Или ты уезжай из этого дома, или я уеду с детьми.

Qarama-qarshilik munosabatini ifodalash

Zidlov bog'lovchilari

Kuzning oxirgi oyи ham o'tib bormoqdu, ammo dalada paxta ko'p.

Havo bulut ho'ldi, biroq yomg'ir yog'madi.

8-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur bo'lgan zidlov bog`lovchilarini qo'yib ko'chiring.

1. Qo'shiqchi ashulani maromiga yetkazib ijro etdi, ... bu qoshiq tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olinmadni. 2. Aktyor bu rolni o'xshatib o'ynashga rosa harakat qildi, ... nimagadir uning barcha harakatlari zoye ketdi. 3. Reja bajarilgan, ... hali dalada hosil bor. 4. Bahor keldi-yu, ... hali kunlar sovuq, daraxtlar kurtak chiqarmagan. 5. Sen juda ko'p yutuqlarga erishding, ... hali kamchililing ko'p, uka.

Voqeа-hodisalarning mohijatini ta'kidlab ifodalash yoki inkor etish

Inkor bog`lovchilari

Na qulog`iga gap kiradi, na ko`ziga odam ko`rinadi.

Eslab qoling!

Qiyoslang:

Bog`lovchili qo'shma gap:

Biz o'qishdan keyin kinoga bormoqchimiz va Umida o'qituvchimizni ham ko'rib kelmoqchi.

Bog`lovchisiz bog`langan qo'shma gap:

Yo'llar tekislandi, yangi binolar qurildi.

9-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Rus rassomi V. A. Serov tomonidan ishlangan «Shaftoli ushlagan qiz» asari sizda qanday taassutot uyg`otdi, shu haqida gapirib bering.

Девочка с персиками

Угол большой комнаты залит золотистым дивным светом. За столом сидит черноволосая девочка в розовой блузке с черным в белую горошину бантом. Будто сейчас прибежала она из сада и села отдохнуть. Блестят весёлые карие глаза, играет румянец на щеках. Персик в руках у девочки такой же тёмно-розовый, как и её лицо. Перед нами портрет Веры Мамонтовой.

Портрет девочки с персиками написал в 1887 году молодой художник Валентин Серов. Эта работа стала знаменитой, но в то время Серов сам не представлял себе, какой замечательный портрет он создал. Через много лет, став известным художником, стоя перед этой картиной, он сказал с искренним восхищением:

Неужели это я написал?

10-mashq. Jadvalni xat taxtaga chizing va navbat bilan to'ldiring.

	Biriktiruv bog qo'shma gap.	Ayinuv bog . qo'shma gap.	Zidlov b. q. gap.	Inkor b. q. gap.	Bog'lovchisiz b. q. gap.
1.					
2.					
3.					

11-mashq. a) matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling. Gaplarning o'zaro qanday bog'langanligiga e'tibor bering.

Tamaraxonim

Tamaraxonim (Tamara Artyomovna Petrosyan) 1906-yilda tug'ilgan. U o'zi arman qizi bo'lsa ham. O'zbekistonning mashhur xonandasasi, raq-qosasi, balet ustasi bo'lgan.

1919-yilda u endi o'n uch yoshga kirgandi, ammo shunga qaramay Tamaraxonim sahnaga chiqqan va mashhur bol'gan edi. Tamaraxonim juda yoshligidanoq o'zbek san'ati shuhratini dunyoga yoydi hamda Parij, Londonda konsert berdi.

Yosh bo'lsa ham, Tamaraxonim 1926-yilda birinchi o'zbek raqqosalar studiyaşini tashkil etdi.

Qiyinchiliklarga qaramay u mashhur Yusup qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilov bilan birgalikda sahnaga ommaviy raqlarni olib chiqdi. Tamaraxonim garchi o'zbek bo'limasa-da, o'zbek milliy lapar va yallalarini olamga mashhur qildi.

- b) gaplarning o'zaro qanday bog'langanligiga e'tibor bering;
d) o'zbek san'atkori haqida kichik insho yozing.

29-Dars

Umumiy mavzu: Adabiyot va san'at Nutqiy mavzu: XX asr o'zbek adabiyoti

1-mashq. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: ijodiy imkoniyat, milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, qissa, doston, g'azal, drammatik asar, she'riyat, nasr, nosir, hikoya, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik.

2-mashq. Matnni o'qish jarayonida ergashgan qo'shma gaplarga alohida e'tibor bering.

XX asr o'zbek adabiyoti

Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida XX asr adabiyoti alohida o'rinni tutadi. XX asr o'zbek adabiyoti Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon singari ulug' yozuvchilarni yetkazib berdi. Afsuski, bu yozuvchilar yashagan tarixiy davr ular ijodiy imkoniyatlarning to'la yuzaga chiqishi uchun imkon bermadi. Ammo, shunga qaramay, ular o'zbek xalqining milliy uyg'onishi, mustaqil o'zbek davlatining vujudga kelishi yo'lda fidokorlik bilan ijod qildilar. O'zbek jadid adabiyoti beshigini tebratgan bu yozuvchilar tomonidan yaratilgan an'analar 30-90-yillarda ijod qilgan va qilayotgan atoqli yozuvchi-shoirlari Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov tomonidan davom etti-ridi. Mazkur ijodkorlar yaratgan roman va qissalar, doston va balladalar, go'zal she'r va g'azallar, dramatik asarlar XX asr adabiyotining oltin sondini tashkil qildi.

Bugungi kun o'zbek she'riyatida Omon Matchon, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Ikrom Otamurodov, Abduvali Qutbiddin kabi shoirlarning ijodi diqqatga sazovardir.

Ayniqsa, A.Oripovning «Ranjkom», O. Matchonning «Qush yo'lli», «Nega men?», U. Azimning «Oqpadar», M. Yusufning «Qora quyosh» kabi dostonlari, garchi ularning badiiy saviyasi turlicha bo'lsa-da, o'zbek dostonchiligidagi jiddiy hodisa hisoblanadi.

Zamonaviy o'zbek nasrida adabiyotdagi sifat o'zgarishlari yaqqolroq namoyon bo'imoqda. Nositlar A. Muxtorning «Chodirxayol», Sh. Xolmirzayevning «Ko'k dengiz», «Qadimda bo'lgan ekan», X. Sultonovning «G'ulomgardish», N. Otaxonovning «Oq bino oqshomlari» kabi hikoyalarda, O. Yoqubovning «Oqqushlar, oppoq qushlar», S. Ahmadning «Jimpitlik», O. Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» kabi romanlarida

bugungi kundagi olamshumul o'zgarishlar, insonlar ongidagi g'alayonlar, umuman, hayotning barcha silkinishlari aks ettiriladi.

Shuningdek, XX asr o'zbek adabiyotida zamонави dramaturgiya, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid ham o'z o'rni va uning rivojidagi o'z hissasiga ega.

Mana, XXI asr ham kirib keldi. Adabiyot ixlosmandlari o'zbek yozuchi va shoirlaridan Ovro'pa va Lotin Amerikasi romanchiligi, dramaturgiysi erishgan muvaffaqiyatlarni, ajoyib va original asarlarni kutishmoqda. Har bir ta'labha ham badiiy adabiyot bilan yaqindan do'st tutinmog'i lozim. Zero, adabiyot odamning insoniy qiyofasini, imon va e'tiqodini omon saqlab, ruhning yuksalishida beqiyos va bezavol manbadir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni qayta o'qib chiqing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matnni tayanch so'zlardan foydalangan holda qayta hikoya qiling.
4. Zamонави o'zbek adabiyoti namoyondalaridan kimlarni bilasiz, ularning qaysi asarlarini o'qigansiz? Sevimli adabiy qahramoningiz kim, shu haqda hikoya qiling.
5. «Men sevgan adabiy asar (roman, hikoya, drama, she'r, doston)» mavzusida kichik insbo yozing.
6. Matndagi barcha qo'shma gaplarni ko'chirib oling va turini aniqlang.

Eslab qoling!

Ergash gapli qo'shma gap bosh gap va ergash gapdan iborut bo'ladi.

Ergash gapning turlari:

1. O'r-in-joy munosabatini ifodalashda -sa (qayerdan, gayga, qayerga, qayerda, shu yerda, o'sha yerda, shu yerga, u yerda) biriktiruv vositalaridan foydalaniladi.

Gulsum qayerda o'ynasa, Xolmurodning ko'zi ham o'sha yerda.

Qayerda intizom bo'lsa, o'sha yerda tartib bo'ladi.

2. Payt munosabatini ifodalashda -ganda, -ganida, -gan, hamon, sayin, zamon; -gandum keyin, so'ng, beri, bo'shab, buyon; -gunga qador, gan, vaqtida kabi biriktiruvchi vositalardan foydalaniladi.

Otasi o'lganda, Hakima 5 yashar qizcha edi.

Usta Samarqandda ishlagan vaqtida, Sultonmurod 3 yashar bo'lgan.

3. Sabab munosabatini ifodalashda shuning uchun, shu sababli, -gandan (-ganligidan, -ganlikdan), -gani uchun, -sa kerak, -mi, -gach, -b (-ib), -may kabi biriktiruvchi vositalar ishtirok etadi.

Oybek to'g'ri gapirdi shekilli, hamma jum qoldi.

4. Natija munosabatini ifodalashda *-ki*, *natijsada*, *oqibatda*, *hatto*, *ni-hoyat* kabi vositalar qatnashadi.

Asror do'stini shunday xafa qildiki, uning ko'zidan milt-milt yosh chiqib ketdi.

Sobir to'satdan shunday uzoq xo'rsindiki, natijsada qiz kulib yubordi.

5. Gaplarda maqsad munosabatini ifodalashda *deb*, *-sin deb*, *-di deb*, *-ar deb*, *-su deb*, *-mi ekan deb*, *deya*, *uchun* kabi vositalardan foydalilanildi.

Fan cho'qqilarini egallaymiz deya, biz bu yerga kelgannmiz (qo'shiqdan).

6. Shart munosabatini ifodalashda *-sa*, *-sa edi*, (*agar*, *mobodo*, *bordiyu*), *-ganda*, *gunda edi*, *-r (-ar) ekan*, *-gan ekan*, *-moqchi*, *-mi*, *-may*, *bo'lay desang* kabi vositalardan foydalilanildi.

Nazokat ishingizga ko'maklashmoqchi ekan, xursand bo'lisingiz kerak.

7. Miqdor va daraja munosabatini ifodalashda *-sa*, *-gansari*, *-gan sayin* (*qancha-shuncha*, *qanchalik-shunchalik*), *-ki* (*shunday*, *shu qadar*, *shunchalik*, *shu daraja*) kabi vositalar ishtirok etadi.

U o'g'lini qancha qattiq urushsa, u shunchalik sho'x bo'lib borayotgan edi.

Yerga qancha mehnat sarf qilinsa, hosil shuncha mo'l bo'ladi.

8. O'xshatish-qiyoslash imunosabatini ifodalashda *-day* (*kabi*, *singari*, *sari*), *-ki*, *go'yo*, *xuddi*, *-go'yoki*, *degandek* (*o'xshatish ma'nosi*), *-sa*, *shunday qilib*, *o'shanday qilib*, *qanday qilib*, *-guncha*, *-gandan ko'ra*, *-ishdan ko'ra* (*qiyostash ma'nosi*) kabi vositalardan foydalilanildi.

Til fani o'quvchilar nutqini o'stirish uchun xizmat qilgani kabi, adabiy o'qish ham nutqni o'stirishga xizmat qilishi kerak.

3-mashq. O'rinn ergash gapli va payt ergash gapli qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Ergash gaplarni bosh gapga biriktirgan vozitalarning tagiga chizing, gaplarni rus tiliga og'zaki tarjima qiling.

1. Mehmonlar yetib borguncha, qorong'i tushdi. 2. Yolg'iz qolganimizda u menga hech narsa gapirmaydi. 3. Oradan 5-6 kun o'tganda, Kitobdan mehmon keldi. 4. Xuddi nasasi siqayotgandek, u o'zini uy ichiga sig'dirmaydi. 5. Go'yo oradan shuncha yillar o'tmagandek, shuncha vaqt davomida birga bo'lgandek edi. 6. Opam garang bo'lib qoldi, nasasi titrab, bir nimalar dedi.

4-mashq. Nuqtalar o'miga o'ng tomondagi zarur vositalarni qo'yib, sabab ergash gapli va natija ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiling.

- | | |
|----------------------------------------------------------------|------------------|
| 1. Orifjon aka ko'targan mavzu qiyinroq edi, ... ko'pchilik | shuning
uchun |
| muhokamada qatnashmadi. | sababi |
| 2. Turg'unning qulog'iga birdan tanish oboz eshitilgani ..., u | chunki |
| tezda o'sha tomonga qaradi | -ki |
| 3. Olim odam boylardan afzal, ... olamning xazinasi ilmdir. | natiyada |
| 4. U qizga shunday tikildi ... qiz juda o'ng'aysiz holatga | |
| qoldi. | |
| Go'zal shunday hunarlar ko'rsatdi ..., ... turmush o'rtog'i | |
| shifoxonaga tushdi. | |

5-mashq. «Xalq so'zi», «Mohiyat» gazetalarining biror sonidagi maqolalardan *deb*, *-ar deb*, *-mi ekan* vositalari orqali birikkan maqsad ergash gapli qo'shma gaplarga 5 ta gap topib ko'chiring.

6-mashq. Quyidagi juft keltirilgan sodda gaplardan shart ergash gapli qo'shma gap hosil qiling.

Namuna: Dars boshlandi. O'qituvchi keldi. - O'qituvchi kelsa, dars boshlanadi.

1. Byuruq berildi. Ishni boshlaymiz.
2. Siz chaqiring. Men boraman.
3. Qodir ko'rsatdi. Boshqa'lar yo'liga tushadi.
4. Qo'shning tinch, sen tinch.
5. Olim bo'l, olam seniki bo'ladi.
6. Ertaga Vali Moskvadan keladi. Men qarzlarimni beraman.

7-mashq. Gaplarni o'qing. Daraja-miqdor ergash gaplarni alohida ustunga, o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarni alohida ustunga ajratib ko'chiring.

1. Biz qanchalik ko'p yo'l yurgan sayin, manzil shunchalik uzoqlashgandek bo'lardi.
2. U shunday xyshmuomala. shunday shirin so'zki, suhbatalashib to'yaymiz.
3. Uning ko'ngli qanday toza bo'lsa, ishi ham shunday toza.
4. U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha lovullab yonardi.
5. Juda hayajonlanib ketayapman, go'yoki birinchi uchrashuvga ketayotgan oshiqdek.
6. Yigitning sazasi o'lguncha, ho'kizning shoxi sinsin.

Eslab qoling!

Qiyoslang (finish belgilariga e'tibor bering)

Ko'chirma gap:

«Men shaxmat o'ynashni sevaman», – dedi Abror.

«Men hech kimga yomonlik istamayman!» – dedi Murod.

O'zlashtirma gap:

Abror shaxmat o'ynashni sevishini *aytdi*.

Murod hech kimga yomonlik istamasligini *ta'kidladi*.

8-mashq. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirib, daftaringizga ko'chiring hamda rus tiliga tarjima qiling.

1. «Tilga hurmat – elga hurmat», – deydi dono xalqimiz. 2. Onam aytardilar: «Sen mening umid yulduzimsan, qizim». 3. Ustozim: «Agar ilmni o'rganishdan to'xtasang, o'sha kundan boshlab e'tibordan qolasan», – der edilar. 4. «Men ertaga ishga kelmayman», – dedi boshlig'imiz. 5. «Yaxshi bo'libdi!» – deb kulib qo'ydi singlim. 6. «Moskvaga sen ham ketayapsanmi?» – deb so'radi qiz.

9-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. «Hazrati inson» kinofilmimi ko'rganmisiz, shu asar haqidagi taassurotlaringizni so'zlab bering.

Величие народной души

Вот уже прошли многие годы, а интерес к роману Рахмата Файзи «Его величество Человек» не иссякает. В чем же причина этого? А причина есть. Дело в том, что эта талантливая, удачная книга, это большое завоевание узбекской литературы.

Книга начинается сценами, которые отображают суровую пору – пору борьбы против гитлеровских завоевателей. Главный герой Махкам ака, простой человек, кузнец, обладает исключительно благородной душой. Он вместе со своей женой, замечательной узбекской женщиной, выражает своё патриотическое чувство тем, что принимает в свой дом, в свою семью детей разных национальностей, детей бездомных, пострадавших от беды, которую принесла война.

Сейчас 21 век, времена другие. Некоторые люди не только не берут чужих детей в свою семью, а своих собственных детей отдают в детские дома. Этот роман Р. Файзи служит нам примером того, какой должен быть человек. А он, именно, должен быть Человеком!

10-mashq. «Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyida» mavzusida suhbat tuzing. Dialoglaringizda ergash gapli qo'shma gaplardan foydalanshga harakat qiling.

11-mashq. a) she'rnii yod oling.

Erkin Vohidov

O'zbegim

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbegim,
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.

So'ylasın Afrosiyob-u
So'ylasın O'rxun xati.
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon o'zbegin.

Al-Beruniy, al-Xorazmiy,
Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki o'zbek,
Balki Tarxon o'zbegin.

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbegin.

Qayga bormay, boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbegin!

- b) mazmunini rus tiliga tarjima qiling;
- d) she'rdan olgan taassurotlaringiz haqida yozing.

O'QISH UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR O'ZBEK MA'NAVIATINING YULDUZLARI

*Muso Al – Xorazmiy
(783 – 850)*

Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. Uning "Arifmetika" risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro' pada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «Al – Xorazmiy» nomi esa «algoritm» shaklida fanga abadiy o'tnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning «Zij»i Ovro' pada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilib o'sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug'ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Ovro' pada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk arablar orqali o'tganligi uchun ular «arab raqamlari» deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Ovro' paliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini «algorizmi» deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtaidagina bu nom «arifmetika» so'zi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgacha «algorizm» yoki «algoritm» deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu so'z bilan Al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

*Abu Nasr Forobi
(873 - 950)*

Forobi jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyat parvar, ijtimoiy-falsafiy tasavvurlarning barcha sohasini mukammal bilganligi va bilimlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, Yunon falsafasini sharhlab dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib «Al-muallim as-soniy» – «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» deb yuritilgan.

Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, o'ndan ortiq tilni bilgan. Taxminan 941- yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib ilm bilan shug'ullangan.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishning zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi eliqadi.

«Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinehilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlarga bo'ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariiga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'r ganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim ko'nkmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni keskin qoralaydi.

A b u A l i i b n S i n o (9 8 0 - 1 0 3 7)

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasinining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida hijriy 370 (980)- yilning safar oyida amaldor oilasida tug'ildi.

986- yildan ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keldi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang'ich ma'lumot olishga, ilm-fanni o'r ganishga kirishadi.

16-17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib-hakim bo'lib tanildi. 999-yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabit etilgach, Sononiylar hokimiysi inqirozga uchradi. 1000- yilda ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Irod kabi yetuk olimlar bilan

yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ldi.

Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Jur-joniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum. Ibn Sino asarlarining umumiyligi soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Ovro' padagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asarida turli tibbiyot ilmlariga: botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, kimyoga oid ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Uning tog'larining vujudga kelishi, yer kurrasining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jarayonlar haqidagi fikrlari keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim joylarning bir vaqlar dengiz bo'lganligi, shu sababli qattiq qatlamlarda turli dengiz hayvonlarining izlari saqlanib qolganligi haqida ham turli misottilar asosida fikr yuritiladi; meteoritlar, vulqonlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mineralogiyaning rivojida ham ibn Sinoning xizmatlari katta. U mineralarni 4 guru-higa ajratadi: 1) toshlar; 2) eriydigan qism (metal)lar; 3) oltingugurtli yonuvchi qismlar; 4) tuzlar.

Kimyoda ham ibn Sino zamonasining bilimlarini umumlashtirishga harakat qilib, turli asarlari yozdi, tajribalar o'tkazdi. Xususan, uning organik kimyo sohasidagi fikrlari keyingi davr mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. U oddiy metallni qimmatli metalliga aylantirish ustida fikr yurituvchi alximiklarni tanqid qildi. Ibn Sino astronomiya sohasida Ptolomeyning geotsentrik nazariyasidan tashqari chiqmagan bo'lsa-da, tabiiy hodisalarining ichki sababiy bog'lanishini aniqlashga harakat qildi, inson hayoti va ijtimoiy hodisalarini osmon jismlari harakati holatiga bog'lovchi astrologiyaga shubha bilan qaradi, turli tajribalar o'tkazish uchun yangi astronomik asbob yaratish, botanikada turli o'simliklarning tabiaty xususiyatlarini o'rGANISH, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ish olib bordi.

Abu Rayxon Beruniy
(973 - 1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha til-larni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini. keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.

U 22 yoshida Vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubu sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozi tabib, astronom, faylasuf Abu Sa'id Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. Beruniy «Osor al-boqiya analqurun al-xaliya».(Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. «Osor al-boqiya» Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasida qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, metrologiya, tarixga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy shoh Ma'munning eng yaqin maslahatchsi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tamonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldar davr bo'ldi. Beruniyning «Xorazmning mashhur kishilar» asari ham shu davrda yaratilgan.

Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri «Mineralogiya» dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro'pada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari — «Dorivor o'simliklar haqida kitob» ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarda Turkiyada topildi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Saraxsiy ma'lumoti bo'yicha 11-dekabr 1048-yilda vafot etgan. Beruniy ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H.M.Abdullayev, I.M.Mominov, V.Y.Zohidov, Y.G.G'ulomov, I.Karimov, S.A.Buldakov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyatini haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Toshkentda unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar, «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Geodeziya», «Saydana» kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p tonli sayfanna asarlari o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi. Ko'chalar, institutlarga uning nomi berilgan. Fan sohasida Beruniy nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilgan.

Mahmud Koshg'ariy (XI asr)

Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblaridan bo'llib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmud otasining ismi Husayn, bobosi Muhammad bo'llib, kelib chiqishiga va tiliga ko'ra Koshg'ariy tahallusining oлган. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etdi. Bu davrda Mavarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniylar xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy elatlar namoyandarli ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Koshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida bunyod etgan «Devonu lug'atit turk» kitobini hijriy 469 (1074/75) - yilda tugallab, Abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlagan. Asarning asosiy matni arab tilida yozilgan bo'llib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg'ariyning islomdan ilgarigi va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to'plash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, ethnografiya, tarix-jo'g'rofiya xususidagi keng bilim doirasasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada edi. Uning kitobida jamlangan aniq-ravshan ma'lumotlar VIII – XI asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham og'zaki xalq ijodi va turli lahjalarning boy manbai bo'lgani sababli imkon doirasida batafsil tavsif etildi.

«Devonu lug'atit turk»ni o'sha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin. Bu asar ustida tadqiqotlar olib borgan Fitrat, S. Mutallibov, I.V. Stebleva, V.V. Reshetov, F. Abdurahmonov, A. Rustamov kabi olimlar Mahmud Koshg'ariyning qadimgi turkiy tillarni o'rganishga buyuk hissa qo'shgan o'z davrining o'ta bilimdon olimi ekanligani ta'kidlaydilar. «Devonu lug'atit turk» 3 jilda o'zbek tilida nashr etilgan.

A m i r T e m u r

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 8-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyat, riyoziyot, falakiyat, memorchilik va tarix ilmlarini o'rgangan.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahmi mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinci davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan karakterlanadi.

Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo'l-mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo'llarida ustunlik qilib turgan Oltin O'rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta'minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta'minlash yo'lida qo'shining qudratini oshirish kabilarga katta e'tibor berdi.

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turki bo'larlik sabab bor edi. Bu sabablar – o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo'llarini turli yo'llo'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabilardan iborat bo'lgantigini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin.

Temur tarixchilar tasviricha, o'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblaridan bo'lib, Ovro'pa olimlari o'z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham ta'kidlab o'tganlar. Nemis olimi F. Shlosser o'zining «Jahon tarixi» asarida: «Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq

Sharqda qonunshunos bo'lish bilan birga, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi», – deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M. Veber: «Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi», – deb ta'riflaydi. Shuningdek, «Tuziki Temur» – «Temur tuzuklari» da ham Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotiga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy qoidalari haqida gap boradi.

Sobiq sovetlar maskurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Temur faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lindi, o'sha davr adapbiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin maskuraviy to'siq taqiqlashflariga qaramay ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida ba'zi to'g'ri fikrlar ham bildirildi. Bu jihatdan O'zbekistonda 1968-yili akademik I.M. Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'tni va roli» risolasining nashr etilishi muhim voqeа bo'ldi. Risola Temur shaxsiga bирyoqlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. Lekin bu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvli eski maskura siquvidan qutilish, tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. So'nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Bo'riboy Axmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi nashr etildi.

M i r z o U l u g ' b e k (1394 – 1449)

Ulug'bek 1394-yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq, u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik unga asosiy ism bo'lib qoldi.

Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405-yil Xitoya qilinayotgan yurish boshida Temur vafot etgach, ikki yil davomida uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Temurning kenja o'g'li Shohruhning qo'li baland keldi. Lekin Shohruh o'ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Mavarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Shunday bo'lsa ham Shohruh Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi.

Shohrux to'ng'ich o'g'lí Ulug'bekni 1411-yili Movaraunnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilmfanga moyil edi.

Ulug'bek yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan bo'lib yetishdi, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o'rta ast madaniyat tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyat va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko'p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414-yili tug'ilgan bo'lajak shoir Jomiy Ulug'bekning Samarqand madrasasida tahlisit ko'rdi. Bu yerda u Qozizoda, Ulug'bek va Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma'ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergen eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning «Ziji» bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek», «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ham ataladi. «Ziji»dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari «Bir darrera sinusini aniqlash haqida risola», astronomiyaga oid «Risolayi Ulug'-bek» (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh univyersiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asaridir.

1449-yili Ulug'bekning sojiali halokatidan so'ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharg mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadilar. ular o'zlarini borgan yertarga Samarqand olimlarining yutuqlari va «Ziji»ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473 - yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug'bek «Ziji» Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro'po mamlakatlariga ham yetib borgan.

Shunday bo'lishiga qaramay Ulug'bek «Ziji» umuman olganda to'liq ravishda o'rganilmagan va biror zamonaviy tilga to'la tarjima etilinagan.

1994-yili Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan «Ziji jadidi Ko'ragoniy»ning birinchi bor to'lig'icha rus tiliga tarjimasi bosib chiqarildi. Shu yili Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» asari ham o'zbek tilida Toshkentda nashr etildi.

Alisher Navoiy
(1441 – 1501)

XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Sohibqiron Amir Temur asos solgan ulug' saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzoning qo'l ostidagi obod manzillaridan biri edi.

1447-yilda Shohrux vafot etgach. Temuriy shahzodalar o'rtasida tej-taxt dardi xuruj qilib, yurtda taloto'p boshlandi va Alisher Navoiy xona-doni ham ko'p qatori vatanni tark etdi. Yosh Alisher uchun taqdir sinovlari boshlandi. Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur 1452-yilda Hirot taxtiga o'trgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinladi. Lekin oradan ko'p o'tmay G'iyosiddin kichkina dunyodan ko'z yundi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husaynni o'z tarbiyasiga oldi, 1456-yili esa o'zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro si-pohiylik yo'llini tanladi, Alisher esa zamonaning «malik ul-kalom»i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo'lган iste'dod egasi bo'lib yetishdi. «Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi», deb yozadi Navoiy 1455-1458-yillar haqida.

1469-yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarganddan Hirotg'a qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloziya» qasidasini unga taqdim etadi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko'r kamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she'riyat, nafis san'atlar rivoj oldi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Ixlosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «Shifoziya» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga Qorixona qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo'lyozmalarini oqqa ko'chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotda yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa madrasalar bino etildi.

1483-yildan Alisher Navoiy o'zining buyuk «Xamsa» asarini yozishga kirishdi va uni uch yilda tugalladi. Besh dostonni o'z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo'lib, Navoiyning barcha she'riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. «Xamsa» Alishyer Navoiy ijodining qalbidir.

Navoiy o'z «Xamsa»sini yaratishga 1483-yilda kirishgan bo'lsa, uning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»)ni o'sha yili yozib tugatdi. 1484-yilda «Farhod va Shirin», «Layli va

Majnun», «Sab'ai sayyor», 1485-yilda «Saddi Iskandariy» dostonini poyoniga yetkazdi. Shoir o'z «Xamsa»siga kiritilgan dostonlarda o'sha davr uchun muhim bo'lgan muammolarni qo'ydi, mutasakkir sifatida ilg'or qarashlarni ilgari surdi, o'zbek tilining qudratini olamga namoyish etdi.

Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurososning butun ma'naviy madaniyatni taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari, she'riyati qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi, madrasalarda keng o'rjanildi.

Alisher Navoiy ijodini o'rjanish, uning ilmiy tahlili bo'yicha so'nggi yillarda qator taniqli tadqiqotchilar ish olib borditar va bugungi kunda ham Navoiyning merosi ko'pgina olimlarimizni ilhomlantirib keladi. Hozirda maktablar, xiyobonlar, ko'chalar buyuk shoirimiz nomi bilan yuritiladi. Uning nomida O'zbekiston Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

N o d i r a

Mohlaroyim - Nodira XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiyisidir.

Shoira 1792-yili Andijon hokimi Rahmonqulixon oilasida tavallud topdi. Uning onasi Oyshabeginma'rifatli ayol bo'lgan. O'zining oilaviy sulolasiga ko'ta Bobur nasliga mansub bo'lib, shoiraning ota-onasi ham oavning e'tiborli kishilari edilar.

Mohlaroyim she'riyatga juda erta havas qo'ydi. Ustoz Navoiy, Jomiy va Bedil kabi allomalarning asarlariga bo'lgan e'tiqodmandlik bilan ruban barkamollahshib bordi.

Ma'lumki, bu yillarda Qo'qon xonligini Olimxon idora qilardi. Uning ukasi Umarxon esa Farg'ona vodiyining nufuzli shaharlaridan bo'lgan Marg'ilonda hokim edi. 1807-yilda ilgaridan bir-birlariga ko'ngil qo'yib, sevishib kelgan Umarxon va Mohlaroyim turmush quradilar. Shu munosabat bilan Mohlaroyim Marg'ilonga keladi. Ko'p o'tmay Qo'qon xonligida davom qilib kelayotgan ziddiyatlar oqibatida 1810-yili Olimxon qatl etilib, uning taqdiri Qo'qon bilan bog'lanib qoladi. Uning shoira sifatida keng ko'lamba ijod maydoniga kirib kelishi ham shu yillarga to'g'ri keldi.

Nodira Qo'qonda xon saroyida ekan, davlat ishlardan ham voqif bo'lib borardi. Xususan, adabiyot va san'at ahli bilan yaqinlashishga, ko'p asrlik adabiyotimiz yo'lidan borib, davr she'riyatini yuqori ko'tarishga astoydil kirishadi. Mohlaroyim va Umarxonning oilasida ikki o'g'il tug'ildi. Muhammad Alixon va Sulton Mahmudxonlar o'sib-ulg'ayib boradilar.

Umarxonning 1822-yili bevaqt vafotidan keyin yosh Muhammad Alixon davlatni boshqarishga kirishadi. Nodira ham yosh o'g'lining yoniga kirib mamlakatni boshqarish ishiga faol ishtirok eta boshladi.

Nodira davlat va mamlakat ishlarini tadbir va adolat bilan idora qilishda homiylik namunasini ko'rsatarkan, bu yillarda mamlakatda nisbiy osoyishtalik saqlandi. Qo'shni o'lkkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda kelishuvlar amalga oshirildi. Nodiraning mamlakatdagi qurilishlar sohasidagi olib borgan ishlari, madaniyat va adabiyot borasida ko'rsatgan tashabbuskorliklari shoira devonining debochasi ta'kidlab o'tilgan.

Biroq xonliklar o'rjasida davom etib turgan muttasil kelishmovchiliklar Movorounnahrning o'z saofiyatini keng ravnaq topishida rahna solib turar edi. Oqibat shunga olib keladiki, Buxoro amiri Nasrullo turli vaj-karsomlar bilan Qo'qon ustiga bostirib kelib, go'y o'yo bu yerda izidan chiqqan shariat qoidalarini nizomga solmoqchi bo'ldi. Xonlikning hamma e'tiborli kishilarini ta'qib etadi va Mohlaroyimni ikki o'g'li – Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon va nabirasi Muhammad Aminxonni vahsiylarcha qatl etadi.

O'zbek xalqining ajoyib shoirasining hayoti shu yo'sinda fojiali yakun topadi.

Nodiraning hayot yo'li va adabiy merosi haqida Lutsillo olim, Fitrat, S.Ayniy, V.Zohidov, V.Abdullaeva, O'tkir Rashid, T.Jalilov kabi olim, shoirlar va ayniqsa, A.P.Qayumov yaratgan tadqiqotlar diqqatga sazovor.

TURLI MUTAXASSISLIKALAR UCHUN MATNLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PREZIDENTI

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'l-magan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi.

Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'la-nigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini, Konstitusiya va qonunlarga riona etilishining kafilidir; O'zbekiston Respublikasi suveriniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzulishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi; mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; Respublika Oliy Majlisiga har yili ichki va xalqaro ahvol xususida ma'lumotnomma taqdim etadi; lavozim, shaxslarni taqdim etadi, tayintaydi va ozod qiladi; O'zbekiston Respublikasi qonunlarini imzolaydi; Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qomondoni hisoblanadi; urush holati e'lon qiladi; O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari, yorlig'i bilan mukofotlaydi. O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi; O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi; amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qiladi va O'zbekiston Respublikasi sudsari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni afv etadi va o'z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitusiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste' foga chiqqan Prezident umrbod Konstitusiyaviy sud a'zosi lavozimini egallaydi.

Notarius

O'zbekiston Respublikasida notarius lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius huzurida kamida bir yillik muddatli stajirovkani o'tab malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanadi. Notariusning oliy yuridik ma'lumoti stajyori va yordamchisi bo'lishi mumkin. Hususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar orasidan stajyomi, shuningdek, yordamchini mustaqil tarzda ishga qabul qilishga haqlidir. Notariuslar oz faoliyatida mustaqil bo'lib, bu faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi. Notarius: ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatidan tashqari, tadbirdirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga; shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko'rsatishga haqli emas. Xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius yuridik shahsdir. U o'z idorasiga ega bo'lish, bankda hisobkitob varaqasi va boshqa hisob varaqalar ochish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquq va majburiatlarga ega bo'lish, xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va ularni to'xtatish, tushgan daromadni tassarufetish, sudda o'z nomidan qatnashish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir. Notarius quyidagi huquqlarga ega:

– o'ziga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun nazarda tutilgan notariat harakatlarni amalga oshirish;

– bitim va arizalarning loyihalarini tuzish, hujjatlarining nushalarini va ulardan ko'chirmalarni tayyorlash, shuningdek notarial harakatlarning amalga oshirilishiga doir masalalar yuzasidan tushintirishlar berish;

– jismoniy va yuridik shaxslardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilib olish.

Notarius jismoniy va yuridik shaxslarda o'z hujjatlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maktashishi, ularning huquq va majburiatlarini tushintirib berish; notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzulganligi aniqlangan taqdirda zarur chora-tadbirlar ko'riliши uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilish va boshqa majburiyatlarga ega.

Mahmud Qo'shg'ariy tuzgan xarita

11-asrda yashab o'tgan buyuk o'zbek tilshunosi, mutafakkir Mahmud Qo'shg'ariy mashhur «Devonu lug'otit turk» asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qilgan. Bu xarita doira shaklida bo'lib, unda mamalakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, ko'l va dengizlarning nomlari yozilgan. Belgilanmay qolgan bir qancha nomlar esa asarning matnida izohlangan.

Doira chizig'i to'q yashil bo'yodda ko'rsatilganligi yer yuzini hamma tarafdan okeanlar o'rabi organligini bildiradi. Xaritada muayyan geografik bog'ianish mavjud: daryolar bir necha shohobcha bo'lib, tog'lardan boshlanadi, ko'llarga yoki dengizlarga quyiladi. Davlat chegaralari va masofalar o'chovida ma'lum mutanosiblik bor. Masalan: Issiq ko'ldan Yaponiyagacha bo'lgan masosa Issiqko'ldan Habashistongacha bo'lgan masofaga teng qilib tasvirlangan. Haqiqatan ham shunday. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Marg'ilon, Xorazm, Kaspiy dengizi, Jabarha (Yaponiya) kabi joy nomlarining kelib chiqishi, iqlimi, tabiiy sharoitlari, urf-odatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ba'zi joylarning nomlari va hususiyatlari izohlangan. Olim Sahroi Kabir yerlari haqida: «Yuqori harorat bo'lganidan u erda odamzod yashamaydi» desa, Ovropaning shimali va Arktika qismni:»Qattiq sovuq bo'lganidan odamzod yashamaydi; deb izohlaydi.

Bu xarita o'rta asr geografiya fani tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

«Tushuntirish» kitobi

Ulug' Beruniyninig, «At-tashim» («Tushuntirish») kitobining to'liq nomi «Yulduzlarni hisoblash san'atining boshlang'ich qismlarini tushuntirish» dir.

Olimning bu noyob asari Rayhona Hasan al-Xorazmiy qiziga bag'ishlangan bo'lib, unda arifmetika, algebra, geometriya, astronomiya, geografiya, xronologiya va boshqa ko'pgina aniq fanlar haqida fikr yuritiladi.

Kitobning geografiya qismida yerning hajmi, dengiz va daryolarning paydo bo'lishi to'g'risida o'z ilmiy xulosalarini bayon qiladi. Yana bu asarda alloma tuzgan sharqiy yarim sharning yumaloq xaritasi ham bor. Shuningdek, kitobdan yerning odainlar yashaydigan bo'laklari haqida qimatli ma'lumotlar, mamlakatlar, halqlar, shaharlar, elatlari to'g'risida ilmiy asoslangan hikoyalar o'rinn olgan. Asarning to'rtinchisi bobida «Yerning katitaligi qanday?», «Ekvator qayerda va uning xosiyatlari nimada?»,

«Shaharning kengligi qanday?», «Iqlimlar nima?» kabi 35 savolga javob berilgan.

Millatlar haqida gap ketganda, Beruniy Xazar va Trapezund dengizi o'rtalig'ida istiqomat etuvchi hazarlar, ruslar, pecheneglar, boshqirdlar va bulg'orlar to'g'risida so'zlaydi. Ularning yashash sharoiti, urf-odatlari haqida batafsil to'xtaladi.

Fizika sohasida qilingan eng ahamiyatli kashfiyotlarning ikkitaligi

1. **Astronomlarning jahonning kengayishi to'g'risidagi kashfiyoti.** Bu kashfiyot o'layotgan yulduzlarning chaqnashini kuzatish orqali qilinadi. Qizil siljish kattaligi (katta tezlikda uzoqlashib ketayotgan ob'ektdan yorug'lik to'lqini uzunligining o'sishi) yerni yuzaga keltirgan Katta Portlash inersiyasidan farqli ravishda, galaktikalar orasidagi masofa katta tezlik bilan o'zgarib borayotganini aniqlashdi. Bu kuzatish Jahon qaysidir bir payt gravitasiya ta'siri ostida o'z tezlanishini sekinlatishi va yana og'ir kesakchaga yig'ilishi va halok bo'lishi muqarar ekanligi nazariyasini yo'qqa chiqardi. Kashfiyot tabiatning jismoniy hodisalarini tushunib yetishda katta ahamiyatga ega. Jahon kengayishining tezlanishi yulduz materiyasini katta konsentrasiyadan bo'shliqqa itarib chiqadigan kuch mavjudligini bildiradi. Ma'lum bo'lishicha, o'z vaqtida Eynshteyn galaktikalar nima uchun gravitasiya ta'siri ostida yaqinlashmayotganini tushunirish uchun bunday kuch mavjudligi to'g'risida tahlika qilgan ekan. O'sha paytda galaktikalarning statistik joylanishi nazariyasi ustunlik qilar edi. Astronom Hablning jahonning kengayishi to'g'risidagi kashfiyoti Eynshteynni o'z hatosini tan olishga majbur qilgandi. Hozir esa jahon kengayishining doymiy tezlanishi to'g'risidagi ko'rsatmalar bo'lganligi uchun Eynshteyn tomonidan bashorat qilingan kuch haqiqatda mavjud ekanligini tan olishga to'g'ri kelmoqda.

2. AQSh va Angliya olimlari zarrachalar to'g'risidagi kvant axboroti teleportasiya qilishini mumkin ekanligini ko'rsatishdi. Har holda bu tadqiqotlar insonga fazoga teleportasiya qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu kashfiyot o'ta tez kvant kompyuterlarini yaratish imkonini beruvchi axborotning yangi nazariyasini qurishning prinsipial imkonini beradi.

Fizika va texnika

Fizika barcha tabiyot fanlari bilan ayniqsa, bilimning texnikaviy tarmoqlari bilan uzviy bog'langandir. Fizikaviy qonunlar bir qancha texnikaviy fanlarning asosiy qonun-qoidalarni tashkil qiladi.

Fizikaning yangi bo`limlarining ochilishi va tadqiqi texnikaning yangi tarmoqlarini vujudga kelishiga olib keladi. Mashinasozlik mexanika qonunlariga elektrotexnika va radiotexnika esa elektromagnit hodisalar qonunlariga tayanadi va hokazo. Fizikaning muvaffaqiyatlari texnikada amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi; masalan, sanoat elektrostansiylarining atom energiyasi bilan ishlashi texnikaning yangi sohasi – atom energetikasidan dalolat beradi. Fiziklar atom ichki energiyasining g'oyat katta zapasi haqida taxminan 70 yilcha ilgari bilgan bo`lsalar-da, atom energetikasi haqidagi fikr 30 yil ilgari fantaziya hisoblanardi. Qattiq jism fizikasi sohasidagi tadqiqotlar radioteknikani, aloqa texnikasini, tez ishlovcchi hisoblagich mashinalar texnikasini yangi, yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Texnikaviy fanlarning taraqqiyoti o'z navbatida, fizikada tadqiqot usullarining takomillashishiga yordam beradi; masalan, radioastronomiya da kuzatishning radioteknikaviy vositalari astrofizikaviy hodisalarni o'rGANISHNING yangi samarador vositalarni berdi, zaryadli zarralarning qudratli tezlatgichlarini texnikaning yuqori darajasi tufayligina yaratish mumkin bo`ldi.

Atoqli jurnalistlar

Munavvarqori Abdurashidxonov – Turkistonda jadidchilik harakating asoschilaridan biri. Munavvarqori Abdurashidxonov o'zbek tilida nashr qilingan birinchi gazetalarning noshiri, muharriri hamdir. «Xurshid», «Najot», «Kengash», «Hurriyat», «Osiyo» gazetalari Munavvarqorining publisistik faoliyati bilan bog'liq. Munavvarqori Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev, Tolagan Xo'jamiyorov, Tavallolar bilan hamkorlikda «Sadoi Turkiston» gazetasini nashr etgan. Munavvarqori Abdurashidxonov «Adibi Soniy» kabi darsliklar yozgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy – birinchi o'zbek milliy matbuotiga asos solgan jurnalist va muharrirdir. Behbudiy tufayli Turkistonda milliy matbuot «Samarqand» (1913) gazeta, «Oyna» (1913) jurnal ta'sis etildi. Ana shu matbuot organlarida Mahmudxo'ja Behbudiy milliy uyg'onish jarchisi sifatida o'z publisistik asarlari bilan Turkistonning barcha aholisiga tanildi. Behbudiy 1901-yildan boshlab, Turkiston va hatto undan tashqaridagi ko'plab matbuot namunalarida 300dan ortiq maqolalar e'lon qildi. Jumladan, «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Ulug' Turkiston», «Vaqt», «Sho'ro» kabi gazeta va jurnallardir. Mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy publisistikasining mundarijasi keng, ularda ijtimoiy, ma'rifiy, ilmiy-ma'rifiy, siyosiy publisistika o'z aksini topgan.

Akademik Mahmud Salohiddinov

Salohiddinov Mahmud Salohiddinovich – atoqli matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1984), Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti sovindori (1974). U O'zbekistonda differencial tenglamalar sohasidagi hozirgi zamon ilmiy maktabining tashkilotchisi va rahbari, Respublikada fan va ilmiy ta'limini tashkil etish va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan jamoat va davlat arbobidir.

Salohiddinov Mahmud Salohiddinovich 1933-yil 23-noyabrda Namangan shahrida tavallud topdi. 1950-yili O'rta Osiyo Davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi. Uni imtiyozli diplom bilan tamomladi. U 1958-yili nomzodlik dissertasiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Shu bilan butun umrini O'zbekistonda matematik bilimlarni rivojlantirishga bag'ishladi. 1967-1985-yillarda O'zFA vitse presidente, 1988-yilda presidente bo'lib 1994-yilgacha ishlab keldi.

Salohiddinov Mahmud Salohiddinovich sermazmuni ilmiy ijodiy faoliyatini doim pedagogik va davlat ishlari bilan birga olib bordi. U Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vaziri vazifasida 1985-1988-yillarda Oliy Maktabni rivojlantirish va uning kadrlar potensialini ko'tarishda katta hissa qo'shdi. O'zi asoslagan ToshDU differensial tenglamalar kafedrasi mudiri (1980-1986-yillar, 1993-yildan) bo'lgan. Differensial tenglamalar boyicha shahar seminarining rahbari, ajoyib pedagog, ilmda chanqoq yoshlarni murabbiysi, shu bilan birga juda talabchan, mehribon, xush fe'l, adolatparvar insondir. U matematikani va Oliy ta'llimi rivojlantirishga qo'shgan hissasi, sermaksul pedagogik faoliyati va yuqori malakali ilmiy mutaxassisilarni taorlagani O'zbekiston Respublikasi Oliy soveti «Faxriy yorligi», «Hurmat belgisi» uchun orden va medallar bilan taqdirlangan.

Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi

Quyosh atrofida sayyoralar tinimsiz aylanib turganidek, sayyoralarning ham atrofida ma'lum orbita bo'ylab osmon jismlari aylanib yuradi. Sayyora atrofida doimiy aylanib yuradigan tabiiy osmon jismi tabiiy yo'ldosh deb ataladi. Merkuriy va Veneradan tashqari barcha sayyoralarning o'z tabiiy yo'ldoshti mavjud. Bizning sayyoramiz – Yer bitta tabiiy yo'ldoshga ega. Yerning tabiiy yo'ldoshi Oydir.

Oy Yerga eng yaqin osmon jismi bo'lib undan yorug'lik nuri bizga bor-yog'i 1,5 sekundda yetib keladi. Siz bilasizki, quyoshdan nur yerga 8,5

minutda kelardi. Oyning Yerdan o'rtacha uzoqligi 384 400 km deb olingan. Uning diametri 3500 km, ya'ni Yerning diametridan deyarli to'rt marta kichik.

Osmonda Yerga nisbatan g'arbdan sharqqa tomon harakat qilib, 27 kun u 8 soatda Yer kurrasini bir marta aylanib chiqadi. Oy bizga doimo bir tomoni bilan ko'rindi. Oyning tabiatи Yerga nisbatan o'zgacha bo'lib, yuzida havo yo'q. Shuning uchun ham sirti kunduzi 120 darajada issiq bo'lsa, kechasi 160 darajagacha sovuq. Oyda kecha va kunduzining har biri deyarli 15 kundan davom etadi. Shuning uchun ham «Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug» deyiladi. Yo'ldosh sirti pasttekislik, tepalik, chuqirlik va tog'lardan iborat. Lekin oyda havo, suv bo'lmanligi tufayli hayotdan asar ham yo'q. Tevarak atrofni jonsiz tabiat qamrab olgan. Qizig'i shundaki, Oyda Quyosh nuri hanima yoqni qizdirib turgan vaqtida ham osmon qop-qorong'i bo'lib ko'rindi. Quyoshga bermalol tikilib qarash mumkin, atrofidagi zim-ziyo osmonda yulduzar ko'rini turaveradi. Bunga sabab Oyda havoning yo'qligidir. Havoning yo'qligi tufayli sirtiga mayda osmon jismlari yog'ilib turadi. Havo bo'lganida edi, ushbu jismlar yonib ketgan bo'lardi.

MUNDARIJA

Kirish	2
1-dars	3
2-dars	6
3-dars	13
4-dars	18
5-dars	25
6-dars	29
7-dars	33
8-dars	39
9-dars	43
10-dars	49
11-dars	54
12-dars	59
13-dars	66
14-dars	71
15-dars	77
16-dars	83
17-dars	89
18-dars	96
19-dars	103
20-dars	110
21-dars	117
22-dars	124
23-dars	131
24-dars	139
25-dars	144
26-dars	149
27-dars	154
28-dars	160
29-dars	165
O'qish uchun qo'shimcha materiallar	
O'zbek ma'naviyati yulduzları	171
Turli mutaxassisliklar uchun matnlar	182

*Havoxon Qahhorova,
Saodat Muhamedova*

O'ZBEK TILI
Universitetlarning rus guruhlari uchun

Muharrir J.Xudoyberdiyev

Bosishga ruxsat etildi 12.09.2003. Qog'oz bichimi 60X84 1/16. Nashriyot bosma tabogi 13,8. Shartli bosma tabogi 20,1. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 300

«Universitet» nashriyoti. Toshkent-700174, Talabalar shaharchasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, ma'muriy bino, 2-qavat, 7-xona.

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.